

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Qo`lyozma huquqida  
UDK. 379.83 -027541**

**OBLAQULOV HUSAN ABDUSAYIT O`G`LI**

**“Zarafshon mintaqasida turizmni rivojlantirishning geografik  
jihatlari”**

**5A 110501- Aniq va tabiiy fanlarni o`qitish metodikasi (Geografiya)**

**Magistr**

**akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:  
dots. Kalonov B.H**

**NAVOIY – 2017**

**Kirish** .....

**I.BOB. Zarafshon mintaqasini geografik o'рни, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarni turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati** .....

1.1. Zarafshon mintaqasining geografik o'рни .....

1.2. Mintaqa iqtisodiyotining turizmni rivojlantirishdagi o'рни .....

**II.BOB. Mintaqa turizm obektlari geografiyasi** .....

2.1. Samarqand viloyati turizm obektlari .....

2.2. Buxoro viloyati turizm obektlari .....

2.3. Navoiy viloyati turizm obektlari .....

**III. BOB. Zarafshon mintaqasida turizmni rivojlantirishning kelajakdagi istiqbollari va ta'lim jarayonda turizm geografiyasini o'qitilishi** .....

3.1. Mintaqada kelajakda turizmni rivojlantirish uchun olib borilayotgan

Sayharakatlar .....

3.2 Ta'lim jarayonida turizm geografiyasining o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari

**Xulosa** .....

**Adabiyotlar ro'yxati** .....

# O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

## NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTE

*Fakultet* Tabiiy fanlar fakulteti      *Magistr* Obloqulov Husan Abdusayit o`gli

*Kafedra* Geografiya o`qitish metodikasi      *Ilmiy rahbar* dots. Kalonov B.H.

*O`quv yili* 2016-2017 o`quv yili *Mutaxassisligi* Geografiya o`qitish metodikasi

### MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mamlakatimizda turizm sohasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq katta e'tibor berildi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmoqda. O'zbekistonning jahon turizm bozoridagi salohiyatiga baho beradigan bo'lsak, uning Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori imkoniyatlarga ega ekanligini ko'ramiz. Respublika hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ortiq qadimiy me'morchilik, monumental san'at yodgorliklari mavjud bo'lib, O'zbekiston tarixiy me'morchilik yodgorliklarning umumiy soni bo'yicha jahondagi yetakchi o'nta mamlakatlar qatoriga kiritilib, to'rtta yirik shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrizabz YUNESKO tomonidan jahon madaniyati yodgorliklari markazi sifatida tan olingan va xalqaro tashkilot tomonidan muhofazaga olingan.

Zarafshon mintaqasida rekreatsion-turistik resurslardan foydalanish, mahsulotlarni shakllantirish, sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Shunday ekan Zarafshon mintaqasida turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishni talab qiladi. Ushbu tadqiqod ishda mazkur masalalar mintaqada rekreatsiya va turizmni rivojlantirish miqyosida o'rganiladi. Zarafshon mintaqasida turizm imkoniyatlari juda ham katta. Ushbu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, dunyo sayyohlarini jalb qilishda, ular uchun yaratilayotgan sharoitlarni chuqur tahlil qilish va baholash, turizm infrastruktura tarmoqlari va mehmonxona xo'jaligidagi muommolarini, rekreatsion dam olish joylarini yaratish muommolarini hal qilish uchun tavsiyalarni ishlab chiqish mazkur tadqiqod ishining asosiy vazifasi hisoblanadi. Mintaqa turizm sohasini rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va yanada takomillashtirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturini bajarishda muhim rol o'ynaydi. Zarafshon mintaqasida turizm bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni rejalashtirish, turistik ob'ektlarni ilmiy asoslangan holda joylashtirish, turistik resurslardan samarali foydalanish maqsadida yangi istiqbolli turistik marshrutlar tashkil etish, turizm indisturiyasini rivojlantirish ishlarini ilmiy yondashgan holda amalga oshirish mazkur dissertatsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

**Ilmiy rahbar: dots.Kalonov B.H.**

**Magistratura talabasi: Obloqulov H.A.**

**Republic of Uzbekistan The Ministry of National Education**

**Navoi State Pedagogical Institute**

Faculty: Natural science

Magistr: Oblakulov H.A.

Chair: The methods of teaching geography

Scientific adviser: Kalonov B

Academic year: 2016-2017

Speciality: The methods of teaching geography.

**The Annotation of the Research work of Master`s degree**

In our country took into great consideration to the field of tourism in an initial days of Independence. There were formed all the necessary organizational-legal mechanisms for the development of the speciality also declared important major documents and it is still continued to nowadays. If we marked the capacity of tourism in the world market of Uzbekistan, we can see that, it has a great chance around the states of Central Asia. There are more than four thousand (4000) ancient architecture, monumental art memories in the outskirts of the Republic. Uzbekistan submitted in the row of ten (10) leading countries with the quantity of historical memories. Four (4) large cities: Samarkand, Buhara, Xiva and Shahrisabz were recognized as a centre of world culture memories by UNESKO.

Using the issue of resting touristic resources, forming products, to develop the speciality as a degree of time wasn't learned yet in the region of Zarafshan. Therefore, it demands to create the scientific-theoretical and practical sides of using touristic resources in the region of Zarafshan. In this research work these problems will learn as a manner of developing resting and tourism. There are huge possibility of tourism in Zarafshan. The main object of this research work: to use of this possibility in a right way; to analyse and mark the creating conditions in order to attract the attention of the tourists in the world; to produce the recommendations for solving problems of creating resting homes; to solve the problems of the branch of infrastructural tourism and the economy of hotels. To develop the speciality of tourism in the region, which planned to 2017-2021<sup>st</sup> year plays the main role to implement the regulation, to improve the infrastructure of tourism and perfecting it once more. The aim of this research work is planning the measures devoted to tourism in Zarafshan; setting touristic objects by scientifically; to organize the new touristic routes in order to use for touristic resources; to carry out the works that to develop the industry of tourism by scientifically.

**Scientific adviser: Kalonov B**

**Magistr: Oblakulov H.A.**

## KIRISH

Mamlakatimizda turizm sohasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq katta e'tibor berildi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy–huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmoqda. Bugungi kunda jahon xo'jaligida noishlab chiqarish tarmoqlarining hissasi muttasil oshib bormoqda. Fikrimiz isboti sifatida rivojlangan g'arb davlatlarida yalpi milliy mahsulot hajmining moddiy ishlab chiqarish sohalariga nisbatan xizmat ko'rsatish tarmoqlari ulushining oshib ketganligini keltirishimiz mumkin. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi keng ko'lamiga ega bo'lib, insonlar hayotini yaxshilashda muhim o'rnin tutmoqda. Shuning uchun so'ngi yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda . Bu esa xizmatlar bozorida yangi istiqbolli xizmat turlarining ya'ni rekreatsiya va turizm xizmatlarining shakllanishiga asos bo'lmoqda.

Samarqand shahrida 2014 yil 2-oktabrda BMT Jahon Sayyohlik Tashkiloti Ijroya Kengashi 99-sessiyasi bo'lib o'tdi. Bu sessiyada jahonning 100 ga yaqin mamlakatlardan delegatlar ishtirok etishdi. Mamlakatimiz prezidenti Islom Karimov sessiyaning ochilish marosimida nutq so'zladi. O'zbekiston hududida 7 mingdan ortiq tarixiy yodigorliklar mavjud bo'lib ularning aksariyati YUNSKO ning Butunjahon merosi ro'yxatga kiritilgan. Sharq durdonalari bo'gan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qo'qon va Termiz shaharlari shular jumlasidandir. 2013 yilda mamlakatimizga dunyoning 70 dan ortiq davlatlardan 2 milliondan ortiq turistlar tashrif buyurishdi. Bu sohada mamlakatimiz boyicha 200 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda, 550 ta sayyohlik kompaniyasi turoperatorlari faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham jahondagi yetakchi mamlakatlarning rivojlanish darajasiga erishish maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqib, o'z milliy modeliga asoslangan holda turizm sohasini shakllantirish uchun barcha zaruriy ishlarni olib bormoqda. Ushbu milliy model birinchi navbatda ichki imkoniyatlarni, o'zbek

xalqining mentalitetini va jahon andozalariga mos keladigan omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozimligini yoddan chiqarmaslik kerak. O'zbekistonning jahon turizm bozoridagi salohiyatiga baho beradigan bo'lsak, uning Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori imkoniyatlarga ega ekanligini ko'ramiz. Bu haqda, masalan, Respublika hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ortiq qadimiy me'morchilik, monumental san'at yodgorliklari dalolat beradi. O'zbekiston tarixiy me'morchilik yodgorhklarining umumiy soni bo'yicha jahondagi yetakchi o'n ta mamlakatlar qatoriga kiritilib, to'rtta yirik shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrizabz YUNESKO tomonidan jahon madaniyati yodgorliklari markazi sifatida tan olingan va xalqaro tashkilot tomonidan muhofazaga olingan. Xalqaro turizm sohasi respublikamiz iqtisodiyoti uchun g'oyatda zarur bo'lgan valuta tushumini ta'minlaydi. Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirishda tarixiy-madaniy obidalar bilan bir qatorda dam olish va madaniy hordiq chiqarish uchun xizmat qiladigan turistik obektlarning ham mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi.** Ayni vaqtda turizm sohasini rivojlantirish mintaqalar iqtisodiyotini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois mazkur tarmoqni rivojlantirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirildi, unga tegishli ma'rifiy va huquqiy asoslar yaratildi. Ammo shunga qaramasdan mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmayapti, turizmda yaratilgan shart sharoitlar mintaqalar talab darajasida emas. Bu esa turizm infratuzilmasini tadqiq etish lozimligini ko'rsatib boradi.

Mamlakatimizda turizm sohasi bozor munosabatlarini shakllantirishda xizmat ko'rsatish sohasidagi iqtisodiy munosabatlarning hal etishda, o'ziga xos o'rni bor. Chunki bu soha bozor sub'ekti sifatida tez rivojlanish bosqichida, uning tarkibiy qismi bo'lgan turizm sohasi ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Turizm nisbatan yangi soha bo'lishiga qaramasdan o'z mavqieni mustahkamlab bormoqda. Bu kelajakda ham istiqbolli porloq sohalardan biri bo'lib qoladi. Zarafshon mintaqasida rekreatsion-turistik resurslardan foydalanish, mahsulotlarni shakllantirish, sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish masalasi yetarli

darajada o'rganilmagan. Shunday ekan Zarafshon mintaqasida turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishni talab qiladi.

Ushbu tadqiqod ishda mazkur masalalar mintaqada rekreatsiya va turizmni rivojlantirish miqyosida o'rganiladi. Zarafshon mintaqasida turizm imkoniyatlari Respublikada, balki O'rta Osiyoda ham etakchidir. Ushbu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, dunyo sayyohlarini jalb qilishda, ular uchun yaratilayotgan sharoitlarni chuqur tahlil qilish va baholash, turizm infrastruktura tarmoqlari va mehmonxona xo'jaligidagi muommolarini, rekreatsion dam olish joylarini yaratish muommolarini hal qilish uchun tavsiyalarni ishlab chiqish mazkur tadqiqod ishining dolzarbligini asoslab beradi.

**Tadqiqotning ob'ekti.** Magistrlik dissertatsiya ishining tadqiqod ob'ekti sifatida, Zarafshon mintaqasi (Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari) turizm infrastruktura majmuasi tanlangan.

**Tadqiqot predmeti.** Tadqiqot ishida mintaqada rekreatsiya va rekreatsion resurslar salohiyati, bu mintaqada joylashgan tarixiy-me'moriy obidalari, muzeylari va mehmonxonalar misolida turizm infrastrukturasining shakllanishi hamda rivojlangan omillarini geografik jihatdan o'rganish lozim.

**Dissertatsiyada ko'zga tutilgan maqsad.** Turizm har bir davlat, mintaq yoki hududning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'daniy, ma'rifiy sohalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishni e'tiborga olgan holda mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shadi. Zarafshon mintaqasida turistik rekreatsion resurslaridan foydalanish va bu mintaqada xalqaro turizmni rivojlantirish, shuningdek, geografiya ta'limida turizm geografiyasini o'qitishda yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosiy maqsad qilib olingan.

**Ishining vaziflari.** Zarafshon mintaqasi turizm infrastrukturasining rivojlanishini tahlil qilish asosida uni hududiy tuzilishini yaxshilash yo'llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, uning quyidagi vazifalari belgilandi va hal etildi.

- Turistik–rekreatsion resurslarning geografik jihatdan o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish istiqbollarini belgilash;
- Mintaqaning turistik rekreatsion resurslaridan samarali foydalanish va turizimni rivojlantirish istiqbollarini aniqlash;
- Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlarida turizmining rivojlanishi va uni hududiy tahlil qilish;
- Turizm infrastrukturasi rivojlantirishning iqtisodiy ijtimoiy muammolari va mintaqada xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish choralarini aniqlash.

**Disertatsiya ishining asosiy masalalari va farazlari.** Bajarilgan tadqiqot ishining asosiy masalalaridan eng avvalo mintaqada turizm infrastrukturasi rivojlanishida, rekreatsion resurslarini o'rganish, turistik rekreatsion nuqtalarini aniqlash va tarixiy-me'moriy obidalar, muzeylarini tahlil qilish hamda mehmonxona xo'jaliklarini hududiy tashkil etilishi masalalari asosida kompleks geografik tadqiqot o'tkazilishi bilan tavsivlanadi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Turizm sohasini ilmiy jihatdan tadqiq qilish asosan XX asrning yarmidan boshlandi. Sobiq ittifoq davrida, rekreatsion resurslar va ulardan foydalanish masalalari ko'proq o'rganildi.

MDH mamlakatlari turizm tarmog'ining geografik jihati bilan A.Y. Aliksandrova, S.R. Yerdalitov, E.T. Dalabonov, V.G. Gulyayev, V.S. Yankiyevich, E.N. Buturov, A. Nizomiyev singari olimlar shug'ullangan. O'zbekistonda bu soha bilan Aliyeva M.T, Umarjonov.A.A, Ho'jayev U.X, Irmatov M.M, Mirzayev R, Soliyev A, Usmonov M,Ibobekov F, F.Kamilova kabi olimlar turizimni geografik jihatdan nazariy va amaliy muammolarini o'z tadqiqot ishlarida o'rganganlar.

Jumladan, F.Komilovning "Xalqaro turizm bozori" nomli o'quv qo'llanmasida turizimning milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish, turistik infrastruktura tarmoqlarining shakllanishi va turizm marketingi kabi mavzularda keng malumotlar berilgan.



Taniqli olimlarimizdan O'zMU geografiya fakulteti professori A. Soliyev va D.U. dotsenti M. Usmonovlarni "Turizm geografiyasi monografiya" sida turizm tarixi, mamlakatimiz turistik salohiyati va uni turistik geografik rayonlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Umuman olganda mamlakatimizda bu sohada hali qilinishi kerak bo'lgan tadqiqotlar juda ko'p. Jumladan turizm rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan asosiy majmua. Turizmni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish. Turizm infrastrukturasi bugungi kunda yetarli darajada o'rganilmagan uni istiqbolli rejalarini tuzish va o'rganish. Mazkur mavzu bo'yicha dissertant tomonidan 6 ta ilmiy maqola turli to'plam va ilmiy jurnallarda e'lon qilingan bo'lib, shundan bitta maqola OAK tassarufidagi jurnalda e'lon qilingan.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Bajarilgan magistrlik dissertatsiyasining natija va xulosalarini mintaqa turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan istiqbol rejasini ijrosini ta'minlash bo'yicha tadbirlardan foydalanish mumkin. Mintaqa turizm sohasini rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va yanada takomillashtirishning 2015-2020 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturini bajarishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari tadqiqotning ilmiy va amaliy tavsiyalari, mavjud statistik ma'lumotlari oliy o'quv yurtlari hamda akademik litsey va kasb hunar kollejlarning o'quv jarayonini amalga oshirishda ko'mak beradi. Ishning yana bir ilmiy ahamiyati mintaqaning modernizasiyalash sharoitida turistik resurslardan foydalanish va turistik mahsulotlarni shakllantirish bilan bog'liq muammolarning nazariy echimlarini o'rganish, tadqiq qilish uchun ilmiy asos bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda mintaqadagi turistik resurslardan samarali foydalanish maqsadida yangi istiqbolli turistik marshrutlar tashkil etishda dasturiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi.** Butun dunyoda rekreatsiya va turizmni rivojlanishi barcha sohalarga kirib boradi. Turizm birinchi navbatda mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Turizm sohasini rivojlanishi mamlakatda ham, mintaqada ham undan keladigan mablag' evaziga, buyudjetga salmoqli daromad keltiradi. Tadqiqot jarayonida turizmga oid mavjud bilimlar tahlil qilinib,

ulardan foydalanilgan va bayon qilingan usullar orqali o'rganish va foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Zarafshon mintaqasi uchun mavjud rekreatsion turistik resurslari va sharoitlarini o'rganishi asosida dam olish nuqtalari, sayyohlarga sayohat qilishlari uchun zarur bo'lgan ob'ektlar aniqlandi. Turizm infrastrukturasi rivojlanishidagi iqtisodiy ijtimoiy muammolarni hal qilish ilmiy asoslandi. Turistik rekreatsion salohiyati baholandi. Zarafshon mintaqasida turizm bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni rejalashtirish, turistik ob'ektlarni ilmiy asoslangan holda joylashtirish, turizm indisturiyasini rivojlantirish ishlarini ilmiy yondashgan holda amalga oshirishga imkon beradi.

**Dissertatsiya ishining tarkibi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

# **I.BOB. ZARAFSHON MINTAQASINI GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA TABIIY RESURSLARNI TURIZMNI RIOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**


## **1.1. Zarafshon mintaqasining geografik o'rni**

Ushbu rayon o'z tarkibiga Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarini birlashtiradi. Maydoni bo'yicha u O'zbekistonda faqat Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidan keyinda turadi. Rayonning maydoni 168,1 ming km<sup>2</sup> bo'lib, respublika hududining 37,4 foizini tashkil qiladi. Aholisi 2014 yil 1 yanvar holatida 6070,0 ming kishi yoki mamlakatimiz jami aholisiga nisbatan 19,9 %. Iqtisodiy rayonning tarixiy-geografik asosi yoki negizi, rayon hosil qiluvchi omili Zarafshon daryosi hisoblanadi. To'g'ri, bu gidrografik shaxobcha hozirda Buxoro viloyatiga yetib bormaydi, biroq qadimiy Buxoroning madaniyati va tarixi aynan uning ta'sirida shakllangan. Qolaversa, hozirgi Buxoro-Qorako'l vohalari ham Zarafshon daryosining qadimiy oqimi asosida vujudga kelgan.

Respublikamizning hududiy mehnat taqsimotda Zarafshon iqtisodiy rayoni rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va neft kimyosi, yengil va oziq ovqat sanoatiga, paxta, jun, qorako'l terisi yetishtirishga ixtisoslashgan. SHuningdek, uni xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan turistik ob'ekt sifatida ham ko'rish mumkin. 2014 yil yakunlariga ko'ra, rayon ulushiga respublikada yaratilgan yalpi ichki mahsulotning 17,1, sanoat ishlab chiqarishining 19,9, qishloq xo'jaligi mahsulotining 20,1, investitsiya hajmining 30,7 foizi to'g'ri keladi. Biroq uning eksport-import faoliyati uncha katta emas: 5,9 va 14,5 %. Rayonning kuchli tomonlari uning foydali qazilmalari va mehnat resurslari, nisbatan qulay transport geografik o'rni, zaif jihatlari esa suv zaxiralarining yetishmasligi, "cho'llik" xususiyatidir. Xo'jaligi ham mukammal hududiy ishlab chiqarish majmuasi ko'rinishida shakllanmagan.

Zarafshon iqtisodiy rayoni transchegaraviy xususiyatga ega bo'lgan Zarafshon daryosining o'rta va quyi qismini o'z ichiga oladi. Tabiiy geografik jihatdan uning aksariyat qismi Qizilqum cho'llaridan iborat. Tog'li hududlar qisman Samarqand viloyatida, voha va vodiylar esa tarqoq holda joylashgan.

SHunga muvofiq holda rayon xo'jaligining hududiy tarkibi ham shakllangan. Uning ichida maydoni bo'yicha Navoiy, demografik salohiyatiga ko'ra esa Samarqand viloyati ajralib turadi. Buxoro viloyati bu borada o'rtacha mavqega ega.



### O'zbekiston turizm kartasi

**Buxoro viloyati.** Respublikamizning maydoni katta bo'lgan hududlaridan biri Buxoro viloyati bo'lib, u 15 yanvar 1938 yilda tashkil topgan. Maydoni 40,3 ming kv. km, O'zbekiston hududining 9,0 foiziga teng va bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Navoiy viloyatidan so'ng 3-o'rinda turadi. Odatda, maydoni katta viloyatlar tabiiy sharoiti xo'jalik nuqtai nazaridan noqulay tog' yoki cho'llardan iborat bo'ladi. Buxoro viloyati ham aynan tipik cho'l mintaqasidir. Aholisi 1756,5 ming kishi yoki respublika aholisining 5,8 foizi shu

hududda yashaydi (2014 y.). Ma'muriy jihatdan u viloyatga bo'ysunuvchi 2 ta shahar, 11 ta qishloq tumanlarini o'z tarkibiga oladi. Shahar posyolkalari 69 ta, QFY 121 ta, qishloq aholi punktlari 1469 ta. Viloyatning eng katta tumani Peshku 8,72 ming km<sup>2</sup>, eng kichigi Vobkentda 0,29 ming km<sup>2</sup> maydon bor, ular orasidagi tafovut 30 barobar. Bu ancha katta raqam hisoblanadi. Qorako'l tumanining ham hududi katta, u Peshku bilan birgalikda mintaqa maydonining 43,5 foizini tashkil qiladi. Bunday geografik vaziyat ko'proq cho'llarga xos bo'ladi. Buxoro viloyati respublikamiz mehnat taqsimotida yoqilg'i, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligida paxta, jun, qorako'l terisi yetishtirishga ixtisoslashgan. Uning turistik imkoniyatlari va salohiyati ham katta.

Buxoro viloyati O'zbekiston Respublikasining g'arbiy qismida joylashgan, uning qo'shni Turkmaniston davlati bilan chegarasi qisman Amudaryo bo'ylab o'tadi. Viloyat shimolda, qisqa masofada Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan, shimol va shimoli sharqda keng miqyosda Navoiy va janubda Qashqadaryo viloyatlari bilan chegaradosh. Yer usti tuzilishining taxminan yarmidan ko'prog'i tekislik - Qizilqum cho'llaridan iborat. Balandlik va tog'liklar asosan viloyatning shimoli sharqi va sharqida joylashgan. Eng baland nuqtasi dengiz sathidan 800 metrga yaqin bo'lib, u Quljuq tog'ining viloyat hududidagi qismiga to'g'ri keladi (Shofirkon va Peshku tumanlarining chekkasida). Viloyatning yer maydoni katta, biroq suv resurslarining yetishmasligi sababli ushbu omilning mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishidagi roli biroz cheklangan.

Yaqin o'tmishda bu yerda sobiq Ittifoqda dong'i ketgan Gazli tabiiy gaz koni mavjud edi. Hozirgi vaqtda ham Buxoro viloyatida mazkur yoqilg'i turining zahiralarini bor (Jarqoq, Uchqir, Qandim, Quvachi, Xauzak, Dengizko'l va boshqa konlar). Gazli, O'rtabuloq va Jarqoq konlaridan qisman neft qazib olinadi. Yoqilg'i resurslaridan tashqari viloyat hududida qurilish materiallari xom ashyosi mo'l. Jumladan, Kogon va Qorovulbozor atrofida ohaktosh va gips, Tasqozg'onda grafit, Tozbuloqda marmar, Jonkeldida granit va mineral bo'yoq konlari mavjud. Shuningdek, janubda g'isht va kulolchilik uchun tegishli xomashyo (Buxoro, Vobkent va b.), G'ijduvon tumanining chekka shimolisharqida rangdor metallar

koni (Zafarobod) joylashgan, Yangiqo'zg'onda oltin zaxiralari bor. Umuman esa, viloyatda aniqlangan qazilma boyliklar ko'proq yoqilg'i va qurilish sanoatini rivojlantirishda ahamiyatlidir. Buxoro viloyatining iqlimi asosan yaylov chorvachiligiga qulayroq, sug'orma dehqonchilik uchun esa bu yerda sharoit uncha yaxshi emas. Zarafshon daryosi viloyat hududining sharqiy chekkasiga yetib keladi, xolos, sug'orish uchun esa suv ko'proq Amudaryodan olinadi. Aynan shu maqsadda Amu Qorako'l, Amu Buxoro, Yomonjar kanallari qurilgan. Qo'shni Navoiy viloyatida joylashgan Quyimozor suv omborlaridan shu nomli kanal boshlanadi va u Buxoro, Kogon, Jondor tumanlarining bir qismini sug'oradi. Bulardan tashqari, Zarafshon, Xayrobod, Shofirkon kabi kanallar, Sho'rkul suv ombori ham mavjud.

Viloyatda juda ko'p kollektorlar (zovurlar) hamda oqova ko'llar (qora ko'llar) joylashgan. Ularga misol qilib Shimoliy, Og'itma, Parsonko'l zovurlari, Dengizko'l, Sho'rko'l, Oyoqog'itma, Sho'rxok, Qoraqir ko'llarini keltirish mumkin. 1993 yilda qurilgan Damxo'ja - Buxoro suv quvuri viloyat markazini ichimlik suvi bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq shunga qaramasdan, bu yerda suv muammosi keskin. Yuzaga kelgan holat nafaqat qishloq xo'jaligiga, balki aholining salomatligiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, yuqorida ta'kidlanganidek, Buxoro viloyati tipik cho'l mintaqasidir. Katta qumliklardan biri - Qizilqum bu hududni ham qamrab olgan. Viloyatning transport va iqtisodiy geografik o'rning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning hududi, aniqrog'i Olot tumani mamlakatimizning xorijiy davlatlarga chiqadigan darvozalaridan biri sanaladi. Turkmanobodga o'tgan temir yo'l orqali O'zbekiston Turkmaniston, Kavkazorti mamlakatlari hamda Eron va boshqa janubiy, janubiy-g'arbiy Osiyo (Yaqin Sharq) davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib boradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Navoiy-Uchquduq-Nukus temir yo'lining ishga tushirilishi Buxoro viloyati transport geografik o'rini biroz o'zgartirdi, Kogon, Qorako'l va Olot bekatlarining bunday funksiyalari susaydi.

**Navoiy viloyati.** Maydoni 111,0 ming kv. km yoki respublika hududining 25 foiz qismiga teng. Aholi soni esa 940 ming kishi (mamlakat aholisining 3,0 foizi). Qizig'i shundaki, bu geografik ko'rsatkichlar O'zbekiston miqyosida katta qutbiylik xarakteriga ega: maydoni bo'yicha ham, demografik salohiyati bo'yicha ham u ikkinchi, biroq hududiga ko'ra viloyat Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi ikkinchi, aholi soni jihatidan esa faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda, ya'ni oxiridan ikkinchi. Navoiy viloyatining ichki ma'muriy tuzilishi ham uncha murakkab emas; bu yerda atigi 8 ta qishloq tumanlari mavjud, xolos. Eng kichik tuman-Karmana va eng katta tuman-Uchquduq o'rtasidagi tafovut 49,1 martaga barobar. Navoiy viloyati respublikamiz hududiy mehnat taqsimotida asosan tog'kon sanoati, xususan rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati hamda qishloq xo'jaligida go'sht-jun chorvachiligiga ixtisoslashgan. Uning hissasiga respublika yalpi ichki mahsulotining 5,4, sanoat ishlab chiqarishining 10,6, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 4,7, chakana savdo aylanmasining 4,0, pullik xizmatlarning 3,0 foizi to'g'ri keladi. Eksport va importda viloyat ulushi 2,9 va 4,5 foiz. Sanoat mahsulotining qiymati bo'yicha Navoiy viloyati respublikamizda oldingi o'rinlarda turadi.

Viloyat mamlakatimizning markaziy va shimoliy qismida joylashgan. U katta masofada Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh. Shuningdek, viloyat hududi g'arbda Buxoro, janub va janubisharqda Samarqand va qisman Jizzax viloyatlari bilan, shimolda va shimolig'arbda Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan, janubda juda qisqa masofada Qashqadaryo viloyati bilan tutash. Navoiy viloyati o'zining orografik xususiyatlari bo'yicha respublikaning boshqa mintaqalaridan keskin farq qiladi. Uning hududida kichik-kichik qoldiq tog'liklar mavjud. Viloyat hududi, eng avvalo, o'zining oltin zahiralari bilan ajralib turadi. Bu yerda uran, fosforit, asbest, dala shpati, marmar, qurilish materiallari xom ashyosi va boshqa konlar ham mavjud. Aynan ana shu mineral xom ashyo resurslari viloyat iqtisodiyotini shakllantirish, uning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, oltin Oltintov, Ko'kpatas, Jeltoy, Tomdibuloq, Belpontov, Muruntov, Amantoytov, Adjibugur,

Aristontol va boshqalarda, fosforit Jeroy-Sardoba konida, marmar G'ozg'on, Oqtov, Ko'kpatasda, oxaktosh Tomdibuloqda, polimetal rudalar Oqetpes, Ko'kmanachi, Visokovoltnoye, Qorabugutda, mis Qoramurunda, turli xil qurilish materiallari xom ashyosi Oytim, Bepasan, Azkamar, Jeroy kabi konlarda bor.

Iqlimi nihoyatda quruq va kontinental, yog'insochin miqdori juda oz (o'rtacha 100-200 mm). Bu esa viloyatda qishloq xo'jaligini, xususan uning dehqonchilik tarmog'ini rivojlantirishga qulay sharoit yaratmaydi. Shu bois, Navoiy viloyati asosan yaylov chorvachiligi, qorako'lchilikka ixtisoslashgan. Viloyatda gidrografik shaxobchalar rivojlanmagan; Navoiy shahri yaqinida Zarafshon daryosining suvi juda ozayib qoladi. Janubiy rayonlarda sug'orma dehqonchilikni yuritish maqsadida Quyimozor, Sho'rko'l, To'dako'l suv omborlari qurilgan. Shuningdek, bu yerda Amu Buxoro, O'rtacho'l, Konimex kanallari ham bor. Nisbatan katta maydonni egallagan Haydarko'lning esa (uning boshlanish qismi qo'shni Jizzax viloyatida) qishloq xo'jaligida ahamiyati deyarli yo'q.

**Samarqand viloyati.** Samarqand viloyati respublikamizda eng birinchilar qatorida tashkil etilgan. U 15 yanvar 1938 yilda ushbu ma'muriy maqomni olgan. Maydoni 16,8 ming kv.km yoki O'zbekiston hududining 3,7 foiziga teng. Uncha katta bo'lmagan mintaqada, 2014 yilning ma'lumotlariga qaraganda, 3412,8 ming aholi yashagan. Bu mamlakat aholisining 11,2 foizi demakdir. Hududining ko'lami bo'yicha respublikamizda 7-o'rinda, aholisiga ko'ra esa birinchi o'rinda turadi. Bundan to'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish mumkinki, viloyat aholisining zichligi o'rtacha mamlakat ko'rsatkichiga qaraganda deyarli 3 marta yuqori.

Viloyatning demografik salohiyati ancha katta bo'lsada, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha u uncha ajralib turmaydi. Samarqand viloyati respublika yalpi ichki mahsulotining 6,2 foiz, sanoat ishlab chiqarishining 5,4 foiz., xalq iste'mol mollarining 10,0 foiz., kapital qo'yilmalarning 6,1 foiz., qurilishning 4,8 foiz, chakana savdo hajmining 8,3 foiz, va pullik xizmatning 9,5 foizini ta'minlaydi. Samarqand viloyati ma'muriy jihatdan 14 ta qishloq tumanlari, 11 shahar va 88 ta shaharchalardan iborat. Bu yerda 125 ta qishloq fuqarolar yig'inlari, 1871 ta qishloq aholi punktlari mavjud. Maydoni bo'yicha eng katta



tuman Nurobod - 4,86 ming kv. km yoki viloyat hududining 28,9 foiz,. Viloyatning ikkinchi “qanoti” – Qo’shrabot tumani ham ancha katta - 2,16 ming kv km. Ayni vaqtda Toyloq tumani hududi atigi 0,28 ming kv km.

Samarqand viloyati mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida muhim mavqega ega. Bu yerda mashinasozlik, oziqovqat sanoatlari, paxta, uzum, tamaki yetishtirish, xalqaro turizm ixtisoslashgan tarmoqlar hisoblanadi.

Samarqand viloyati qulay geografik o’rinda, respublikamizning markaziy qismida joylashgan. U g’arb va shimolig’arbda Navoiy, shimolisharqda Jizzax, janubda Qashqadaryo viloyatlari bilan, janubisharqda qisqa masofada Tojikiston Respublikasining So’g’d (Panjakent rayoni) viloyati bilan chegaradosh. Viloyat tabiiy resurslarga birmuncha boy. Jumladan, Qo’shrabot tumanida oltin (Zarmiton), Nurobod tumanida volfram va molibden (Ingichka), Urgut tumanida marmar, Samarqand tumanida ohak (Ohakli) va boshqalar bor. Yuqoridagilardan tashqari, mintaqa hududida oltin Oqbel, Oltinqozg’on, bazalt Zarband, granit Gurmak, Qo’shrabot, kaolin va alunit Oqtosh, volfram rudalari Yaxton, Urgut, turli xil qurilish materiallari Jom, Bulung’ur, Ishtixonda topilgan. Biroq, bu tabiiy-resurs salohiyatdan hozircha to’laligicha foydalanilmayapti.


Iqlimi kontinental, namgarchilik qo’shni Navoiy viloyatiga qaraganda biroz ko’proq (300-400 mm). Eng ko’p yog’in Omonqo’ton atrofida - 1000 mm. Asosiy daryo, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining «o’qi» Zarafshon bo’lib, u Samarqanddan sal o’tgandan so’ng ikkiga, ya’ni Oqdaryo va Qoradaryoga bo’linadi, viloyat chegarasida esa (Xatirchi tumanida) ular yana qo’shiladi. Zarafshonning doimiy, aydarlicha suv zahiralari ega bo’lgan irmoqlari ancha oz. Samarqanddan yuqoriroqda, Tojikiston Respublikasining Panjakent tumaniga qo’shni joyda, Zarafshonning tog’ oraliqlaridan vodiya chiqish qismidan kanallar boshlanadi. Ulardan eng muhimi qadimgi Darg’om hisoblanadi, aynan ana shu kanaldan Eski Anhor kanali suv oladi va u Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanini ham sug’oradi. Kattaqo’rg’on, Oqdaryo, Tusunsoy suv omborlari, Narpay, Bulung’ur kanallari, Beshariq arig’i ham dehqonchilik rivoj topgan hududlarni suv bilan ta’minlaydi. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, viloyat

iqtisodiyotining shakllanishida mineral resurslarga ko'ra agroiklimiy sharoitlarning roli katta. Bundan tashqari, bu yerda turizm va rekreatsiya resurslari mavjud bo'lib, ularning ahamiyati ham sezilarli darajada yuqori. Rekreatsiya resurslari, xususan tog' etaklarida, soy bo'ylarida juda ko'p va ulardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ekoturizm nuqtai nazaridan g'orlar, Urgut chinor va buloqlari diqqatga sazovor joylardir.

## **1.2. Mintaqa iqtisodiyotining turizimni riojlantirishdagi o'rni**

**Buxoro viloyati** iqtisodiyoti agrar - industrial yo'nalishga ega. Mustaqillik yillarida mintaqa sanoati, xususan yoqilg'i, qurilish materiallari ishlab chiqarish ancha tez rivojlandi, qulay investitsiya muhiti yaratildi. Hozirgi kunda viloyat umumiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha respublika o'rtacha darajasidan yuqoriroq pog'onada turadi. 2013 yil yakunlariga ko'ra, Buxoro viloyati O'zbekiston Respublikasining 5,8 foiz yalpi ichki mahsulotini, 4,1 foiz, sanoat, 9,9 foiz, qishloq xo'jalik mahsulotini ta'minlaydi. Uning zimmasiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kapital qo'yilmalarning 13,5 foizi, qurilish ishlarining 7,0 foiz,, chakana savdo hajmining 6,3 foiz, va pullik xizmatlarning 5,5 foizi to'g'ri keladi. Viloyat so'nggi yillarda respublikamizga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyaning 35-40 foizini o'ziga jalb qilgan. Mintaqa iqtisodiyotining tarkibiga nazar solsak, quyidagilarni ko'rish mumkin: sanoat viloyat yalpi hududiy mahsulotining 18,0 foizini, qurilish 8,5 foiz,, qishloq xo'jaligi 29,6 foiz,, transport va aloqa 5,5 foiz,, savdo va umumiy ovqatlanish 6,1 foiz,, soliqlar 11,4 foizini beradi.

Aholi soni 1989 yilga nisbatan (1136 ming) 1,5 martaga yoki 620 ming kishiga ko'paygan. Tug'ilish bu yerda har ming aholiga 20,9 kishi, o'lim ko'rsatkichi 4,4 kishiga to'g'ri keladi. Tug'ilish koeffitsiyenti faqat Buxoro shahrida pastroq, qishloq tumanlari doirasida esa u katta farq qilmaydi (20-24 promille). Demografik sig'imi bo'yicha G'ijduvon tumani oldinda (280 ming kishi), bu yerda viloyat aholisining deyarli 16 foizi istiqomat qiladi. G'ijduvon



**Buxoro viloyati turizm kartasi**

Samarqand viloyatining Urgut, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz va vodiyning ko'pchilik tumanlari qatorida demografik salohiyati katta sanalgan hududlarga kiradi. Vobkent va Buxoro tumanlari aholisi ham ko'proq, Qorovulbozorda esa bor-yo'g'i 16,3 ming kishi bor va bu xususta mazkur tuman respublikamizda faqat

Tomdi tumanidan oldinda turadi. Aholi viloyat hududida nihoyatda notekis taqsimlangan. O'rtacha zichlik 1 kv<sup>2</sup> ga 44 kishiga teng holda, u Buxoro – Qorako'l vohasida ancha yuqori darajaga ega. Viloyatning cho'l qismida aholi zichligi juda past. Qishloq tumanlari doirasida ushbu ko'rsatkich Qorovulbozorda 10 kishiga ham yetmaydi, Vobkentda esa u 433 kishi, farq 59 karra. Hozirgi kunda mintaqada 1 ta yirik shahar - Buxoroi Sha'rif bor, uning aholisi 272 ming atrofida (bu borada Toshkent, Samarqand, Namangan va Andijondan keyingi 5-o'rinda). Viloyatning aholi soni bo'yicha ikkinchi shahri, Buxoro aglomeratsiyasiga kiruvchi Kogonda (Yangi Buxoroda) 59 ming, haqiqiy "ikkinchi" shahri G'ijduvonda 43 ming kishi yashaydi. Qolgan shahar joylar orasida faqat Qorako'lda 20 mingdan ziyod aholi bor, xolos.

Viloyat aholisining milliy tarkibi ham har xil. Bu uning tarixiy-geografik rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan. Mintaqada o'zbeklar 91,3 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, bu yerda turkman, qozoq va boshqa millat vakillari ham bor. Tojiklar (3,3 foiz,) Buxoro va boshqa ba'zi shaharlarda, qozoqlar (1,1 foiz,) asosan G'ijduvon tumanining cho'l qismida, turkmanlar (0,6 foiz,) Olot va Qorako'l tumanlarida yashaydilar. Rus millatining ulushi 1,6 foizga teng.

Mamlakatimiz neft va neft-kimyosanoatining rivojlanishida Buxoro (Qorovulbozor) neftni qayta ishlash zavodining birinchi navbatini qurish katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu zamonaviy korxonasi asosan Fransiya bilan hamkorlikda barpo etildi va buning uchun 500 mln. AQSH dollariga yaqin mablag' sarflandi. Zavod qo'shni Qashqadaryo neft-gaz konlari asosida ishlamoqda. Yaqin yillarda Qandim koni negizida 11 mlrd. m<sup>3</sup> gazni qayta ishlovchi zavod ham ishga tushadi va buning natijasida Buxoroda neft-gaz energiya ishlab chiqarish sikli yana mukammallashadi, viloyat hududida o'sish qutb va markazlari shakllanadi.

Viloyatda sanoat korxonalarini soni jami 10 mingdan ziyod, biroq ularning yiriklari 25 ta. Buxoro sanoati asosan yonilg'i (benzin, kerosin, dizel yonilg'isi), mebel, ohak, gips, gipskarton, paxta tolasi, ip gazlama va boshqalarni ishlab chiqaradi. Bir yilda 80-90 ming t neft va gaz kondensati, 2,6 mlrd. m<sup>3</sup> tabiiy gaz, 730 ming t benzin, 465 ming t atrofida dizel yoqilg'isi, 160-165 ming t. mazut, 90

ming tonnadan ziyod kerosin, 6-7 ming t suyultirilgan gaz ishlab chiqariladi. Shu bilan birga, bir yilda o'rtacha 110-120 ming t paxta tolasi, 200 t atrofida ipak tolasi, 4,5-5,5 mln. kv. km gilam va gilam mahsulotlari, 20-25 ming t o'simlik yog'i, 105 ming t un, 45 ming t omuxta yem ham olinadi. Bu raqamlar har yili ob-havo sharoiti va boshqa sabablarga ko'ra o'zgarib turadi.

Korxonalar miqyosida yoqilg'ini asosan Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi va qisman "Gazlineftgaz qazib chiqarish" shirkat korxonasi; mashinasozlik va metallni qayta ishlashda "Trubodetal", Buxoro ta'mirlash zavodi, "NEM" ta'mir mexanika zavodi, yengil sanoatda "Daewoo Tekstil Buhhara", "O'zkarpet", "Qorako'lteks" qo'shma korxonalari; oziq-ovqat sanoati korxonalari orasida eng kattasi Kogon yog' - ekstraksiya zavodi, shuningdek, Buxoro yog' - ekstraksiya zavodi, "Vobkent yog'", "Shoxrud", "Evrosnar" qo'shma korxonalari ham yetakchilik qiladi. Un va un mahsulotlarini Buxoro don mahsulotlari, Qorako'l va Kogon un-don kombinatlari beradi. Qishloq tumanlari markazlarida paxta tozalash zavodlari joylashgan, ularning eng kattalari G'ijduvon va Vobkent shaharlarida qurilgan. Ip gazlama korxonalari Olot, Shofirkon, Qorako'lda, o'simlik yog'i Kogonda, yonilg'i turlari Qorovulbozorda, paxta tolasi Vobkent, Shofirkon, G'ijduvon, Qorako'l, Olotda, konserva zavodi Vobkentda, qurilish materiallari Kogon, Buxoro va Vobkentda, qorako'l terisi zavodlari Buxoro va G'ijduvonda joylashgan. SHu bilan birga, Buxoro, G'ijduvon kabi shaharlarda mahalliy sanoat va milliy hunarmandchilik yaxshi rivojlangan (zardo'zlik, zargarlik, misgarlik va b.). Umuman olganda, viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibida yoqilg'i-energetika sanoati peshqadamlik qiladi – 41,3 foiz,. yengil sanoatning ulushi 25,9 foiz,. oziq-ovqatniki 14,6 foiz,.Sanoat ishlab chiqarishining hududiy tarkibi bir xil emas; bu borada Buxoro va Kogon shaharlaridan tashqari Qorovulbozor tumani keskin ajralib turadi. 2000 yil yakunlari bo'yicha, Buxoro shahri viloyat sanoat mahsulotining 34,8 foizini, Qorovulbozor tumani 34,5 va Kogon shahri 5,3 foizini yetishtirib bergan.

Buxoro viloyati respublikamizning muhim qishloq xo'jaligi rayonlaridan biridir. Bu yerda ayniqsa paxta yetishtirish, qorako'lchilik yaxshi rivojlangan. Dehqonchilik jami qishloq xo'jalik mahsulotining 55,1 foizini, fermer xo'jaliklari

esa ushbu mahsulot hajmining 28,9 foizini ta'minlaydi (2013 y.). Viloyatning cho'llik xususiyati bu yerda "foydali yer" koeffitsiyentining pastligiga sabab bo'lgan. Masalan, jami 4197,3 ming gektar yerdan 2807,4 ming gektari yoki 66,9 foizi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarga to'g'ri keladi. Ularning katta qismi esa ekstensiv chorvachilikka xizmat qiluvchi pichanzor va yaylovlardan iborat. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar ulushi Peshku, Vobkent, Romiton, G'ijduvon va Qorako'l kabi tumanlarda ancha yuqori. Intensiv qishloq xo'jaligi, xususan dehqonchilikni rivojlantirishda sug'oriladigan yerlarning ahamiyati katta. Bunday yerlar viloyatda 227 ming ga yoki jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 8,1 foizini tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, bu raqam nihoyatda past bo'lib, yuqorida qayd etilgan Buxoro viloyatining eng muhim cho'llik xususiyatini isbotlab beradi. Sug'oriladigan yerlar vohalarda, ya'ni Buxoro-Qorako'l vohasida joylashgan. Binobarin, ularning hissasi Vobkent, Kogon, Buxoro tumanlarida kattaroq. Eng kam sug'oriladigan yerlar tumanlarning qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlariga nisbatan hisoblaganda Peshku, Jondor, G'ijduvon, Qorako'l va boshqa cho'l tumanlarida qayd etiladi.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning atigi 7,1 foiziga ekin ekiladi. Ayni vaqtda bu ko'rsatkich Kogon, Vobkent tumanlarida 64-74 foizga yetadi. Peshkuda esa u bor-yo'g'i 2,0 foiz,, Qorako'lda 4,8 foiz,, G'ijduvonda 5,3 foiz, va h.k. Cho'lda, albatta, yaylov va pichanzorlar ko'p bo'ladi. Shu bois, ularning hissasi 91,9 foizga barobardir. Ayniqsa, bu ko'rsatkich Peshku tumanida yuqori - 97,8 foiz,, Vobkent va Kogonda esa u ancha past.

2000 yilda viloyatning jami ekin maydoni 240 ming ga atrofida bo'lgan. Uning 81 ming gektariga g'alla, 120 ming ga paxta, 16 ming ga yem-hashak, 7 ming gektariga sabzavot ekilgan. Bir yilda o'rtacha 330-350 ming t g'alla, 350-400 ming t paxta, 150 ming tonna turli xil sabzavotlar olingan.

Har qanday hududning to'liq, atroflicha (kompleks) rivojlanishi ijtimoiy sohalarga ham bog'liq, chunki shu sohalar kishilarning hayot kechirishi, ta'lim, sog'lig'ini yaxshilash, dam olishi va bo'sh vaqtdan samarali foydalanishga qaratilgan. Buxoro viloyatida nomoddiy ishlab chiqarishda jami band aholining

31,7 foizi xizmat qiladi. Aholi, mehnat resurslari, ulardan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish, turli xil xizmatlarni amalga oshirish kabilar ijtimoiy rivojlanish doirasiga kiradi.

Aholining salomatligi, uy-joy sharoiti ko'p jihatdan tabiiy gaz, toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Ayniqsa, cho'l sharoitida suv masalasi nihoyatda muhimdir. Viloyatda markazlashgan suv tarmog'i bilan 85, foiz, aholi ta'minlangan. Bu ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 100 foiz bo'lgani holda, u Qorako'l, Jondor, Olot, G'ijduvon tumanlarida ancha past. Tabiiy gaz bilan ta'minlanish o'rtacha 98,8 foiz, va bu ko'rsatkich, umuman olganda, yomon emas; Buxoro shahri va tumani, Qorovulbozor va G'ijduvonda u 100 foiz,.

Aholiga jami 77 ta tibbiyot muassasalari xizmat ko'rsatadi, bemor o'rinlari har 10 ming kishiga 43 ta, shu jumladan, Vobkentda u 73, Qorovulbozor tumanida 56 tani tashkil qiladi. Qolgan hududlarda kasalxona o'rinlari bilan ta'minlanishi biroz past. Albatta, dunyoga tibbiyot ilmining mashhur namoyondasi – Abu Ali ibn Sinoni bergan (Avitsena) bu hudud uchun bunday vaziyatni ijobiy baholab bo'lmaydi. Viloyatda har 10 ming kishiga 29,4 ta vrach, 121,1 nafar o'rta meditsina xodimlari xizmat ko'rsatishadi.

Mehnat resurslaridan foydalanish, malakali ishchi kadrlarni tayyorlashda kasb-hunar kollejlarining o'rni katta. Buxoro viloyatida ularning soni 80 ta, talabalar 83,8 ming kishi. Akademik litseylar 8 ta, talabalar soni 5793 kishi (2012/2013 o'quv yili). Yuqori malakali kadrlarni viloyatdagi mavjud 3 ta, jumladan, Buxoro davlat universiteti tayyorlab beradi.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizmning ahamiyati katta. Buxoro shahri va viloyatning boshqa turistik markazlari respublikamizda Samarqand, Xiva, Toshkent kabi mahalliy va xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Ayniqsa, Buxoro shahrida Ark, Labi Hovuz, Minorai Kalon, Somoniylar maqbarasi, viloyat markazi yaqinida joylashgan Bahoviddin Naqshbandiy, Sitoroi-Mohi Xossa, G'ijduvon shahridagi Abduxoliq G'ijduvoniy maqbarasi, shuningdek, Vobkent, Romiton va boshqa tumanlardagi qadamjo va ziyoratgohlar turizm rivojlanishining asosiy ob'ektlari sanaladi. Qolaversa, cho'l landshafti ham o'ziga xos turistik

ahamiyatga ega. Kengroq geografik nuqtai nazardan qaralganda, umuman Zarafshon vodiysi o'zining tarixi, shahar va boshqa qadamjolari bilan umumiy, yagona xalqaro turistik rayonni hosil qiladi. Qizig'i shundaki, bu rayonning ikki asosiy markazi Buxoro va Samarqandni respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan qayta tiklangan Imom Buxoriy majmuasi bog'lab turadi.

Viloyatda 65 ta turistlarni joylashtiruvchi tarmoqlar, shu jumladan 50 dan ziyod mehmonxonalar mavjud, ularda o'rinlar soni 2200 dan ko'proq. Bu sohada xususiy sektor ham shakllanib bormoqda. Bir yilda jami 130-150 ming sayyohlarga xizmat ko'rsatiladi, ularning deyarli aksariyati xorijiy turistlar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, viloyatning turistik imkoniyatlaridan hozircha to'liq foydalanilmayapti. Buning uchun bu yerda zamonaviy turistik industriya va infratuzilmani rivojlantirish, qishloq joylar turizm imkoniyatlarini ham ishga solish, targ'ib va tashfiq qilish kerak. Buxoro qadimdan o'zining parvarda va boshqa shirinliklari, milliy taomlari, sport turlari, san'atkor va hazilchilari bilan mashhur. Bu esa, o'z navbatida, turizmni rivojlantirishga ham yordam beradi.


Odatda, katta hududlarga ega bo'lgan mintaqalarda, xususan ularning ichki qismlarida transport infratuzilmasini rivojlantirish muammolari dolzarb bo'ladi. Bundan Buxoro viloyati ham mustasno emas. Viloyatning asosiy transport yo'llari uning voha qismidan o'tgan. Bu yerda Buxoro–Turkmanobod (avvalgi Chorjo'y), Buxoro–Qarshi temir yo'llari o'tgan, Buxoro shahri va respublika poytaxti–Toshkent shahri o'rtasida tezyurar elektropoyezd qatnovi yo'lga qo'yilgan. Hozirgi kunda u muhim transport tuguni vazifasini o'taydi. Eksport tarkibida paxta tolasi 58,7 foizni tashkil qiladi. So'nggi yillarda xizmatlar, energiya resurslari, qurilish materiallarining hissalarini ham oshib bormoqda. Importda asosiy o'rinlarni energiya resurslari (84,7 %) hamda mashina va uskunalari yetakchilik qiladi.

**Navoiy viloyati.** Viloyat iqtisodiyoti industrial - agrar yo'nalishga ega. Yalpi hududiy mahsulotning 44,5 foizini sanoat, 6,3 foizini qurilish, 15,0 foizini qishloq xo'jaligi, 12,7 foizini transport va aloqa beradi (2012 y.).

Navoiy viloyatida 2013 yil holatida ro'yxatga olingan kichik biznes sub'ektlari soni 13,7 mingta. Ularning sanoatdagi ulushi atigi 6,3 % (respublikada



eng kam), qurilishda – 66,6 %, chakana savdoda – 48,8 %, pullik xizmatlarda - 58,0 %. Yuqorida ta’kidlanganidek, mintaqa iqtisodiyotida sanoat yetakchi o’rinni egallaydi. Kimyo sanoatining yalpi sanoat mahsuloti qiymatidagi ulushi 8,5 %, qurilish materiallari sanoati 10,0 %, yengil sanoat 33,0 %, rangli metallurgiya 66,6 % ni tashkil qiladi. Bir yilda Navoiy viloyatida 850-900 ming tonna ammiak selitrasi, 470-480 ming t sintetik ammiak, 30-35 ming t ishqorli kislota, 10-13 ming t nitron tolasi, 20-25 ming t natriy sianisti, 10-12 ming t suyultirilgan xlor ishlab chiqariladi. Shuningdek, bu yerda boshqa kimyo mahsulotlari, masalan, o’simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari, sirka, gipoxlorid natriy kabilar olinadi. Asosiy korxonalar “Navoiyazot”, “Elektroximsanoat” hisoblanadi, ular mamlakatimiz eksportida ham faol qatnashishadi. Ayniqsa, respublikamiz milliy iqtisodiyoti uchun nihoyatda zarur bo’lgan superfosfat zavodi xom ashyosi - fosforitlar ham Navoiy viloyati hududida ishlab chiqariladi. Ma’lumki, avvallari mazkur xom ashyo qo’shni Qozog’iston Respublikasining Jambul viloyatidan (Qoratov konlaridan) keltirilardi, asosiy korxonalar esa Samarqand va Qo’qonda joylashgan. Navoiy viloyatining kimyo sanoati respublikamizda oldingi mavqelarni egallaydi. Bu hususda qurilish materiallari sanoatining ham ahamiyati katta – eng yirik sement zavodi aynan shu yerda, ya’ni Navoiy shahrida joylashgan. Bir yilda 3225 ming t atrofida sement olinadi (respublikamizda 6900-7000 ming t, demak, uning yarmiga yaqini aynan shu viloyatda ishlab chiqariladi). sementdan tashqari temir-beton mahsulotlari, marmar plitalari, ohak, shag’al tosh kabi qurilish materiallari olinadi. Navoiy qurilish tashkilotlari respublikamizda katta binokorlik ishlarini bajaradi. Xalq iste’mol mollaridan 55-60 ming t un, 45-50 ming t omuxta yem, 9-10 ming t o’simlik yog’i ishlab chiqariladi.



### Navoiy viloyati turizm kartasi

Asosiy sanoat markaz va punktlari Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Qiziltepa hamda "resurs" shaharchalar: G'ozg'on, Muruntov, Shalkar, Langar kabilar. Yangirabot va Malikrabodda paxta tozalash zavodlari bor. Navoiy shahri borgan sari yirik sanoat tuguni va respublikamizning o'sish qutbiga aylanmoqda.

Albatta, shu o'rinda geoekologik muammolarni ham e'tibordan qoldirmaslik kerak. Ekologik muammolar, ayniqsa, Navoiy shahri va uning atrofi uchun keskin. Katta shaharda qator ulkan, ekologik jihatdan ancha "xavfli" sanoat korxonalarining (ular kimyo, rangli metallurgiya, qurilish materiallari va elektr-energetikaga tegishli) hududiy-urbanistik mujassamlashuvi, albatta, atrof-muhitga, atmosfera havosi va suvga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan ham sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiyalash, chiqindilarni utilizatsiya qilish, ya'ni qayta ishlash bunday katta sanoat markazi istiqbol rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i darkor.

Qishloq xo'jaligi viloyat yalpi hududiy mahsulotining atigi 15,0 foizini, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 4,7 foizini beradi. Agroiqtisodiyot tizimida chorvachilik, asosan uning jun - go'sht yo'nalishi yetakchilik qiladi. Uning hissasiga jami qishloq xo'jalik mahsulotlarining 54,1 foizi to'g'ri keladi. Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlarining 1/4 qismidan ziyodrog'ini ta'minlaydi. Viloyatda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 8891,9 ming gektarni yoki umumiy hududning 81,2 % ni tashkil qiladi. Jami ekin maydonlari 105,9 ming ga yoki qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning atigi 1,3 foiziga teng. Intensiv qishloq xo'jaligi nisbatan janubiy rayonlarda rivojlangan. Jumladan, Xatirchi tumanida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 27,6 foizi ekin maydonlari bilan band. Ushbu ko'rsatkich Karmanada 25,7 %, Qiziltepada 14,6 %, Navbahor tumanida 14,3 %. Aksincha, yaylov va pichanzorlar markaziy va shimoliy hududlarda ko'p. Bu yerlarda yaylov chorvachiligi, asosan qo'y, jumladan, qorako'l qo'ylari boqish uchun sharoit qulayroq. Tomdi va Uchquduq tumanlarida pichanzor va yaylovlar jami ekin maydonining 100 foizini, Konimexda 99,5 % tashkil qiladi .

Jami ekin maydoni 2010 yilda 100,0 ming gektardan iborat bo'lgan. Uning yarmi donli ekinlar bilan band, shu jumladan boshoqli ekinlar 49,2 ming ga. Bu ekinlar tarkibida asosiy maydonlarni bug'doy egallaydi (48,3 ming ga). Paxtachilik sustroq rivojlangan (asosiy muammo suvning yetishmasligi). Ushbu texnika ekiniga 36,0 ming ga yer ajratilgan va undan 110 ming t paxta xom ashyosi

olinadi; hosildorlik 30,8 s/ga. Paxta yetishtirish ko'proq Xatirchi, Qiziltepa va Navbahor tumanlarida yo'lga qo'yilgan.

Tabiiyki, chorvachilikka ixtisoslashgan mintaqalarda yem-hashak bazasi ham mustahkam bo'lmog'i lozim. Biroq, Navoiy viloyatida asosan yaylov chorvachiligi rivojlangan, yem-hashak ekinlari esa 7,5-8,0 ming gektarga ekiladi. Mevachilik ham sustroq rivojlangan - asosan janubda. 2012 yilda 5,8 ming ga yer bog'dorchilik bilan band, 6,5 ming ga uzumchilikka ajratilgan bo'lgan. Bog'dorchilik va xususan uzumchilik Xatirchi tumanida yaxshiroq yo'lga qo'yilgan. Bu tumanda ko'p miqdorda sifatli kishmish tayyorlanadi.

Bir yilda qishloq xo'jaligida 100-110 ming t go'sht (tirik vaznda), 315 ming t sut, 186 mln dona tuxum, 3063 tonna jun, 323 ming birlik qorako'l terisi, 960 tonna pilla olingan. Jun va qorako'l terisini yetishtirishda Navoiy viloyati respublikada oldingi o'rinlarda turadi; respublikada yetishtirilgan junning 11,4 foizi va qorako'l terisining 28,3 foizi aynan shu viloyat zimmasiga tushadi.

Navoiy viloyatining demografik salohiyati uncha katta emas. Hudud suv zahiralari tanqisligi tufayli aholi zichligining eng past ko'rsatkichlariga ega (1 km<sup>2</sup> ga 8,8 kishi - O'zbekistonda oxirgi o'rinda).

Qishloq tumanlarining katta ekanligi hududning qishloq xo'jaligi va aholi joylashuvi uchun qulay sharoitga ega emasligidan darak beradi. Chindan ham, aholi zichligi bu yerda ancha past; u Uchquduq va Tomdi tumanlarida 1 kishiga ham yetmaydi. Faqat Xatirchi va Karmana tumanlarida aholi zichroq joylashgan (127 va 116 kishi). Bu tumanlarning aholi soni 15 mingdan (Tomdi) 180 ming kishigacha (Xatirchi) farq qiladi. Birgina Xatirchi tumani viloyat aholisining 1/5 qismini, Qiziltepa bilan hisoblaganda 35,2 foizini mujassamlashtiradi.

Milliy tarkibda asosiy millat vakillari o'zbeklar 85,7 foizni tashkil qiladi. SHuningdek, qozoqlar 4,6 %, ruslar 2,5 %, qoraqalpoqlar 2,4 %, tojiklar 1,5 foiz istiqomat qilishadi (2013 y.). So'ngi yillarda rus, xususan qozoq millatining respublikadagi soni tashqi migratsiya oqibatlari tufayli kamayib bormoqda.

Viloyatda 6 shahar va 47 shaharcha mavjud bo'lib, ularning barchasida jami aholining yarmi yashaydi. Ko'rinib turibdiki, umumiy urbanizatsiya ko'rsatkichi

bu yerda ancha yuqori. Mazkur holat, bir tomondan, hududda chindan ham sanoatning nisbatan yaxshi rivojlanganligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, u intensiv qishloq xo'jaligi uchun imkoniyat cheklanganligi bilan bog'liq. Navoiy shahri o'zining demografik salohiyatiga ko'ra aglomeratsiya markazi bo'lishiga loyiq, uning atrofida "yo'ldosh" shaharchalar (Qiziltepa, Karmana, Beshrabort, Konimex, Tinchlik, Malikrabort) bor. Bu shahar respublika boshqa viloyat markazlaridan o'zining arxitekturasi, qurilishi va, xususan yuksak sanoat salohiyati bilan farqlanib turadi.

Ijtimoiy sohalarga, eng avvalo, sog'liqni saqlash, ta'lim tizimlari, aholiga xizmat ko'rsatish va servis sohalari kiradi. Ularni zamonaviy talab darajasida rivojlantirish va hududiy tashkil etishga, barkamol avlodni tarbiyalashga "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" Davlat dasturida ham katta e'tibor berilgan.

Sog'liqni saqlash tizimida jami 39 ta muassasalar mavjud, ularda bemor o'rinlari har 10000 kishiga 44 ta. Ambulatoriya – poliklinikalar 274 ta, har 10 ming aholiga vrachlar soni 29 kishi, o'rta meditsina xodimlari soni 133 nafar.

Ta'lim geografiyasini cho'l sharoitida tashkil etish ham o'ziga xos muammolarga duch keladi. Maktablar soni bu yerda ko'proq bo'lsada, ularda o'quvchilar soni ancha oz (ayniqsa, kichik va mayda qishloqlarda). Jami viloyatda 4 ta akademik litsey, 47 ta kasb-hunar kollejlari va 2 ta oliy o'quv yurtlari bor.

Viloyatda transport tizimi uncha yaxshi rivojlanmagan. Uning janubidan xalqaro temir va avtomobil yo'llar o'tadi, ana shu yo'llarga perpendikulyar shaklda Navoiy - Uchquduq temir yo'li qurilgan. Hozirgi vaqtda ushbu yo'lning davomi, ya'ni Uchquduq - Nukus yo'nalishi qurilib bitirilgan. Uning ishga tushishi bilan Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi mamlakatimizning boshqa hududlari bilan bevosita temir yo'l orqali, ya'ni Turkmanistonga chiqmasdan bog'landi. Natijada, Navoiy shahrining (Karmana bilan birga) transport tuguni vazifasi yanada kuchaydi, Zarafshon, Uchquduq, Konimex shaharlari rivojlanishiga, cho'l hududi tabiiy resurslaridan foydalanishga ham qulay imkoniyatlar yaratildi. Eksport tarkibida kimyo sanoati mahsulotlari 71,8 %, paxta tolasi 6,7 %. Importda mashina va uskunalari 61,6 %, kimyo sanoati mahsulotlari

20,9 %. Viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalari asosan “Uzoq xorij” mamlakatlari bilan olib boriladi, ularning hissasi eksportda 76,3 %, importda 64,2 %.

Viloyat aholisi soni bo'yicha O'zbekistonda eng oldinda turadi. O'tgan asrning so'nggi o'n yilligida aholi sonining o'rtacha yillik ko'payishi 2,20 foizga teng bo'ldi. Aholi soni bo'yicha Urgut tumani yetakchi, uning aholisi Kattaqo'rg'on tumanini viloyatga bo'ysunuvchi shu nomli shahar bilan qo'shib hisoblaganda ham ko'proq (431,1 ming kishi). Samarqand tumanida 220,0, Pastdarg'omda 307,5 ming kishi va h.k. Ushbu tumanlar respublikamizda demografik salohiyati eng yuksak qishloq tumanlari sirasiga kiradi (Jumladan, Urgut tumani bu borada yetakchi). Eng kam aholi soni esa asosan cho'l va tog'liklardan iborat Qo'shrabot (112 ming kishi) va Nurobod (130 ming kishi) qayd etiladi.

Aholi zichligi o'rtacha 1 km<sup>2</sup> maydonga 203 kishi; eng katta ko'rsatkich Toyloq qishloq tumani (617), Samarqanda (459), Narpay (415) va Oqdaryoda (375 kishi). Samarqand va Tayloq tumanlarining ko'rsatkichi Farg'ona vodiysi qishloq tumanlariga o'xshab ketadi.

Urbanizatsiyaning umumiy demografik ko'rsatkichi 2009 yilning “iliq urbanizatsiya bahoridan” so'ng bir yilda 25,1 dan 38,8 foizga ko'tarildi. Ammo bu ham uncha yuqori ko'rsatkich emas va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi nuqtai nazaridan qaraganda, real holatni aks ettiradi. Hozirda Samarqand viloyati Xorazm va Surxondaryo viloyatlaridan so'ng oxirdan 3-o'rinni egallaydi. Albatta, bu Samarqanddek dunyoga mashhur, Sohibqiron Amir Temur imperiyasining poytaxti joylashgan hudud uchun ancha past ko'rsatkich sanaladi.

Respublikaning ikkinchi shahri Samarqandda, uning hududi Samarqand qishloq tumani hisobidan kengaygandan so'ng 513, Kattaqo'rg'onida 83 ming, Urgutda 65, Oqtoshda 42, Bulung'urda 29, Payshanbada 23 ming kishidan aholi istiqomat qiladi. Viloyat aholisining milliy tarkibi xilma-xil, u uzoq tarixiy jarayonlar ta'sirida shakllangan. 2013 yil ma'lumotlariga ko'ra, jami aholining 87,3 foizini o'zbeklar, 7,7 foizini tojiklar, 1,5 foizini ruslar tashkil qiladi. Qolgan

millatlar orasida ukrain, arman, qozoq, ozarbayjon va koreyslar birmuncha ko'proq.

**Samarqand viloyati.** Viloyatining xo'jaligi agrar-industrial yo'nalishda bo'lib, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va ijtimoiy sohalar, jumladan, turizm ham rivojlanib bormoqda. Mintaqa yalpi hududiy mahsuloti tarkibida sanoat 10,7 %, qurilish 7,7 %, qishloq xo'jaligi 37,2 %, transport va aloqa 7,5 %, savdo va umumiy ovqatlanish 7,3 va soliqlar 2,2 foizni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligining hissasi bo'yicha viloyat Surxondaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari qatorida turadi.

Samarqand viloyati sanoati ko'p tarmoqli xususiyatga ega. Bu yerda oziq-ovqat, mashinasozlik, yengil, kimyo, farfor sanoati yaxshiroq rivojlangan. Mustaqillik yillarida qurilgan avtomobilsozlik zavodlari mintaqa iqtisodiy salohiyatini ko'tarishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga tamaki, farfor idishlar, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqirishda ham faol ishtirok etmoqda; hammasi bo'lib 2730 ta, shu jumladan 33 ta yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatgan, ularda 35,4 ming ishchi xodim xizmat qiladi.

Oziqovqat sanoati jami sanoat mahsulotining 41,8 foizini bergan. Ikkinchi o'rinda yengil sanoat-20,3 foiz, uchinchi o'rinda mashinasozlik va metalni qayta ishlash-19,3 foiz, to'rtinchida un-krupa va omuxta yem ishlab chiqarish – 6,5 foiz. Kimyo hamda qurilish materiallari sanoat tarmoqlarining mavqei ham ancha sezilarli. Viloyatda shisha chinni idishlar ishlab chiqarish, yengil (pillakashlik va ip gazlama ishlab chiqarish), oziqovqat sanoat tarmoqlarining hududiy mujassamlashuv darajasi yoki ixtisoslashuv indeksi yuqori. Samarqand viloyatida mamlakatimizning boshqa viloyatlarida yo'q yoki juda kam uchraydigan sanoat tarmoqlari mavjud.





gazlama, tamaki, choy qadoqlash fabrikalari kabi korxonalar mavjud. Kattaqo'rg'onda mashinasozlik, yog', paxta tozalash (respublikada eng to'ng'ich) zavodlari, Jomboyda, avtomobilsozlik, yirik don mahsulotlari kombinati va «Samteks», Bulung'urda vino zavodi bor. Viloyatning eng yirik sanoat korxonalari: Samarqand kimyo zavodi kimyo va neft-kimyo sanoat mahsulotining 38,8 foizini, Jomboy avtomobil zavodi mashinasozlik sanoatining 50,0 foizini ta'minlaydi. Bulardan tashqari, sovutkich va muzlatkich ishlab chiqaruvchi "Sino" zavodi ham ancha katta ko'rsatkichlarga ega. Sanoatning hududiy tashkil qilish tizimida, eng avvalo, Samarqand va Kattaqo'rg'on tumanlari ajralib turadi. Umuman olganda, Samarqand viloyat sanoat mahsulotining 44,1 foizini beradi, Kattaqo'rg'onning bu sohadagi ko'rsatkichi 2,4 foizga barobar. Qishloq tumanlari orasida Jomboy oldinda – 12,4 %. Shu bilan birga Samarqand va Urgutning sanoat salohiyati kattaroq. Qolgan tumanlar, ayniqsa, Nurobod va Qo'shrobotda hozircha sanoat ishlab chiqarishi yaxshi rivojlanmagan.

Samarqand viloyati respublikamiz agroiqtisodiyotida muhim o'ringa ega. Mintaqada, qolgan viloyatlardan farq qilib, qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli. Bu yerda paxtachilik va g'allachilikdan tashqari bog'dorchilik, uzumchilik, tamaki yetishtirish ancha yaxshi rivojlangan. Uzumchilik bo'yicha u Toshkent viloyati bilan birgalikda O'zbekistonda yetakchi hisoblanadi. Hozirgi kunda viloyatning 5 qishloq tumanida paxta yetishtirilmaydi.

Dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, qo'ychilik, qorako'l qo'ylarini boqish (asosan, Qarnob cho'lida) katta ahamiyatga ega. Dehqonchilikning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibi 62,8 % yetkazib beradi. Samarqand viloyatida jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydoni 1295,0 ming ga yoki viloyat umumiy hududining 77,2 % demakdir. Nurobod, Qo'shrobot, Paxtachi va Payariq tumanlari ajralib turadi .

Sug'oriladigan yerlar 310 ming ga bo'lib, ular umumiy qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 23,9 foizini tashkil qiladi (qishloq xo'jaligi yer fondidan intensiv foydalanish koeffitsiyenti ham shu darajada). Sug'oriladigan

yerlar ayniqsa Qo'shrabot, Nurobod va Paxtachi tumanlarida juda oz miqdorda, Narpay, Oqdaryo, Toyloq, Pastdarg'om tumanlarida esa ko'proq.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 1/3 qismi ekin ekiladigan yerlar va 3/5 qismidan sal ko'prog'i pichanzor hamda yaylovlardan iborat. Ekin maydonlarining hissasi Pastdarg'om, Jomboy, Oqdaryo va Narpay tumanlarida yuqori, pichanzor va yaylovlar esa Nurobod, Paxtachi va Qo'shrabot qishloq tumanlarida ko'pchilikni tashkil qiladi. Jami ekin maydonlari 406,4 ming ga. Shundan 154 ming gektari donli ekinlar (O'zbekistonda oldingi o'rinlarda), 92 ming ga paxta, 7,6 ming ga tamaki, 25 ming ga sabzavot va 52 ming gektari yem-hashak yetishtirish bilan band. Shu yilda 146 ming gektarga bug'doy ekilgan, yalpi hosil 781 ming tonna, hosildorlik 53,6 s/ga. Paxta maydonlaridan 235 ming t paxta xom ashyosi yoki har bir gektar yerdan 25,7 sentnerdan hosil olingan. Tamakichilik Urgut tumanida tashkil etilgana. Boshqa texnika va moyli ekinlardan masxar, kungaboqar, shuningdek, zig'ir va kunjut ham ekiladi. Kartoshka 11,6 gektar yerni egallaydi, yalpi hosil 450 ming t. Uzum 34,2 ming gektarda, o'rtacha bir yilda 420 ming tonna yetishtiriladi. Kartoshka va uzum yetishtirishda Bulung'ur tumani yetakchilik qiladi.

Viloyat bo'yicha yirik shoxli mollar soni 1285 ming boshga yaqin (respublikada 1-o'rinda turadi), qo'y va echkilar 1827 ming bosh. Bir yilda yetishtirilgan qorako'l teri 93 ming dona atrofida, pilla 2737 tonnani, jun 4384 t, sut 930 ming t, go'sht (tirik vaznda) 204 ming tonnani tashkil etadi. Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi quyidagicha: Urgut tumanida tamakichilik, bog'dorchilik, uzumchilik, Qo'shrabot va Nurobodda, asosan chorvachilik, Bulung'urda bog'dorchilik va uzumchilik, kartoshka yetishtirish, Samarqand, Urgut va Toyloq tumanlarida shahar atrofi qishloq xo'jaligi va h.k. Paxta sug'orma dehqonchilik rayonlarida (Pastdarg'om, Paxtachi, Ishtixon, Narpay, Payariq, Oqdaryo va b.), g'alla paxta bilan birgalikda, shuningdek, lalmikor yerlarda-tog' etaklarida yetishtiriladi.

Viloyat agroiqtisodiyotida chorvachilik ham katta o'ringa ega. Uning geografiyasida go'sht yetishtirish bo'yicha Urgut tumani keskin ajralib turadi –

mintaqa jami go'sht mahsulotining 16,6 foizini beradi. Sut borasida ham Urgut hamda Ishtixon va Kattaqo'rg'on tumanlari ixtisoslashgan hisoblanadi. Tabiiyki, parrandachilik, jumladan tuxum yetishtirish, odatda, yirik shaharlar atrofida rivojlangan bo'ladi. SHu bois, mazkur chorvachilik mahsulotining 2/3 qismi birgina Samarqand tumanida tayyorlanadi.

Samarqand viloyatida nomoddiy ishlab chiqarishda jami ishchi va xizmatchilarning 33,2 foizi (436 ming kishi) band. Sog'liqni saqlash tizimida jami 125 muassasa mavjud, ularning ko'pchiligi byudjet tasarrufida. Har 10000 kishiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari 41,4 ta. Mintaqada aholi salomatligini tiklashga qaratilgan ko'plab rekreatsiya ob'ektlari – oromgoh va sihatgohlar tashkil etilgan. Jumladan, ular Kattaqo'rg'on tumani (Nagorniy), Nurobod (Ibn Sino nomidagi sanatoriya), shuningdek, Bulung'ur, Urgut va boshqa tumanlarda, Samarqand shahrida ham bor.

Samarqand viloyatida jami 553 ta maktabgacha tarbiya muassasalari bor. Ulardagi o'rinlar soni 68,5 ming kishi. Boshqacha qilib aytganda, har bir muassasaga o'rtacha 106 kishidan to'g'ri keladi. Tabiiyki, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarini tashkil etish cho'l va tog'liklardan iborat qishloq tumanlarida (Qo'shrabot, Nurobod, Paxtachi) ancha muammolarga duch keladi. Sababi bu hududlarda aholi siyrak joylashgan, qishloqlari esa uncha katta emas.

Umumta'lim maktablari 1233 ta, o'quvchilar soni 520 ming kishi; bir maktabda o'rtacha 422 tadan o'quvchi ta'lim oladi. Bu raqam ayrim boshqa mintaqalarga taqqoslaganda, uncha katta emas. Viloyatda jami 14 ta akademik litseylar mavjud, o'quvchilar soni 12 ming kishi. Ularning ayrimlari oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etilgan. Kasb-hunar kollejlari 160 ta, o'quvchilar 192 ming nafar. Kollejlar mintaqaning barcha shahar va qishloq tumanlarida bor, ularning yo'nalishlari esa joylarning demografik vaziyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xo'jaligining ixtisoslashuviga muvofiq holda tashkil qilingan.

Oliy o'quv yurtlari 7 ta va bu borada Samarqand shahri Toshkent shahridan keyingi respublikamizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash markazi sanaladi. Jami

talabalar soni 23,0 ming kishi. Ular Samarqand davlat universiteti, xorijiy tillar, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, servis va arxitektura institutlarida ta'lim olishadi.

Samarqand viloyati mamlakatimizda turizm sohasi bilan ham ajralib turadi. Bu hududda joylashgan, asosan sohibqiron Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bek tomonidan barpo etilgan olamshumul binolar, madrasalar, tarixiy yodgorliklar Registon, Shohi Zinda, Go'ri Amir, Ulug'bek observatoriyasi, Bibixonim madrasasi, Dahbed qishlog'ida joylashgan Mahdumi A'zam, Payariq tumanida respublika Prezidenti tashabbusi bilan barpo etilgan Imom Buxoriy qadamjolari nafaqat mamlakatimizda, balki Islom olami va butun dunyoda ham mashhurdir. Bunday qadamjo va ziyoratgohlar viloyatning boshqa tumanlarida ham ko'p (Urgut, Samarqand, Qo'shrabot va b.). SHuningdek, Samarqandning mashhur noni, shirinliklari va milliy taomlari, arxitektura va shaharsozlik yodgorliklari sayyohlar uchun katta qiziqish tug'diradi.

Viloyatda jami 76 ta mehmonxonalar – turistik infratuzilmaning eng muhim ob'ektlaridan biri mavjud, ulardagi o'rinlar soni 3400 ta. Xususiy sektorda ham mehmonxonalar tashkil qilingan. Bir yilda taxminan 140-150 mingta sayyohga, shu jumladan 90 mingta xorijiy fuqarolarga turistik xizmat ko'rsatiladi.

## II.BOB. MINTAQA TURIZM OBEKTLARI GEOGRAFIYASI

### 2.1. Samarqand viloyati turizm obektlari

Samarqand dunyo taraqqiyotining eng qadimgi va markaziy shaharlaridan biri bo`lib, jahon madaniyati va fani xazinasiga katta hissa qoshgan shahardir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati rahbarligida mustaqillik yillari Samarqand shahridagi arxitektura yodgorliklarini tiklash va ta`mirlash, ayniqsa, eski shahar qismini qayta qurish va ta`mirlash, obodonlashtirish bo`yicha katta ishlar amalga oshirildi. Temuriylar sulolasi yaratgan arxitektura yodgorliklari Misr, Xitoy, Hindiston, Gretsiya, Italiya kabi davlatlarda yaratilgan arxitektura obidalaridan aslo qolishmaydi.

Mustaqillik yillarida qaytadan barpo etilgan al Buxoriy, Motrudiy va boshqa tarixiy majmualar tahsinga sazovordir. Samarqand qadimiy Rim bilan tengdoshdir. Uning tarixiy madaniyatining quyi qatlamlari eramizdan avvalgi I ming yilliklarga borib taqaladi. U qadimgi va hozirgi jumboqli So`g`d davlatining poytaxti Maroqand shahri qoldiqlari bilan tillashadi. Samarqand shahridagi Afrosiyob juda ko`p qonli voqealarni boshidan kechirgan.

XIII asr boshlarida mo`g`ul bosqinchilari O`rta Osiyoning tinch hayotiga tajovuz soldi, ular juda ko`plab shaharlarni, san`at yodgorliklari va madaniy boyliklarini vayron etdilar. Chingizxon qo`shinlari tomonidan Afrosiyob yer yuzidan yo`q qilindi. Uylar va saroylar yondirildi, necha asrlab suv berib turgan suv quvurlari barbod etildi, gullab-yashnab turgan bog`lar kul tepalarga aylantirildi. Biroq shahar o`lmadi, aksincha, XIV-XV asrga kelib yanada gullab-yashnadi. Bu kunlar buyuk sarkarda Amir Temurning Samarqand shahrini o`z saltanatining markaziga aylantirishga qaror qilgan davrlarga to`g`ri keldi. Amir Temur saroyida bo`lgan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o`z bitiklarida Samarqand haqida quyidagilarni yozadi:

*«Temur bu shaharning gullab-yashnashini xohlardi, u qaysi yurtni egallamasin, u yerdan odamlarni bu yerga yashashi uchun olib kelar, ayniqsa turli yo`nalishlardagi ustalarni yig`ishga harakat qilardi».*

Temur o`z yurti poytaxtini dunyodagi eng katta va ko`rkam shaharlar qatoriga qo`shishni istardi. Shu boisdan Samarqand shahri atrofidagi qishloqlar Bog`dod, Damashq, Qohira\_kabi buyuk shaharlar nomini oldiki, Temur o`z poytaxti oldida bu shaharlar bir qishloqchalik bo`lishini istardi. Samarqand shahrini 13 ta katta bog` yashtanib turardi, ularning eng kattasi shu darajada keng ediki, tarixning shohidlik berishicha, bir kuni shu bog`da adashib qolgan otni bir oy izlashgan ekan.

Afrosiyob Samarqand shahrining qadimiy qoldiqlari, uzoq asrlar davomida 10-15 metr chuqurlikda ko`milib ketgan arxeologik qazilmalari bilan mashhur, qadimiy aholisi VI-VIII asrlarda hozirgi Samarqand shahri yaqinidagi tepaliklarda, taxminan 2 kv km maydonda yashagan. Samarqand shahri yodgorliklari o`zining buyukligi bilan odamlarni qoyil qoldirgan. Uning binolari devorlaridagi zangori naqshlari, arxitektura shakllari, turli ko`rinishlardagi geometrik shakllari bilan kishini hayratga soladi. Bular Registon, Shohi Zinda, Go`ri Amir maqbaralari ansambllaridir.

Samarqand atrofidagi Afrosiyob tepaliklari bo`ylab Shohi Zinda me`morchilik ansamblining 11 ta maqbaralari joylashgan. Bu ko`chalarni qurishni hech kim rejalashtirmagan, ular o`z-o`zidan yuz yillar davomida barpo etilgan. Shohi Zinda so`zi “Tirik shoh“ ma`nosini anglatib, uning madaniyati bu yurtlarga islom kirib kelgunicha gullab-yashnagan. Afrosiyob gullab-yashnagan davrlarda uning shuhrati shu darajada yuqori ediki, o`sha davrdagi islom peshvolari u bilan kurashishga hayiqishgan. Uning shuhrati to`g`risida afsonalar yaratilgan, ulardan biri Muhammad Qosim ibn Abbos payg`ambarning amakivachchasi ekanligi haqidagi afsonadir. „Bibixonim“ nomidagi go`zal masjid eski shaharga kirish darvozasi oldidagi maydonda joylashgan. U to`rtta inshootdan iborat bo`lib, bular kirish galeriyasi, asosiy masjid va ikkita kichik masjidlar, ular bir-biri bilan aylanma gumbazli va uch qatorli tosh devorlar orqali bog`langan.

Aytishlaricha, Amir Temurning uzoq mamlakatlarga qilgan safarlaridan birida uning eng suyukli xotini Saroymulixonim, xalq ichida uni Bibixonim deb ham ataydilar, mamlakatdagi eng mashhur bashoratchilarni yig`ib, yulduzlar

bashorat qilgan vaqtda ushbu masjidni qurishni boshlagan ekan. Amir Temur shaharga kirib kelib masjidni zavq bilan tomosha qiladi.

Samarqand maqbaralari ichida eng mashhuri Go`ri Amirdir. Bu maqbara Amir Temurning suyuqli nabirasi Muhammad Sultonga atalgan edi, lekin hozirgi kunda bu yerga Amir Temur, uning o`g`illari va boshqa nabiralari, o`rta asrlarning ulug` olimi Ulug`bek dafn etilgan, bu maqbara temuriylar maqbarasiga aylangan. Eski Samarqandning markazi Registon sanaladi. Bu yerga shaharning hamma tomonidan ko`chalar keladi. Eski davrlarda maydondan katta kanal o`tgan va u juda ko`p qum uyumlarini oqizib kelgan. Shu sababli bu maydon Registon nomini olganki, ma`nosi „qumli joy“ yoki „qumli maydon“ ma`nosini anglatadi. Registon XV asrgacha katta savdo markazi bo`lgan.

Ulug`bek Samarqandni boshqargan 1409-1447 yillarda maydon harbiy ko`riklar, qo`shinlarni ko`rikdan o`tkazish, farmonlar o`qib eshittiriladigan joyga aylangan. Hozirgi kunda Registon maydonini uchta madrasa: Sherdor, Tillakori (XVII asrda qurilgan) va Ulug`bek (XV asrda qurilgan) madrasalari bezab turibdi. Ulug`bek madrasasi olimning ko`rsatmasi bilan 1420 yilda qurilishi boshlangan. To`rt burchakli va to`rt minorali bu madrasaning ichida to`rtburchak hovlisi bor va hovliga qaratib to`rt tomondan hujralar qurilgan. Ulug`bek madrasasi o`zining boy me`moriy terma naqshlari, geometrik tuzilishi va osmon aks etib turgan maydoni bilan fan va madaniyatning buyuk asari sifatida saqlanmoqda.

Ulug`bek zamonida Samarqand O`rta Osiyoning bilim o`chog`iga aylandi. O`sha davrlarda bu yerga dunyoning eng taniqli matematiklari, astronomlari, tarixchi olimlari yig`ilishgan. Ulug`bek zamonasida tanlab jalb qilingan olimu-fuzalolar, uning observatoriyasida xizmat qilgan olimlar fanning ajoyib siru-asrorlaridan voqif bo`ldilar. Butun jahonning savdogarlari, shoiru-ulamolari va olimlari „Jahonning qimmatli durdonasi“ atalmish Samarqandga intilganlar. Samarqandning ko`p asrlik tarixi Ro`dakiy, Bobur, Jomiy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug`bek, Muqimiy, Furqat, Qozizoda Rumiy\_kabi fan va san`atning ulug` mutafakkirlari bilan chambarchas bog`liqdir.

Samarqand— afsonaviy shahar, har bir joy, ko'chalar, havzalari o'z tarixiga ega. Afrasiyobning shimoliy sharqidagi tepaliklarda Amir Temurning nabirasi Ulug'bekning osmon jismlari va yulduzlarini o'rganish bo'yicha qurgan rasadxonasining bir qismi saqlanib qolgan. Rasadxona binosi 1449-yilda buzib tashlangan, hozirgi kunda tashrif buyuruvchilar rasadxonaning yer osti qisminigina ko'rishlari mumkin. Samarqandda tarixiy obidalaridan tashqari ko'pgina dam olish maskanlari ham mavjud. Taxtaqoracha dovoni yaqinidagi Omonqutan maskanida hozirgacha Samarqand shahri to'g'risidagi qiziq-qiziq afsonalarni eshitish mumkin. Bundan tashqari ushbu viloytda neandertallar lageri qoldiqlari topilgan.

Samarqand dunyo taraqqiyotining eng qadimgi va markaziy shaharlaridan biri bo'lib, jahon madaniyati va fani xazinasiga katta hissa qoshgan shahardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati rahbarligida mustaqillik yillari Samarqand shahridagi arxitektura yodgorliklarini tiklash va ta'mirlash, ayniqsa, eski shahar qismini qayta qurish va ta'mirlash, obodonlashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Temuriylar sulolasiyaratgan arxitektura yodgorliklari Misr, Xitoy, Hindiston, Gretsiya, Italiya kabi davlatlarda yaratilgan arxitektura obidalaridan aslo qolishmaydi.

Mustaqillik yillarida qaytadan barpo etilgan al Buxoriy, Motrudiy va boshqa tarixiy majmualar tahsinga sazovordir. Samarqand qadimiy Rim bilan tengdoshdir. Uning tarixiy madaniyatining quyi qatlamlari eramizdan avvalgi I ming yilliklarga borib taqaladi. U qadimgi va hozirgi jumboqli So'g'd davlatining poytaxti Maroqand shahri qoldiqlari bilan tillashadi. Samarqand shahridagi Afrosiyob juda ko'p qonli voqealarni boshidan kechirgan.

XIII asr boshlarida mo'g'ul bosqinchilari O'rta Osiyoning tinch hayotiga tajovuz soldi, ular juda ko'plab shaharlarni, san'at yodgorliklari va madaniy boyliklarini vayron etdilar Chingizxon qo'shinlari tomonidan Afrosiyob yer yuzidan yo'q qilindi. Uylar va saroylar yondirildi, necha asrlab suv berib turgan suv quvurlari barbod etildi, gullab-yashnab turgan bog'lar kultepalarga aylantirildi. Biroq shahar o'lmadi, aksincha, XIV-XV asrga kelib yanada gullab-yashnadi. Bu kunlar buyuk sarkarda Amir Temurning Samarqand shahrini o'z saltanatining



markaziga aylantirishga qaror qilgan davrlarga to'g'ri keldi. Amir Temur saroyida bo'lgan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z bitiklarida Samarqand haqida quyidagilarni yozadi:

*«Temur bu shaharning gullab-yashnashini xohlardi, u qaysi yurtni egallamasin, u yerdan odamlarni bu yerga yashashi uchun olib kelar, ayniqsa turli yo'nalishlardagi ustalarni yig'ishga harakat qilardi».*

Temur o'z yurti poytaxtini dunyodagi eng katta va ko'rkam shaharlar qatoriga qo'shishni istardi. Shu boisdan Samarqand shahri atrofidagi qishloqlar Bog'dod, Damashq, Qohira\_kabi buyuk shaharlar nomini oldiki, Temur o'z poytaxti oldida bu shaharlar bir qishloqchalik bo'lishini istardi. Samarqand shahrini 13 ta katta bog` yashtanib turardi, ularning eng kattasi shu darajada keng ediki, tarixning shohidlik berishicha, bir kuni shu bog`da adashib qolgan otni bir oy izlashgan ekan.

Afrosiyob Samarqand shahrining qadimiy qoldiqlari, uzoq asrlar davomida 10-15 metr chuqurlikda ko'milib ketgan arxeologik qazilmalari bilan mashhur, qadimiy aholisi VI-VIII asrlarda hozirgi Samarqand shahri yaqinidagi tepaliklarda, taxminan 2 kv km maydonda yashagan. Samarqand shahri yodgorliklari o'zining buyukligi bilan odamlarni qoyil qoldirgan. Uning binolari devorlaridagi zangori naqshlari, arxitektura shakllari, turli ko'rinishlardagi geometrik shakllari bilan kishini hayratga soladi. Bular Registon, Shohi Zinda, Go'ri Amir maqbaralari ansambllaridir.

Samarqand atrofidagi Afrosiyob tepaliklari bo'ylab Shohi Zinda me'morchilik ansamblining 11 ta maqbaralari joylashgan. Bu ko'chalarni qurishni hech kim rejalashtirmagan, ular o'z-o'zidan yuz yillar davomida barpo etilgan. Shohi Zinda so'zi "Tirik shoh" ma'nosini anglatib, uning madaniyati bu yurtlarga islom kirib kelgunicha gullab-yashnagan. Afrosiyob gullab-yashnagan davrlarda uning shuhrati shu darajada yuqori ediki, o'sha davrdagi islom peshvolari u bilan kurashishga hayiqishgan. Uning shuhrati to'g'risida afsonalar yaratilgan, ulardan biri Muhammad Qosim ibn Abbos payg'ambarning amakivachchasi ekanligi haqidagi afsonadir. „Bibixonim“ nomidagi go'zal masjid eski shaharga kirish

darvozasi oldidagi maydonda joylashgan. U to`rtta inshootdan iborat bo`lib, bular kirish galeriyasi, asosiy masjid va ikkita kichik masjidlar, ular bir-biri bilan aylanma gumbazli va uch qatorli tosh devorlar orqali bog`langan.

Aytishlaricha, Amir Temurning uzoq mamlakatlarga qilgan safarlaridan birida uning eng suyuqli xotini Saroymulxonim, xalq ichida uni Bibixonim deb ham ataydilar, mamlakatdagi eng mashhur bashoratchilarni yig`ib, yulduzlar bashorat qilgan vaqtda ushbu masjidni qurishni boshlagan ekan. Amir Temur shaharga kirib kelib masjidni zavq bilan tomosha qiladi.

Samarqand maqbaralari ichida eng mashhuri Go`ri Amirdir. Bu maqbara Amir Temurning suyuqli nabirasi Muhammad Sultonga atalgan edi, lekin hozirgi kunda bu yerga Amir Temur, uning o`g`illari va boshqa nabiralari, o`rta asrlarning ulug` olimi Ulug`bek dafn etilgan, bu maqbara temuriylar maqbarasiga aylangan. Eski Samarqandning markazi Registon sanaladi. Bu yerga shaharning hamma tomonidan ko`chalar keladi. Eski davrlarda maydondan katta kanal o`tgan va u juda ko`p qum uyumlarini oqizib kelgan. Shu sababli bu maydon Registon nomini olganki, ma`nosi „qumli joy“ yoki „qumli maydon“ ma`nosini anglatadi. Registon XV asrgacha katta savdo markazi bo`lgan.

Ulug`bek Samarqandni boshqargan 1409-1447 yillarda maydon harbiy ko`riklar, qo`shinlarni ko`rikdan o`tkazish, farmonlar o`qib eshittiriladigan joyga aylangan. Hozirgi kunda Registon maydonini uchta madrasa: Sherdor, Tillakori (XVII asrda qurilgan) va Ulug`bek (XV asrda qurilgan) madrasalari bezab turibdi. Ulug`bek madrasasi olimning ko`rsatmasi bilan 1420 yilda qurilishi boshlangan. To`rt burchakli va to`rt minorali bu madrasaning ichida to`rtburchak hovlisi bor va hovliga qaratib to`rt tomondan hujralar qurilgan. Ulug`bek madrasasi o`zining boy me`moriy terma naqshlari, geometrik tuzilishi va osmon aks etib turgan maydoni bilan fan va madaniyatning buyuk asari sifatida saqlanmoqda.

Ulug`bek zamonida Samarqand O`rta Osiyoning bilim o`chog`iga aylandi. O`sha davrlarda bu yerga dunyoning eng taniqli matematiklari, astronomlari, tarixchi olimlari yig`ilishgan. Ulug`bek zamonasida tanlab jalb qilingan olimu-fuzalolar, uning observatoriyasida xizmat qilgan olimlar fanning ajoyib siru-

asrorlaridan voqif bo'ldilar. Butun jahonning savdogarlari, shoiru-ulamolari va olimlari „Jahonning qimmatli durdonasi“ atalmish Samarqandga intilganlar. Samarqandning ko'p asrlik tarixi Ro'dakiy, Bobur, Jomiy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug`bek, Muqimiy, Furqat, Qozizoda Rumi kabi fan va san'atning ulug` mutafakkirlari bilan chambarchas bog`liqdir.

Samarqand — afsonaviy shahar, har bir joy, ko'chalar, havzalari o'z tarixiga ega. Afrasiyobning shimoliy sharqidagi tepaliklarda Amir Temurning nabirasi Ulug`bekning osmon jismlari va yulduzlarini o'rganish bo'yicha qurgan rasadxonasining bir qismi saqlanib qolgan. Rasadxona binosi 1449-yilda buzib tashlangan, hozirgi kunda tashrif buyuruvchilar rasadxonaning yer osti qisminigina ko'rishlari mumkin. Samarqandda tarixiy obidalardan tashqari ko'pgina dam olish maskanlari ham mavjud. Taxtaqoracha dovoni yaqinidagi Omonqutan maskanida hozirgacha Samarqand shahri to'g'risidagi qiziq-qiziq afsonalarni eshitish mumkin. Bundan tashqari ushbu viloytda neandertallar lageri qoldiqlari topilgan.

Salkam 3 ming yillik tarixga ega bo'lgan va hamisha navqiron Samarqand mustaqillik yillarida yanada obod va ko'rkam bo'ldi. Uning qaysi bir go'shasiga nazar solmang, ulkan yaratuvchilik va bunyodkorlik ishlariga ko'zingiz tushadi. Jumladan, hududda saqlangan va xalqimiz tomonidan asrlar davomida e'zozlanib kelinayotgan arxeologik yodgorliklar va me'moriy obidalarga ham qaytadan jon baxsh etildi. Ularning barchasi ta'mirlanib, ba'zilari yangidan bunyod qilindi. Bugun nafaqat xalqimiz, balki dunyo jamoatchiligi kelib ko'rsa, ma'naviy oziqlansa arziydigan muqaddas qadamjolarga aylantirildi.

Prezidentimiz Islom Karimovning: «Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi» (Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 140-b.) degan qarashlarini dasturilamal qilib olgan xalqimiz mamlakatimizda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgan damlardan e'tiboran boy ma'naviy

merosimizni va qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

1370 yili Amir Temur Balx shahridagi katta qurultoyda Movarounnahr hukmdori etib saylandi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida mamlakat parokanda bo'lgan, davlatchilikka putur yetgani bois. Sohibqiron oldida mamlakatni qayta tiklashdek ulkan va mashaqqatli vazifalar turardi.

**Registon ansambli.** Registon maydoni yer yuzining sayqali deb tan olingan, Amir Temur birlashtirgan yigirma yetti davlat poytaxti bo'lgan mashhur Samarqandning o'ziga xos va mos bo'lgan ko'zguvidir. Registon maydoni Bahodir Yalangto'sh davrida shakllangan. Registon maydonidagi me'moriy majmuaning tarkib topishi Mirzo Ulug'bekning farmoniga binoan madrasa qurilishidan boshlandi. Madrasa 1417-1420 yillarda qurilgan bo'lib, uning sathi 81x56 m. atrofidagi hudud edi. Samarqand shahri tarixi XVII asrning birinchi yarmida, ashtarxoniyalar sulolasining olchin urug'idan chiqqan o'zbek zodagonlarining yirik vakili Yalangtush Bahodirning faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Yalangto'sh Bahodir SHerdor madrasasini qurdirganidan o'n yil o'tgandan so'ng, Ulug'bek tomonidan qurilgan Karvonsaroyni tiklash imkoniyati bo'lmaganligi sababli, uning poydevori ustidan yangi madrasa – masjid qurdiradi.



**Registon ansambli**



**Ulug'bek madrasasi (1417 – 1420)**



**Sherdor madrasasi (1619-1636)**



**Tillakori madrasasi (1646-1660)**

Afrosiyob Samarqand shahrining shimolida joylashgan bo'lib, maydoni 219 ga ni tashkil etadi. Ushbu hudud Samarqandning qadimiy o'rnini bo'lib, XIII asr boshida mo'g'ullar bosqinidan so'ng xarobaga aylangan. Afrosiyobning hozirgi vaqtda hukmdor arki va shahristoni saqlangan.



**Amir Temur jome' masjidi (1399 – 1404)**

XIV-XV asrlarda - temuriylar davrida Movoraunnahrda obod poytaxtga ega bo'lgan kuchli davlat yuzaga keldi. Bu davlatning poytaxti bo'lgan Samarqandda

yirik qurilish ishlari avj oldi. Unda Sharq xalqlarining me'morchilik tajribasi va xalq an'analari mujassamlashgan edi.



**Amir Temur maqbarasi**

Amir Temur maqbarasi Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etilgan. Maqbara qurilishi buyuk Soxibqiron Amir Temur tomonidan 1404 yilda boshlanib, Mirzo Ulug'bek davrida tugallangan.

Samarqandning ko'hna qismida, Amir Temur jome' masjidining kunchiqar tomonida, bundan olti asrlar ilgari barpo qilingan yana bir me'moriy obida mavjud. Bu obida ichida Amir Temurning suyuqli xotini Saroymulxonim – Bibixonimning qabri joylashgan.



**Shohi Zinda majmuasi**

SHohi Zinda, ya'ni «Tirik shoh» maqbaralar majmuasi o'tmish ajdodlarimiz tarixi va taqdirida alohida o'rin tutadi. U ko'hna Samarqandning janubiy qismida joylashgan bo'lib, muqaddas ziyoratgohlaridandir.



#### **Mirzo Ulug'bek rasadxonasi va muzeyi**

Buyuk o'zbek xalqining atoqli farzandi, jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan benazir alloma va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq ushbu muzey 1964 yilda tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan 2010 yilda muzey tubdan yangi qurilgan binoda qayta tashkil etildi.



G'avsuli A'zam Abu Muhammad Muyiddin Sayyid Abdulqodir G'iloniy Hazratlari 1079 yilda Eronning G'ilon viloyatida tavallud topadi. U 1166 yilda



Bog'dodda vafot etgan. Abdulqodir G'iloniy valiylik martabasiga erishgan zotdir. Ma'lumki, avliyolar yetti darajada bo'lishgan. Ularning oliy darajasi «Qutb va G'avs»dir.



#### **Shayx Xudoydodi Vali ziyoratgohi**

SHayx Xudoydodi Vali - Karmana farzandi. Uning shu zaminda tug'ilib o'sganligi manbalarda o'z tasdig'ini topgan. So'nggi makoni Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi Fazira qishlog'i esada, hayoti va faoliyatining kamolot davri ona tuprog'i bilan bog'liq. SHayx Olim Azizonning «Lamahot min nafahotul qudus», Abu Tohirxojaning «Samariya», Muhammad SHarif al-Husayniyning «Hujjat ul-zokirin», Roqim Samarqandiyning «Tarixi kasira», Mavlono Saidning «Manoqibi Xudoydodi Vali» kabi yigirma beshdan ortiqroq nodir manbalarda bu haqiqatning tasdig'i bor.



### **Maxdumi A'zam ziyoratgohi**

Samarqand zaminida azaldan fan va marifat, diniy va dunyoviy ilm rivojlangan. Ulug' allomalar, olimu fuzalolar nomi yetti iqlimga mashhur bo'lgan. SHu bois ham jaxonning ne-ne mamlakatlaridan ilm va ziyo istab doimiy ravishda shu diyorga intilishgan va ularning aksari Samarqand tuprog'ida mangu qo'nim topganlar.

Arxeologik yodgorliklar va undagi topilmalar muayyan bir xalqning o'tmishi, tarixi, ma'naviyati va qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Shu bois dunyoning barcha davlatlarida arxeologik yodgorliklar va ularda qayd qilingan noyob topilmalarni saqlash va kelajak avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda ham mustaqillik yillarida madaniy yodgorliklar, jumladan arxeologik yodgorliklarni saqlash, himoya qilish va ulardan foydalanish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Samarqand shahrining tarixiy qismidagi milliy madaniy meros ob'ektlari tubdan qayta ta'mirlanib, hudud tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida mazkur hudud 2001 yil YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatiga "Samarqand – madaniyat chorrahasi" nominatsiyasi bilan kiritilgan. Uch qismga bo'lingan hududda jami 513 ta moddiy-madaniy meros ob'ektlar joylashgan.

Samarqand viloyati hududida 1105 ta arxeologik, 670 ta me'moriy, 37 ta diqqatga sazovor joy, 18 ta monumental, 21 ta memorial, jami 1851 ta moddiy-

madaniy meros ob'ektlari mavjud. Ular viloyat hokimining 2013 yil 14 noyabrdagi qarori bilan davlat muhofazasiga olingan. Robinjon, Charxintepa, Uchtepa (Narpay tumani), Ko'ktepa (Payariq tumani), Quldortepa (Urgut tumani), Arabtepa, Navbog'tepa (Samarqand tumani), Tillatepa, Bo'ritepa, Kapsatabobotepa (Kattaqo'rg'on tumani), Kumushkent, Sug'uda (Oqdaryo tumani), Mingtepa (Jomboy tumani) kabi yodgorliklar shular jumlasidandir.

**Hazrati Xizr majmuasi.** Hazrati Xizr masjidi Samarqand shahrining muqaddas ziyoratgohlaridan biridir. U Samarqanddagi birinchi musulmon masjidi va me'moriy obidasi sifatida e'tirof etiladi. Masjid Qutayba ibn Muslim tomonidan qurilib, Hazrati Xizr nomi bilan atalgan. Ma'lumotlarga ko'ra, dastlab sajdagohi mavjud bo'lgan. VIII asrda arablar tomonidan otashparastlarning ibodatxonalari buzib tashlanadi. Shu tepalikdagi ibodatxona o'rniga Qutayba ibn Muslim tomonidan birinchi masjid binosi quriladi va Hazrati Xizr nomi bilan ataladi.

Xoja Doniyor, Qusam ibn Abbos va Hazrati Xizr ziyoratgohlari aslida bitta majmua bo'lgan. Masjidga kiraverishdagi marmar toshda ko'rsatilgan "1854 yil" yozuvi uning Buxoro amiri Amir Muzaffarxon tomonidan tiklanganligiga ishoradir. Majmua Hazrati Xizr masjidi, Shayx Nuriddin Basr Avliyo ziyoratgohi, Maxsum bobo Avliyo ziyoratgohidan iborat. 1899 yilda masjidning ayvon va darvozaxona qismi qayta qurilgan. Darvoza yuzasiga yozilgan hijriy 1336 yil (melodiy 1916-1917 yillar) yozuvi darvozaxona va minoraning qayta tiklangan vaqtini anglatadi. Fikrimizni xonaqoh mehrobidagi 1274 yil hijriy (1854 melodiy yil), 1302 hijriy yil (1884 melodiy yil) degan yozuvlar isbotlaydi. Mustaqillik yillarida hazrati Xizr masjidi mamlakat rahbariyati qo'llab-quvvatlashi bilan bir necha bor mukammal ta'mirlandi, masjid yonida joylashgan Arzis qudug'i qayta tozalanib, qadimiy holiga qaytarildi. 2016 yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov ushbu majmuada dafn etilgan.

**Nodir Devonbegi madrasasi.** Nodir Devonbegi madrasasi naqshbandiya tariqatining yirik vakillaridan biri, buyuk nazariyotchi va nufuzli shayx Xoja Ubaydulloh Ahror ziyoratgohiga yaqin joylashgan bo'lib, hijriy 1040 (melodiy

1631) yil ashtarxoniylar sulolasining namoyandasi Subhonqulixon saltanati davrida, Nodirbiy Tog'ay nomi bilan tanilgan Nodir Mirzo Tog'ay ibn Sulton Arlot tomonidan qurilgan. Bu madrasa Xoja Ahror xonaqosi yonida joylashganligi bois, xalq orasida "Xoja Ahror madrasasi" deb ham yuritiladi. Mazkur madrasaning Xoja Ahrori Valiy xonaqosining yonida barpo qilinishini Nodir Mirzo Tog'ay ibn Sultonning Xojaga bo'lgan cheksiz hurmati belgisi, deb tushunish mumkin. Nodir Devonbegi madrasasi loyihasini ishlashda Registonning Sherdor madrasasi binosi ko'rinishidan ijodiy foydalanilgan. "Ikkinchi Sherdor" madrasasi (xalq orasida shunday deb yuritiladi) 1978 yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Abdug'affor Haqqulov tashabbusi hamda rahbarligi ostida qayta ta'mirlangan. Madrasa peshtoqidagi sher suratining aks ettirilishi, katta hovlining chetlaridagi hujralarning joylashishi Registondagi SHerdor madrasasining nusxasini takrorlaydi va undan farqli o'laroq, bu yerda minoralar yo'q. Madrasa bir qavatli qurilgan bo'lib, XVI-XVII asrlarda keng tarqalgan hashamatli va sharqona to'rt ayvonlilik usulida bunyod etilgan. Madrasaning peshtoqida qurilishning boshlanish vaqtini ko'rsatuvchi yozuvlar bitilgan. Ular naqsh bezaklari bilan uyg'unlashib ketgan. Bu yozuvlarni naqshlar bilan hashamatlashtirish Xoja Hoshim va muhandis-quruvchi Do'stmuhammadlar ijodi va bezak san'atining namunasi. Madrasa katta masjid, darsxona vazifasini o'tagan zaldan, to'rtta darsxona va 28 ta hujralardan iborat. Katta zal ustida hashamatli gumbaz mavjud.

**Amir Temur (Bibixonim) jome' masjidi.** Amir Temur jome masjidi Markaziy Osiyodagi eng yirik inshootlardan biri hisoblanadi. Tarixchi G'iyosiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida" (milodiy 1399 yil, 10 may) Amir Temur masjid uchun poytaxtning eng yaxshi joyini tanladi. Mashhur ustalar va me'morlar bu ulkan imoratning loyihasini tuzdilar va eng saodatli kunlar da uning poydevorini qurishga kirishdilar", deb yozib qoldirgan. Sohibqiron Amir Temur masjid qurilishi vaqtida harbiy yurishlarda bo'lganligi bois qurilishga Saroymulxonim – Bibixonim rahbarlik qilganligi uchun el ichida Bibixonim masjidi, deb yuritiladi.

Bibixonim jome masjidining umumiy sahni 167x109 m. bo'lib, burchaklarida baland minoralar bo'lgan va ular bizga noma'lum sabablarga ko'ra buzib yuborilgan. Hozirgi vaqtga kelib bu minoralar qayta tiklandi. Ta'mirlanishga qadar jome masjidi bir-biri bilan bog'lanmagan 6 ta me'moriy bo'laklardan iborat bo'lgan. Masjidning hovli sahniga marmartosh taxtalar yotqizilgan. XV asr o'rtalarida Mirzo Ulug'bek farmoniga binoan hovli o'rtasida marmar toshdan yasalgan ulkan lavh o'rnatilgan. U Qur'on o'qiladigan maxsus kursi bo'lib, dastlab asosiy bino ichida turgan 1875 yilda katta gumbazning qulashidan xavflanib, hovli o'rtasiga chiqarib qo'yilgan. Lavhning atrofi nafis hoshiyalar, muqarnaslar, o'simliksimon naqshlar va yozuvlar bilan bezatilgan. Jome masjidi peshtoqi mahobatli bo'lib, o'rtasida kengligi 18,8 metrli ravoq mavjud. YOn tomonlaridagi minoralar peshtoqdan baland bo'lgan. Peshtoqning ichki tomonida kichikroq (ikkinchi) ravoq o'rnatilgan. Ravoqning yonlari o'ymakor marmar toshlar bilan bezatilgan. Uning ustidagi lavhasida masjidning qurilgan yili va Amir Temur shajarasi yozilgan. Qo'sh tabaqali darvoza esa yetti xil temir qotishmasi, "haft jo'sh"dan yasalgan. Jome masjidining asosiy (mehrobli) binosi Amir Temur zamonasining me'moriy uslublari to'g'risida ma'lumot beradi. Masjid gumbazining doira asosli sirtiga muqaddas Qur'on oyatlari bitilgan bo'lib, gumbaz feruza koshinlar bilan pardozlangan. Masjid yonidagi ikki kichik bino mehrobli xonaning asosan kichik hajmdagi takrori bo'lsa-da, naqshlarining soddaligi va gumbazining kungiraligi bilan farq qiladi. Jome masjidining ichki qismini pardozlashda naqqoshlik bezaklari qatorida zarhal bo'rtma gulqog'ozdan foydalanilgan. Bibixonim jome masjidida keyingi davrda ta'mirlash, tiklash bobida tub o'zgarishlar amalga oshirildi va bu ishlar davom ettirilmoqda.

**Amir Temur maqbarasi.** Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etilgan Amir Temur maqbarasining qurilishi 1403 yilda boshlanib, 1424 yilda tugatilgan. Maqbara Amir Temurning taxt vorisi, deb e'lon qilingan nabirasi Muhammad Sulton uchun qurdirilgan. Muhammad Sulton 1403 yilda Kichik Osiyoga qilgan safari vaqtida, 29 yoshida bevaqt vafot etadi. SHahzoda Samarqandga keltirilib, dastlab masjidning xonaqosida dafn qilinadi. Maqbara

sakkiz burchakli gumbaz asosida barpo etilgan. Hozirgi zamon mutaxassislarini ham birmuncha o'ychanlik bilan fikrlashga undaydi. Binoning mo'tadil haroratini saqlash, SHarqona qurilish uslublari orqali el ardog'ida bo'lgan shaxslarni o'ziga xos hurmat bilan ulug'lash, ularning buyukligini bejirim bezaklar orqali ifodalash kabi xususiyatlari har qanday kishini lol qoldiradi. Sohibqiron Amir Temur ham ushbu maqbaradan (1405 yil) abadiy qo'nim topgan. 1409 yilda Amir Temurning kenja o'g'li, Xuroson hukmdori Shohrux Mirzo otasining ma'naviy piri Mirsaid Barakaning jasadini (turbati) Andxoydan olib keltirib, shu maqbaraga, Sohibqironning bosh tomoniga dafn ettiradi. Bu bilan otasi – Amir Temurning vasiyatini bajaradi. 1424 yilda Mirzo Ulug'bek tomonidan maqbara sahniga qabrtoshlar qo'yilib, atrofi nafis marmar toshdan qilingan panjara bilan o'raldi va ko'k gumbazli galeriya qurilib, ziyoratxonaga sharq tomondan kirilishi ta'minlandi. Maqbaraning ichki tomoni tilla suvi yugurtirilgan bo'rtma qog'oz naqshi bilan bezatilgan. Bezaklarda ishlatilgan kompozitsiyada Qur'oni Karim oyatlari islomiy, handasaviy naqshlar hamda arabiy xattotlik san'atining kaligrafik naqshlari bilan bitilgan. Maqbaraga, shuningdek, Mironshoh Mirzo va Shohrux Mirzo ham dafn etilib, temuriylar xilxonasiga aylangan. 1449 yilda Mirzo Ulug'bek ham shu maqbaraga, bobosining poyiga dafn etilgan. Mustaqillik yillarida, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi va Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan maqbarada katta hajmda ta'mirlash ishlari olib borildi. XIX asrning oxirida qulab tushgan minora va gumbazning zar qubbasi qayta tiklandi.

**Abu Mansur al-Moturudiy ziyoratgohi.** Kalom ilmida moturidiya oqimining asoschisi, Islom olamida Imom-ul-Hudo (Hidoyat imomi) deb tanilgan buyuk ilohiyot olimi, faqih, shayx Muhammad ibn Mahmud al-Xanafiy al-Moturudiy 870 yilda Samarqandning Moturid mavzesida tug'ilgan. Dastlab maktabda savod chiqarib, keyin madrasa ta'limini olgan. Imom al-Moturudiy Imom Ash'ariy, Rudakiy, Abul Hasan Balxiy, Farobiy kabi olimlar bilan bir zamonda yashab, imom Muhammad al-Buxoriyni o'zining ma'naviy ustozini, deb bilgan. Alisher Navoiy Imom al-Moturudiyning sha'nini ulug'lab, u kishiga "Buyuk

ulamolar sultoni” deya yuksak baho bergan.IX-X asrlarda Islom dinini noto’g’ri targ’ib va talqin qiluvchilar ko’payganligi sababli Imom al-Moturidiy o’zining asarlari bilan ularga qarshi kurashadi. Uning “Kitob al-Tavhid” asari alohida o’rin tutadi. Imom al-Moturidiy 944 yilda Samarqandda vafot etadi va shahardagi Chokardiza qabristoniga dafn etiladi.Yurtboshimiz rahnamoligida 2000 yilda allomaning 1130 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi, imom qabri ustida yangi maqbara barpo etildi.

**Mirzo Ulug’bek muzeyi majmuasi.** Rasadxona Mirzo Ulug’bek tomonidan 1429 yilda Samarqand yaqinidagi Ko’hak tepaligida qurilgan. silindr shaklidagi uch qavatli bino asosining diametri 60 metr bo’lgan. Markazidan janub-shimol yo’nalishida, radiusi 40 metrli qo’shaloq yoy shaklidagi kvadrant barpo etilgan. Kvadrant aylananing to’rtidan bir qismi bo’lib, 90 darajali yoyni anglatadi. Rasadxona kvadrantining ostki qismi qoyani kesib, 11 metrli chuqurlikka joylashtirilgan. Kvadrantning tepa qismi yer sathidan 31 metr, hozirgi o’lchov bilan 10 qavatli bino balandligicha ko’tarilgan.Rasadxonaga yuzma-yuz qilib, o’sha davrlardayoq dunyoni o’ziga qaratgan Registonning bir bo’lagini o’zida ifoda etgan muzeyning 2010 yilda bunyod etilgan binosi viqor to’kib turibdi.

Muzeyning kirish qismi O’zbekiston xalq rassomi A.Ikromjonov mo’yqalamiga mansub Mirzo Ulug’bekning portreti va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Mirzo Ulug’bek haqidagi so’zlari bilan boshlanadi. Muzey ekspozitsiyasida Sohibqiron Amir Temur davlatchiligiga oid xarita, yevropa davlatlarining qirollari tomonidan yozilgan xat nusxalari namoyish etilgan. O’z asrining buyuk astronomi Mirzo Ulug’bekning tug’ilishiga oid miniatyura nusxasi, Ulug’bek davri fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo’shgan ulug’ olimlar Jaloliddin Rumi, Ali Qushchi portretlari va o’sha davrda zarb qilingan tangalar ekspozitsiya mazmunini boyitgan. Rasadxona tarixi bilan bog’liq vaqf hujjati namunasi, me’morlar Nilsen, G.Pugachenkova, M.Bulatovlar tomonidan tayyorlangan rasadxona maketlari tomoshabinlar diqqatini tortadi. Mirzo Ulug’bekning XVII asrda jahonning buyuk astronomlari davrasida tasvirlangan linagravyura, buyuk olim qalamiga mansub “Zij” asari hamda kengliklar

darajalarini aniqlashda qo'llangan maketlar loyihasi, qiblanomalar ekspozitsiyadan o'rin olgan. 2009 yilning aprel oyida Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani kengliklari "Maydanak" fazoni kuzatish rasadxonasida yangi sayyora aniqlanib, jahonshumul voqelikka asos solindi. Ushbu sayyoraga muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov taklifi bilan "Samarqand" nomi berildi. Ekspozitsiyada ana shu kenglikda olingan "Samarqand" nomi bilan ataluvchi sayyora surati ham o'rin olgan.

Afrosiyob-Samarqand shahar tarixi muzeyi. Samarqand shahar tarixi muzeyi 1970 yilda tashkil etilgan. Muzey Afrosiyob shaharchasida – Samarqandning qadimiy, mo'g'illar istilosigacha bo'lgan qismida joylashgan. Muzey ekspozitsiya zallarida miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalaridan XIII asrning boshlarigacha bo'lgan shahar tarixini yorituvchi eksponatlar namoyish etilgan. Samarqand ikki ming yil davomida (So'g'd yoki So'g'diyonaning) markaziy shahri bo'lib, muzeyda namoyish etilayotgan eksponatlar Samarqandning yuqori darajadagi madaniy, siyosiy, diniy va ishlab chiqarishdagi hayotini yaqqol yoritadi. Muzeyda Samarqandning moddiy madaniyatini yorituvchi sopol, shisha, tosh, metal, suyak, korapilastika va me'moriy naqshlardan iborat boy to'plamlar saqlanadi. Bular qariyb 20 mingdan ortiq osori-atiqalarni tashkil qiladi. Bu eksponatlarning asosiy qismi muzeyning 11 ta zalidan iborat ekspozitsiyalarida namoyish etilib, qolgan yordamchi materiallar muzey fondlarida saqlanmoqda. Birinchi qavat ekspozitsiyasida Afrosiyob shaharchasining o'rganilish tarixi, So'g'dning miloddan avvalgi VIII-VII asrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha bo'lgan tarixiy davrini eksponatlar bilan yoritgan. Muzeyning markaziy zalida So'g'd hukmdori (Ixshidi) Varxuman saroyidagi "Elchilar xonasi"ning suratlari joylashgan. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi munosabati bilan muzeyning ikkinchi qavat ekspozitsiya zallari to'liq qayta ishga tushirildi. Afrosiyob qazishmalaridan topilgan osori-atiqalar asosida O'rta Osiyoda musulmon uyg'onish davri tarixi va madaniyati namoyish etilmoqda. Eksponatlar mavzusi Samarqandning IX-XIII asrlarga oid moddiy madaniyati tarixini yoritgan.



## **2.2. Buxoro viloyati turizm obektlari**

Buxoro – jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri. 1997 yilda shahar o'zining 2500 yillik yubileyini nishonladi. Buxoro nomi dastlab IX asrda tarixchi Narshaxiy tomonidan zikr etilgan. Bungacha shaharning boshqa bir necha nomlari bo'lgan. Ko'plab tarixchilar, tilshunoslarning fikriga ko'ra Buxoro so'zi sanskritcha “vixara” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “qal'a” degan ma'noni bildiradi. Arxeologik qazishmalar natijasiga asosan olimlar ushbu shahar eramizgacha bo'lgan davrda hududning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan degan xulosaga keldilar. Buxoro Xitoydan Rimgacha olib boruvchi Buyuk Ipak yo'lining eng muhim chorrahalaridan birida joylashgan. VIII asrda bu erda arab istilosi natijasida Islom dini joriy etilgan. Asta-sekin Buxoro eng muhim diniy markazga aylangan va tobora ko'proq “Buxoroi Sharif” deb atashgan.

Rivojlanish davrida shahar bir necha bor (forslar, arablar, mo'g'ullar tomonidan) vayron qilingan va tiklangan. Buxoroning o'ziga xos iqtisodiy va madaniy rivojlanishi Somoniylar va Shayboniylar boshqargan davrlarga to'g'ri keladi.

Buxoro o'zining boy nomoddiy meros obyektlari – ko'p asrlik osori-atiqalari, noyob me'moriy obidalari, hunarmandchiligi, dunyo ilm-faniga beqiyos hissa qo'shgan allomalari bilan mashhur. Bu yerda “Buxoro palas”, “Zargaron plaza”, “Sulton”, “Labi hovuz”, “Modarixon” singari yetmishdan ortiq mehmonxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu yerdagi yigirmadan ziyod sayyohlik firmalari orasida xorijdagi turdosh tuzilmalar bilan sayyohlar almashish bo'yicha hamkorlik qilayotgan, ayni paytda o'z mehmonxona va transportiga ega xususiy tashkilotlar ko'payib borayotir. Viloyatda sayyohlik tarmog'ining rivoji boshqa ijtimoiy masalalar yechimiga ham xizmat qilayotganini ta'kidlash joiz. Hozirgi paytda turizm korxonalarida to'rt yuzdan ziyod kishi mehnat qilmoqda. Buxoroga kelayotgan mehmonlarning bu yerdagi me'moriy obidalar, xalqimiz milliy hunarmandchiligiga oid osori-atiqalar, zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik maktablari faoliyati bilan yaqindan tanishishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Sayyohlarga xizmat ko'rsatish dasturi rang-barang bo'lib, unda madaniy hordiq alohida o'rin olgan. Nodir Devonbegi madrasasida xorijliklar viloyat madaniyat va

sport ishlari boshqarmasi hamkorligida tashkil etilayotgan folklor dastasi chiqishlaridan bahramand bo‘ladi, milliy kiyim-kechaklarimiz kolleksiyalaridan zavq oladi. “G‘ulomjon” karvonsaroyida milliy urf-odat va marosimlarimiz ifodasini topgan teatrlashtirilgan tomoshalar qo‘yilmoqda. Bir necha yildirki, Buxoroda “Ipak va ziravorlar” festivali o‘tkazilmoqda. An‘ana va usullari tiklangan hunarmandchiligimiz rivoji taqdimotiga aylangan, soha xodimlarining o‘zaro tajriba almashishiga xizmat qiladigan bu tadbir turizmni ravnaq toptirish, xorijiy sayyohlarni yurtimizga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Turizmni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish borasida amalga oshirilayotgan ishlar samarasida viloyatga kelayotgan sayyohlar soni tobora oshib bormoqda. 1995-yilda Buxoroga 10 ming xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2013-yilda bu ko‘rsatkich 115 mingdan oshgani fikrimizni tasdiqlaydi.

Hozirgi Buxoro (qariyb 300 ming aholi) O‘zbekistonning boshqa shaharlari singari eski va yangi shaharga bo‘lingan. Lekin bizning shahrimiz shak-shubhasiz ustunlikka ega. Agar boshqa joylarda eski shahar qismida faqat tarixiy yodgorliklar bo‘lib, hech bir aholi yashamagani uchun ochiq osmon ostidagi muzey sifatida qabul qilinsa, Buxoroda odamlar ming yillar ilgarigidek yashamoqdalar. Bu har bir kishiga shaharning boy tarixini tasavvur qilish imkonini beradi. Shaharning yangi qismida ma`muriy binolar, maktablar, institutlar va sanoat korxonolari joylashgan. Siz 2500 yillik Buxoroning tor ko`chalarida kezishingiz va ko`k gumbazli hashamatli binolar hamda kichik loysuvoq uylardan zavq olishingiz mumkin.

X asrda qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasi Buxorodagi eng qadimiy va chiroyli yodgorliklardan biridir. U hozirgi paytda ham xuddi 1000 yil ilgarigidek chiroyli ko`rinishga ega. Somoniylar asli fors bo‘lgan birinchi tojik hukmdorlaridir (eramizning 875-999 yillari). Ular poytaxti Buxoro bo‘lgan buyuk davlatni barpo etishgan. O`sha davr qurilish, san`at turlari, matematika, geometriya, fizika singari aniq fanlarning yuksak darajada rivojlanishi bilan xarakterlanadi.



### **Ismoil Somoniy maqbarasi**

Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi Buxoro shahri hududida aniq hisob-kitoblarga asosan qurilgan dastlabki bino edi. Butun ilm ahli bu hisob-kitoblar qanchalik o`ta mantiqiy va shu bilan birga chiroyli chiqqaniga hali ham ajablanadi. Tikka, ko`ndalang, to`g`i burchak ostida terilgan pishiq g`ishtlar quyoshning turli darajadagi nurlari bilan yoritilgan. Maqbara devorlari naqshinkor quti yoki ba`zan majnuntol xivichlaridan to`kilgan savatga o`xshab ketadi. Buxoroga safar qilsangiz siz albatta bu yodgorlikni borib ko`rishingiz lozim. Buxoro ahlining ishonchi komil, agar siz maqbarani ko`rmagan bo`lsangiz - siz Buxoroni ko`rmabsiz.



### **Ark qal`asi**

Ark qal`asi yuz yillar davomida Buxoro hukmdorlarining rasmiy yashash joyi bo`lgan. U balandligi 16-20 metr bo`lgan sun`iy tepalikda qurilgan. Qal`a maydoni qariyb 4 gektar. Odamlar ko`pincha uni “shahar ichida shahar” deb atashgan, chunki unda odatdagi shaharning hamma narsalari, ko`chalar, tor ko`chalar, saroy, masjidlar, ustaxonalar bor bo`lgan. Qal`a bir necha bor vayron qilingan, ta`mirlangan va tiklangan. Afsuski, hozirgi paytga kelib, o`tmishdagi hashamatli Arkdan ozginasi qolgan. Ko`plab binolar 1920 yilgi istibdod voqealari davrida buzilib ketgan. Arkda joylashgan o`lkashunoslik muzeyida siz shahar tarixi, miliy urf-odatlar va an`analar to`g`risida ko`p qiziqarli narsalarni eshitasiz. Bundan tashqari qal`aning baland devorlari ustidan turib siz Buxoroning chiroyli qiyofasini tomosha qilishingiz mumkin.

Poi Kalon me`moriy majmui – barcha mehmonlar e`tiborini jalb qiladigan joy. Mo`g`ul davridan ancha ilgari, XII asrda barpo etilgan Kalon Minorasini deyarli hamma joydan ko`rish mumkin. XVI asrda uning yonida Masjidi Kalon va ro`baro`sida – Miri Arab madrasasi qurilgan. Musulmon bayramlarida minora tepasidan muazzinning solih musulmonlarni namozga chorlovchi ovozini eshitish mumkin edi. Qadim zamonlarda kechasi minora tepasida yoqilgan olovni uzoq-uzoqlardan ko`rish mumkin bo`lgan. Hozir, xuddi ilgari paytdagidek, minora eski shahar tepasida turibdi. Minora o`zining uygun shakllari va aniq chiziqlari bilan uzoqdan sizning e`tiboringizni tortadi. Agar siz minorani ko`rish sharafiga muyassar bo`lsangiz, uning aniq proporsiyalari va chiroyli terilgan g`ishtiga maftun bo`lasiz.



### **Masjidi Kalon**

Masjidi Kalon – Samarqand shahridagi Bibixonim masjididan keyin O`rta Osiyodagi ikkinchi eng katta masjid. Musulmon bayramida masjidga 10 ming kishi sig`ishi mumkinligi o`z isbotini topgan. Masjidning usti ochiq yirik hovlisi, uning ajoyib peshtoqlari va usti yopiq ayvonlari unutilmas taassurot qoldiradi. Masjidi Kalon ro`parasida joylashgan Miri Arab madrasasi proporsiyasi va simmetriyasi tufayli o`zidan keyin qurilgan masjidlar uchun hamisha namuna vazifasini o`tagan. Bo`lg`usi imomlar ta`lim olgan Miri Arab madrasasi ko`p yillar davomida sobiq sho`rolar ittifoqi davrida amal qilgan yagona madrasa bo`lgan.



### **Labi Xovuz**

Buxoroning markazi (16-17 asrlar). Labi Xovuz – Buxoro ahli va mehmonlarining sevimli joyi. Siz bu joyda eski qadrdonlarni uchratishingiz va

yangi do`stlar orttirishingiz, o`tmishni esga olishingiz va kelajak haqida fikr yuritishingiz mumkin. Maydon o`rtasida katta hovuz bo`lib, uning atrofida turli binolar barpo etilgan: Ko`kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqosi. Bu yerda eng eski bino - Ko`kaldosh madrasasi. XVI asrda Ko`kaldosh ismli vazir Buxoroda O`rta Osiyodagi eng katta madrasani qurish haqida buyruq bergan. Nodir Devonbegi madrasasi joylashgan hududda karvon saroy qurish ishlari boshlangan. Keyinchalik Nodir Devonbegining rejalari o`zgargan va karvon saroy madrasaga aylantirilgan. Bu salbiy oqibatlariga olib kelgan: bu yerda talabalar uchun masjid ham, ma`ruza zali ham bo`lmagan – ular ko`zda tutilmagan. Lekin bu bino sirlangan sopol va chinni koshinlar bilan chiroyli bezatilgan. Buxoroda siz faqatgina shu madrasaning peshtoqida afsonaviy Semurg` qushi va inson yuzi aks etgan quyosh tasvirlarini ko`rishingiz mumkin. Yilning issiq faslida madrasa ichki hovlisida siz folklor tomoshasidan zavqlanishingiz mumkin. Tim qora tungi osmon, xazin va quvnoq maftunkor kuy. Siz “Ming bir kecha”ni boshqacha tasavvur eta olarmidingiz? Hovuzning boshqa tomonida darvishlar uchun kichik mehmonxona - Nodir Devonbegi Xonaqosi joylashgan. Markaziy Osiyo mintaqasida Buxoro islom markazi bo`lgan. Bu yerga ko`plab ziyoratchilar kelishgan, ular tunda qoladigan qo`noqqa muhtoj bo`lganlar. Shu boisdan shaharda ko`plab kichik mehmonxonalar va karvon saroylar mavjud bo`lgan. Ehtimol, bu xonaqo dindorlar o`rtasida mashhur bo`lgan, chunki unda nafaqat uxlash uchun xonalar, balki namoz o`qish uchun katta masjid ham bo`lgan. Yuksak did bilan bezalgan eshik hovuz suvida aks etadi. Labi hovuzga keling. Bu yerdagi choyxonada bir piyola ko`k choy iching. Bu yerda siz shahar jamolini, uning aholisi mehmondo`stligini va milliy xarakteri xususiyatlarini boshqa joydagidan ko`ra ko`proq his qilasisiz.

Shahardan taxminan 4 km. tashqarida Buxoro so`nggi amirlarining yozgi saroyi joylashgan. Saroy “Sitorai Moxi xosa” – Oy va yulduzlar o`rtasidagi joy deb, shoirona nomlangan. Saroyning me`moriy jihatdan tuzilishi faqat shu bois ham qiziqarliki, u XIX asr oxiri va XX asr boshidagi boylarning didini namoyish qiladi. Binolarning asosiy qismi turlicha qarashlarning aralash uslubida qurilgan.

Taxt o`rnatilgan xona istisno tariqasida milliy urf-odatlariga to`la mos ravishda bezatilgan. Undagi ajoyib nozik “ganch” o`ymakorligi sizning xotirangizda muhrlanib qoladi. Hozir bu yerda xalq amaliy san`ati muzeyi joylashgan bo`lib, unda siz ipak bilan tikilgan chiroyli so`zani, sopol buyumlar, ayollarning an`anaviy zargarlik taqinchoqlari, milliy kiyimlar va boshqalarni tomosh? qilishingiz mumkin. Buxoroda boshqa ko`plab yodgorliklar mavjud, ularni sanab adog`iga yetib bo`lmaydi.

Uch ming yildan ziyod tarixga ega Buxoro jahon tamadduniga beqiyos hissa qo`shgan shaharlardan biri. Qadimdan ilmu ma`rifat, madaniyat maskani bo`lgan bu go`sha ta`rifi butun olamga yoyilgan.



### **Ko`hna va boqiy Buxoro**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Yurtboshimiz rahnamoligida milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, madaniy merosni, ayniqsa tarixiy-memoriy obidalarni asrash, ularni kelgusi nasllarga yetkazish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Masjidi Kalon, Chorbakr, Ark qal`asi kabi qator asori atiqalar ta`mirlanib, asl qiyofasiga keltirildi. Bevosita Prezident I.Karimov tashabbuslari bilan tasavvuf namoyandalari, Naqshbandiya tariqati asoschilari Abdulxoliq G`ijduvoni, Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari obod etildi.

Ayniqsa, Buxoro madaniy markazi bunyodkorlik ishlari doirasida alohida o`rin egallaydi. Prezidentimiz tashabbusi va g`oyasi asosida barpo etilgan 107 gektardan iborat madaniy markaz yirik inshootlar – 700 o`rinli viloyat musiqali

drama teatri, 2000 tomoshabinga mo`ljallangan amfiteatr, ular o`rtasida esa “Ko`hna va boqiy Buxoro” monumentidan iborat. Madaniy markaz turli burchaklaridan boshlangan yo`laklar balandligi 18 metrli “Ko`hna va boqiy Buxoro” monumentiga kelib tutashadi. Monumentni taniqli haykaltarosh, O`zbekiston san`at arbobi Ilhom Jabborov ishlagan. Obida zinapoyalari orqali ko`tarilganda, diqqatingizni monument tevaragida zarhal koshinlar tortadi. Unda Buxoroning tuprog`i oltinga teng, degan ma`no mujassam. Chunki Buxoro azaldan oltin makoni bo`lgan. Asl va toza oltin konlari, yombilar shu yerdan topilgan. Ayni chog`da monumentda nafaqat Buxoroning oltin zamini oldida, balki Buxoroni sharif shaharga aylantirgan uning fidoyi, mehnatkash odamlari oldida bosh egish kerak degan g`oya ifoda etilgan. Bu zamin kishilari ezgu ishlari bilan tilga tushganlar. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino, tarixchi olim Narshaxiy, islom dini ravnaqi va madaniyatiga beqiyos hissa qo`shgan Imom Buxoriy, tariqat allomalari Abdulxoliq G`ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xoja Orif Regariy, Xoja Mahmud Anjir Fag`naviy kabilar, shuningdek, millatimiz adabiyoti, madaniyati taraqqiyotida munosib iz qoldirgan Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo`jayev, xalqimizning boshqa asl farzandlari yetishib chiqqan. Ularning nomlari obidada zarhal harflarda naqshlangan. Bu bitiklar yuqorisida “Ilm o`rganmoq har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir” degan hadis o`zbek, arab va ingliz tillarida yozilgan. Ajdodlarimiz va ularning bugungi vorislari bu da`vatni hayot mazmuniga aylantirishgan. Buxoroning dunyoda ilm-ma`rifat maskani sifatida shuhrat qozongani bejiz emas.

Xuddi shu yerda Buxoroning ko`hnaligidan darak berguvchi me`moriy yodgorliklari –Mag`oki Attor, Ismoil Somoniy, Chorbakr, Minorai Kalon, Ark qal`asi, Labihovuz, Chorminor, Bahouddin Naqshband maqbarasi boshqa qator obidalari tasviri toshda muhrlangan. “Dil ba yoru, dast ba kor”—ulug` pir Bahouddin Naqshbandning monumentga bitilgan bu hikmati donishmand ajdodlarimizning qoldirgan ulkan ma`naviy merosning o`ziga xos namunasi sifatida ko`zga tashlanish barobarida bugungi avlodni mazkur da`vatga amal qilishga chaqiradi.



Eskizlari bevosita Prezidentimiz g`oyalari asosida tayyorlangan monument markazida uch avlod—baxtiyor yosh oila—ota, ona va bola, nihol o` tqazayotgan bobo va nabira hamda uy qurayotgan ota va o`g`ilning barefli haykallari aks ettirilgan. Bunda chuqur falsafa bor: hayot adabiy, umr o`tkinchi, insonning ezgu amallari mangu qoladi, bu dunyoda inson ezgu ishlar qilmog`i, farzandlari kelajagini, el-yurtining ertasini o`ylamog`i kerak. Obida tepasiga o`rnatilgan balandligi 5 metr, vazni 32 tonnadan iborat, aylanib turuvchi ulkan Yer shari uzoq-uzoqlardan ko`zga tashlanadi. Unda O`zbekistonimiz xaritasi tasvirlangan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, dunyo bilan yuzlashdi, jahon hamjamiyatida o`z o`rnini egalladi, degan teran ma`no ifodalangan. Ushbu obida milliy ma`naviyatimizning monumental ifodasidir. Istiqlolning dastlabki yillarida respublikamizda qator teatrlar rekonstruktsiya qilinib, ijodiy jamoalar ixtiyoriga topshirilgan edi. Buxoro davlat musiqali drama teatrining madaniy markazdagi muhtasham binosi so`nggi chorak asrda mamlakatimizda poydevordan qurilgan yagona teatrdir. San`atkorlar va tomoshabinlarning bir necha avlodi armonlari ro`yobga chiqib, barpo etilgan bu teatr o`zining ko`rkamligi, zamonaviy sahna imkoniyatlari va yoritkichlari bilan jihozlangani, unda yaratilgan qulay shart-sharoitlari bilan Markaziy Osiyodagi eng go`zal san`at maskanidir. “Ko`hna va boqiy Buxoro” monumenti, viloyat teatrining yangi binosi hamda zamonaviy loyiha asosida barpo qilingan amfiteatrni o`z ichiga olgan, gulzor va xiyobonlardan iborat madaniy markaz ham ular qatoridan o`rin olgan.

### **2.3. Navoiy viloyati turizm obektlari**

Viloyatning geografik o`rni uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga ega. Viloyat hududidan qadimda Buyuk Ipak yo`lining o`tganligi ham uning geografik o`rni bilan bevosita bog`liqdir. Bundan tashqari viloyat hududi ko`lamining kattaligi davlatlararo yo`l va aloqalar tugunida joylashganligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojiga ko`mak beradigan omillardan sanaladi. Shuningdek, Navoiy viloyatining erkin iqtisodiy industrial zonaga aylantirilishi ham fikrimiz isbotidir. Navoiy viloyatidagi turistik

resurslari salohiyatini baxolashning o'ziga xos tomonlarini baxolash uchun resurslarni tabiiy va antropogen resurslar bo'lib o'rganamiz.

Dastlab barcha turistik resurslarda e'tiborga olinadigan tabiiy xususiyatlarni ko'rib chiqamiz. Viloyatda 3 ta yirik suv havzasi mavjud. Shundan Aydarko'l suv havzasi eng katta hisoblanib, umumiy maydoni 145 ming gektarga yetadi. Ushbu suv havzasi 41,5 mlrd metr kub sig'imga ega. To'dako'l suv havzasi 21ming gektar maydonni egallab, 1,75 mlrd metr kub suv sig'imiga ega. Sho'rko'l suv havzasi 2516 gektar maydonni egallab, suv sig'imi 0,22 mlrd metr kubni tashkil etadi. Undan tashqari viloyatning Qiziltepa tumani hududida Quymazor suv ombori mavjud bo'lib, uning maydoni 650 gektarni tashkil etadi. Ushbu suv ombori suv sig'imi 0,83 mlrd metr kub ni tashkil etib, asosan Buxoro viloyati aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlaydi. Navoiy viloyatining olamshumul turistik ob'ektlaridan biri bu Sarmishsoy hududidir. Bu yerni ochiq osmon ostidagi beqiyos muzeyga tenglashadi.

***Nurota chashmasi yodgorliklari.*** Nurota me'moriy obidalari ulug' ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan millotdan avvalgi me'morozlik bilimlari va amaliyotining qadimiy boy va noyob namunalaridan hisoblanadi. X asrlardayoq bu yerda jome masjidi, ko'plab rabotlar va muqaddas ziyoratgohlar mavjud bo'lgan. Akademiklar Yahyo G'ulomov va Ahmadali Asqarovlarning yozishlaricha "Chashma" sohilidagi madaniy qatlam yoshi 40 ming yilga teng.



**Nurota chashmasi**

Hududda hozirga qadar saqlanib qolgan qadimiy binolardan biri panjvaqt masjid-xonaqosidir. U XVI asrda tiklangan bo'lib, keyin bir necha bor kengaytirilgan. Uning ikki tomonida XIX asrning o'rtalarida masjidga taqab qurilgan ayvonlar joylashgan. Ikkinchi bino 16 ta ustun asosiga qurilgan bo'lsa ham aholi tomonidan "Chilustun" ya'ni "Qirq ustun", deb ataydigan jome masjididir. Bino tomi 25 ta kichik gumbaz bilan qoplangan. Masjid XVI asrda qurilgan, lekin uning eski qismidagi tosh poydevor saqlanib qolgan. Peshtoqidagi yozuvning guvohlik berishicha 1321/1903-1904 yillarda masjidda tubdan ta'mirlash ishlari o'tkazilgan. Nurota shahridagi "Chashma" me'moriy majmuasini sayyohlik markaziga aylantirish va mazkur qadamjoga tashrif buyuruvchi sayyohlarga servis xizmati ko'rsatilishini takomillashtirish bo'yicha ham diqqatga sazavor ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda kompleksda joylashgan "Chilustun", "Ko'k gumbaz" va "Domalla" tarixiy masjidleri, ziyoratgoh hovlisi zamonaviy talablar asosida ta'mirlanib, obodonlashtirilgan. Avtoturargoh ajratilgan. Majmua ichkarisida Nurota tarixiga oid O'lkashunoslik muzeyi qaytadan ta'mirlanib, zarur eksponentlar bilan qo'shimcha jihozlangan.

Nurota tumanidagi qadimiy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazma-savdo muzeyini tashkil etish borasida joy ajratilib, qurilish ishlari davom ettirilmoqda. Kompleksga kiraverishda o'ng tomonda hunarmandchilik mahsulotlari va yengil oziq-ovqatlar savdo rastalari tashkil etilgan.

Kompleksga kiraverishdagi maydonda qadimiy xalq og'zaki ijodi va folklor ashula va raqs tomoshalari namoyish etilish maqsadida 2012 yil mart-noyabr oylarida "Nurjahon" folklor dastasining tomoshalari grafigi ishlab chiqildi. Shuningdek, kompleksda xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida mazkur kompleksda viloyat "Sayohat va ekskursiyalar byurosi" ning hududiy markazini ochish masalasida ishlar boshlandi. Mazkur majmuaga sayyohlarga sifatli ovqatlanish xizmati ko'rsatilishini tashkil etish borasida tumanda milliy usulda jihozlangan 2 ta hovli belgilanib, xorijiy sayyohlarni sifatli ovqatlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi.


Nurota chashmasi suvining tarkibi, aholi etnografiyasi va hayot tarzi, foydali qazilmalari va arxeologiyasi bilan qiziqqan olimlar tomonidan 1912 yilda ilmiy – tadqiqot ishlari o'tkazilib, tahlil qilingan. Chashma suvida asosan shirmohi baliqlari yashashi ham suvning o'ta tozaligidan dalolatdir. O'z davrining taniqli olimlari tomonidan Chashma suvi tarkibida 8 ta elementning mavjudligi aniqlagan. Bular xlor, sulfat, kaliy, kaltsiy, magniy, kremniy, karbonat va natriylardir. 2011 yilda ushbu ilmiy – tadqiqot ishlari qayta davom ettirilib, 1 litr suv tarkibida 21 ta mikroelement borligi isbotlangan. Hozirgi kunda xalqimizning azaliy an'analaridan keng foydalanib, hashar yo'li bilan ko'hna Nurota yodgorliklari hududi zamonaviy arxitektura va shaharsozlik tajribalari asosida tubdan qayta qurildi. Natijada ko'hna obidalar asl holida qaytadan bunyod etildi. Chashma ariqlari, sohil bo'yidagi bog'lar, yo'laklar va favvoralar qadimiy va zamonaviy uyg'unlik ko'rinishlarini o'zida aks ettirilishi bilan birgalikda yangicha navqironlik chiroyi bilan minglab ziyoratchi va sayyohlaning sevimli maskanlaridan biriga aylanib ulgurdi.

***Qosim shayx azizon honaqohi (XVI asr).*** XVI asrda Karmana bekligi ma'naviy hayotida o'chmas iz qoldirgan Qosim Shayx Azizonning hayoti va faoliyati ezgu va xayrli ishlarga qaratilgan edi. Buxoro hukmdori Abdullaxon II hazrat Qosim Shayxga bo'lgan ixlosi yuzasidan 1558 yilda Karmanada xonaqoh barpo ettirgan. Ushbu bunyodkorlik ishlarida Qosim Shayxning o'zlari ham qatnashgan va homiylik ko'rsatgan. Xonaqoh taxminan o'n yil davomida qurilgan. Uning uch (shimol, janub va g'arb) tomoni kungurador qilib qurilgan va bezatilgan

Xonaqohning eni va bo'yi 25 metr o'lchamda bo'lib, ichida jami 6 ta xona, o'rtada katta markaziy xona, qibla tarafda mehrob o'rnatilgan. Xonaqohning 4 burchagida taxminan 6x6 metr o'lchamdagi hujralar, sharq tomonida esa, 6x4 metr o'lchamdagi chillaxonaga qurilgan. Har bir xonaning tepa qismi gumbaz shaklida bo'lib, binoning ichi ganchkorlik asosida naqsh bilan bezatilgan, o'rtada yerdan balandligi 12 metr bo'lgan katta gumbaz va to'rt tomonida balandligi 8 metr bo'lgan gumbazlar mavjud. Xonaqoh devorining qalinligi 80 santimetr. Binoning tashqi ko'rinishidagi baland minora ustiga qurilgan gumbaz ajralib turadi. Minora

bino tomidan taxminan 9 metr ko'tarilgan bo'lib, ichki va tashqi gumbazlar oralig`ida bo'shliq joy qoldirilgan. Bu bo'shliq havo yo'llari bo'lib, issiq va sovuq vaqtlarda bir xil mo'tadil haroratni saqlash uchun qiladi. Gumbaz tashqi tomonining tepa qismi moviy koshinlar bilan qoplangan. Undan pastda niliy rang bilan Kufiy usulida Qur'on oyatlaridan namunalar yozilgan. Xonaqohning sharqiy tomonida Qosim Shayx sag'anasi bor. Sag'ana marmar va Abdullaxon g'ishti bilan tiklangan, ayrim joylarda Qur'oni Karim oyatlari bitilgan. 1910-1911 yillarda Buxoro amiri Amir Abdulahadxonning vafotidan so'ng uning og'li Sayid Olimxon qabrini Qosim Shayx dahmasi yoniga unga monand qilib qurdirgan. Ikkinchi honaqoh Qosim Shayx honaqohidan 300 yil keyinroq qurilgan bo'lsada yaxlit bir-biriga monand ulkan bir yodgorlik majmuasi tashkil qilingan.

2001 yilda ushbu majmua to'la ta'mirlandi va bugungi kunda Navoiy viloyatidagi eng tarixiy va obod madaniy meros ob'ektlaridan biri sifatida qadrlanib, avaylab asralmoqda va foydalanilmoqda.



**Raboti malik karvonsaroyi (XI asr)**

Raboti Malik karvonsaroyi Karmana-Buxoro yo'li bo'yi oralig`ida, XI asrning 70 yillarida qoraxoniylardan biri Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim tomonidan qurilgan bo'lib, XII asrning birinchi choragida Arslonxon Muhammad

ibn Sulaymon (1102-1130 y.) tomonidan qayta ta'mirlangan. Raboti Malik 90x90 metr o'lchamdagi keng chorsi hovli, to'rtala tomoni pishiq g'ishtdan baland qilib qurilgan ikki qavatli mehmonxonalardan iborat bo'lgan. Kirish darvozasining ikkala tomonida xonalar mavjud bo'lib, bular karvonsaroy xo'jayini va qorovullariga tegishli bo'lgan. Karvonsaroy ichida maishiy sohalarga doir xizmatlar faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, mehmonxona, oshxona, sartaroshxona, omborxona, masjid, tosh hammom va boshqalar. Karvonsaroyga suv Sardobadan sopol quvurlar orqali keltirilgan. Sardoba va Karvonsaroy orasi 50 metrni tashkil etadi. 1999-2000 yillarda karvonsaroyning poydevori konservatsiyalandi. Uning poydevori 1 metr balandlikda pishiq g'ishtdan qaytadan terildi, kirish darvozasi peshtoqlari va devorlari ta'mirlandi, old devorlarining asl holini ko'rsatish uchun 3,5 metr balandlikda qaytadan tiklandi.

***Raboti malik sardobasi (XI asr)*** Raboti Malik karvonsaroyidan 120 metr oraliqda janubiy-g'arb tomonda ichimlik suv manbai bo'lgan sardoba joylashgan.



**Raboti malik sardobasi (XI asr)**

Uning – diametri 13 metrli, gumbaz ostidagi karvonsaroyga zamondosh bo'lgan Sardoba qurilgan. Sardoba hovuzining aylana devori yerdan 12 metr chuqurlikka qadar pishiq g'ishtdan qurilgan, unda muzday toza suv butun yoz bo'yi saqlangan.

XVI asrdagi mualliflardan biri Raboti Malik sardobasining suvini Makkadagi laziz Zam-zam suviga qiyoslaydi. Sardoba karvonsaroy kabi yolg'iz yo'lovchilar uchun ham butun boshli karvonlar uchun ham qo'nalg'a hisoblangan. Karvonsaroy o'zining dastlabki vazifasi bilan XVIII asrgacha xizmat qilib kelgan. Unda Amir Temur va uning avlodlari, Buxoroda hukmronlik qilgan sulolalarning xonlari, elchilar, savdo karvonlari va sayyohlar qo'nib o'tgan. Hofizi Abro'ning ma'lumotiga ko'ra, Ulug'bek 1420 yilda ushbu mintaqalarda to'xtab 40 kun ov qilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu yerda Rabot nomi bilan ma'lum qishloq ham shakllangan. 2004 yilda Sardoba qayta ta'mirlanib, atrofi devor bilan o'raldi. Turizm sohasida Raboti Malik karvonsaroyi va sardobasi dunyo sayyohlarining e'tiborini tortmoqda.

*Deggaron me'moriy yodgorligi (XI asr)* Karmana shahridan 30 km g'arbdagi Xazora qishlog'ida joylashgan yodgorlik Movarounnahrdagi eng qadimgi masjidlardan biridir. Uning qurilish davri XI asr boshlariga tegishli bo'lib, murakkab va noyob loyiha asosida bunyod etilganligi bilan qimmatlidir.

Ushbu yodgorlikdan azaldan masjid sifatida foydalanib kelinmoqda. Masjidning va qishloqning nomi qadimda shu yerda yashagan aholining asosiy mashg'uloti o'tga chidamli qozon tayyorlashidan olingan. Masjid kvadrat shaklda 17x17 metr o'lchamdagi binodan iborat bo'lib, pastdan balandgacha qalinligi 1 metr bo'lgan 15 paxsa urilib, har paxsaning orasiga bir qator pishiq g'isht terilgan. Binoning ichki qismida kubsimon, o'rta qismida diametri 1,28 metr keladigan 4ta pishiq g'ishtin ustun bo'lib, ularning orasiga katta ravoqlar, tepasiga ikkitadan kichik ravoq joylashtirilgan.

Gumbaz ushbu ustunlar ustidan chiqarilgan va 12 burchak bezak hosil qiladigan ravoqlar ustiga ko'tarilgan. Binoning shimoliy, janubiy va g'arbiy tomonlarida xushbichim g'ishtin sharafalar mavjud. Masjidning kunchiqar tomonidagi eni 3,14 metr, uzunligi 17 metr bo'lgan uch eshikli kirish qismi keyinchalik pishiq g'ishtdan qurilganligi ko'rinib turibdi. O'ng tomonidagi ikkita sharafa qolgan tomonlarga o'rnatilgan 6 ta sharafalardan farq qilib devor ustidan ko'tarilgan. 3 tomonidagi 6 ta sharafaning hech narsaga tegmay tepadan pastga osilib turishi holatida qurilganligi bir mo'jizaga o'xshaydi. Kirish qismining me'morchilik uslubi XIV asrga xos bo'lib, bu yerdagi g'ishtlar Raboti Malik va Sardoba XIV asrda qayta ta'mirlanganda ishlatilgan g'ishtlar bilan bir xildir ya'ni shu davrda



### **Deggaron me'moray obidasi**

Deggaron me'moray obidasida ham qurilish ta'mirlash bajarilganligidan darak beradi. Movarounnahrda yagona bo'lgan ushbu obida 2006 yilda qayta ta'mirlanib, hozirgi kunda bu yodgorlik majmuasi butun musulmon olamiga mashhur ziyoratgohga aylantirilgan. Shuningdek, majmua hududida keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari bajarilib, Mavlono Orif Deggaroniy tarixiy muzeyi tashkil etildi.

*Mirsaid Bahrom maqbarasi (XI asr)* Mir Said Bahrom haqida Abu Tohirxo'ja Samarqandiyning "Samariya" asarida yozilgan ma'lumotlarga ko'ra u zukko, bilimli, karomatli shaxs sifatida mahalliy xalqning katta hurmat e'tiboriga



sazovor bo'lgan zot edi. Mirsaid Bahrom vafotidan keyin uning dahmasi ustiga maqbara bunyod etilgan. Maqbara X-XI asrlarga xos bo'lib, Respublika muhofazasiga olingan noyob yodgorliklar sirasiga kiradi. Maqbara bir gumbazli, 6x5,5 metr o'lchamda to'rtburchak shaklida qurilgan. Yodgorlik bir necha bor ta'mirlanib dastlabki ko'rinishini yo'qotgan. Uning bosh fasadi 6x6 metr kvadrat shaklida bo'lib, juda ustalik bilan bezatilgan, g'ishtni turli usulda terilib, har xil geometrik shakldagi naqsh bezaklari, timsollar va Kufiy usulidagi bitiklar bilan boyitilgan. Maqbaraning janubiy tomonida 1,1x2 metr o'lchamda darcha o'rnatilgan. Uning tepa qismida yarim oy shaklidagi kungurador, panjarali tuynuk ochilgan.

Maqbara eshigining o'ng tomonida Mirsaid Bahrom sag'anasi o'rnatilgan bo'lib, uning eni bir metr bo'yi 2,5 metr, balandligi 70 santimetrdan iborat. Sag'ananing yon tomonlariga arabiy yozuvda oyatlar bitilgan. Maqbaraning 4 burchagida ustki qismi ganchkorlik usulida bezatilgan 4 ta botiq ravoq ishlangan bo'lib, 4 tomonida ham yoyiq ravoqlar bor. Ravoqlarning eni bir metr va balandligi 3 metr. Maqbaraning ustki qismida 8 burchakli poygumbaz bo'lib, uning ustiga pishiq g'ishtdan gumbaz ko'tarilgan.

Hozirgi davrda bu tarixiy majmua atrofida Karmana tumanining madaniyat va istirohat bog'i barpo etilgan va Karmana aholisining an'anaviy Navro'z va hosil bayramlari ayni shu ko'rkam va so'lim istirohat bog'ida o'tkazilishi an'anaga aylanib bormoqda.

Respublikamizdagi noyob madaniy meros obyektlaridan biri sifatida Mirsaid Bahrom maqbarasi Buyuk ipak yo'li bo'yidagi transchegaraviy madaniyat yodgorliklari nominatsiyasi bo'yicha YUNESKONing ro'yxatiga kiritilishi uchun me'yoriy hujjatlari taqdim etilgan.

Yodgorlik hozirgi kunda to'la qayta ta'mirlanib asl holidagi ko'rinishini kasb etgan. Shuningdek, maqbaraning sharqiy tomonida qadimda bunyod etilgan bo'lib, keyinchalik buzilib ketgan masjid qayta tiklangan va hozirda ziyoratgoh sifatida foydalanilmoqda.

***Oqmasjid yodgorligi (XIV asr)*** Oqmasjid tarixiy-me'moriy yodgorligi Xatirchi tumanining Bog'chakalon qishlog'ida 1360-1390 yillarda Hazrat Said ota tomonidan bunyod etilgan. Oqmasjid o'z davrida o'ta mohirlik bilan qurilgan bo'lib, usti gumbaz, yon tomonlari esa o'ymakor ustunli ayvonlardan iborat bo'lgan. Sohibqiron Amir Temur zamonida ilm-ma'rifat yuksak darajada rivoj topganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Ayni o'sha davrlarda Bog'chakalonda ham ko'plab masjid va madrasalar bunyod etilgan. XIX asrgacha bu hududda yettita masjid bo'lgan. Ularda savod chiqargan yoshlar tahsilni davom ettirish uchun Buxoro madrasalariga yuborilgan. Ammo, sho'rolar davriga kelib, hududdagi bu obidalarning boshiga ham og'ir kunlar tusha boshladi: asrlar davomida savlat to'kib turgan yettita masjidning oltitasi buzib tashlangan. Faqatgina "Oqmasjid" me'moriy yodgorligi saqlanib qolingan. Buyuk ipak yo'li bo'yida joylashgan ushbu jannatmonand maskanga qadimda ham olis o'lkalardan savdogarlar-u sayyohlar tez-tez kelib turishgan. Yodgorlik bunyodkori Hazrat Said ota asli Xorazmlik bo'lib, 14 yoshida tahsil olish uchun Buxoroyi Sharifga kelgan va 20 yil davomida madrasada tahsil olgan. So'ngra aholiga ilm-u ma'rifat tarqatish uchun ushbu hududga yuborilgan. Sayid otaning hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qiziqarli va ibratli hikoyalar ko'p. Ularning aksariyati xalq ichida tildan-tilga o'tib kelayapti. Ushbu qadamjo Respublikamizdagi barcha azaliy qadriyatlarimizning asoslaridan biri bo'lgan noyob me'moriy yodgorligi sifatida 2003 yilda qaytadan ta'mirlanib, xalqimizga taqdim etildi, Hazrat Sayid ota sag'anasi va dahmasi qayta qurildi, atrofi obodonlashtirildi va fuqarolarning serqatnov maskanlaridan biriga aylantirilib, yosh avlodni milliy mafkuraviy g'oyalar ruhida tarbiyalash yo'lida unumli va samarali foydalanilmoqda.

***Djaraquduq" Toshormoni.*** Navoiy viloyatining Qizilqum sahrosi noyob va qimmatli yer osti qazilma boyliklari xazinası ekani bilan bir qatorda yuzlab mo'jizaviy hodisa va joylarning makoni hamdir. Shulardan biri Uchquduq tumanining 130 km g'arbida joylashgan Mingbuloq botig'idagi Djaraquduq darasidir. Ushbu darada sayyoramizda yagona hisoblangan toshga aylanib qolgan (o'simliklar, hayvon suyaklari va baliq tishlari) tabiat namunalari mavjud. Mazkur

hududni O`zbekiston Respublikasi Geologiya va minerologiya ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassisleri va xorijiy olimlar hamkorligida 8 yil davomida ilmiy tadqiqot ekspozitsiyalari uyushtirilib, chuqur ilmiy o`rganish ishlari olib borildi. O`rganishlar natijasida Qizilqum sahrosi o`rnida bundan 100 million yil avval Tetis dengizi bo`lganligi shuningdek, dengizga xos bo`lgan suv osti boyliklari va dengiz sohili o`rmon va to`qayzorlar shu yerga yashaydigan o`simlik va hayvonot dunyosi boyliklari to`g`risida ko`plab ilmiy asoslarga ega bo`lindi. Bular o`txo`r va go`shtxo`r dinosavrlar, timsohlar, baliqlar va boshqa dengiz jonivorlari, suv osti marjon qoyalari g`aroyibotlari dengiz sohilidagi ninabargli daraxtzorlar, mevali daraxtzorlar, saksovullar va to`qayzorlarning toshga aylanib bugungi kungacha saqlanib qolgan noyob namunalaridan iborat. Ushbu qimmatli topilmalarga asoslanib, mazkur hudud tabiati haqida tasavvurga ega bo`lish imkonini beradi. Eng muhim yurtimizning yuz million yil muqaddam mavjud bo`lgan tabiati to`grisida boy bilimga ega bo`lish mumkin. Hududdagi mo`tadil iqlim, boy ozuqa, qulay muhit hosildor dalalar bo`lganligi sababli bu yerlarada o`zgacha boy tabiat to`g`risida ilmiy ma`lumotlarga ega bo`lamiz. Ushbu kolleksiya tarkibidan joy olgan eksponatlar yuqorida keltirilgan namunalardan tashkil topgan. Tabiat boyliklarini toshga aylanib qolish sabablarini dunyo olimlari tomonidan turlicha izohlashadilar. Shulardan biri Tetis dengizi tubidan otilib chiqqan vulqon oqibatida tabiatning bir qismi toshga aylangan desalar yana boshqa bir guruh olimlar koinotdan o`zga jism «meteorid» Tetis dengiziga kelib to`qnashganligi oqibatida portlash sababli hududdagi tabiatning bir qismi toshga aylanib qolganligi to`g`risidagi fikrdir.

### **III. BOB. ZARAFSHON MINTAQASIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI VA TA'LIM JARAYONDA TURIZM GEOGRAFIYASINI O'QITILISHI**

#### **3.1. Mintaqada kelajakda turizmni rivojlantirish uchun olib borilayotgan sa'y-harakatlar**

2016 yil 2-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

O'zbekiston noyob bir mamlakat bo'lib, uning hududida eng qadimgi tamaddun va madaniyatlar yuzaga kelgan, rivojlangan, o'z jozibadorligi jihatidan dunyodagi dam olish va sayohatlar uchun eng yaxshi maskanlardan qolishmaydigan ulkan turizm salohiyatiga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizda 7 mingdan ziyod nodir tarixiy yodgorliklar va ulug'vor hamda betakror arxitektura namunalari mavjud. Mamlakatning so'lim qo'riqxonalar va milliy bog'lari uning boy va rang-barang tabiati durdonalaridir. Mamlakatda milliy madaniyat, san'at va hunarmandchilikning ko'p asrlik an'analari avaylab asrab kelindi va rivojlantirilmoqda. Jahonga mashhur milliy taomlarimiz va pazandachilik sohasidagi an'alarimiz SHarq mehmondo'stligining ramzi hisoblanadi.

Shunga qaramay, O'zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darajasi, shuningdek tarmoqni boshqarish tizimi globallashuv va keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan orqada qolmoqda. Turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi, turizmning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10 foizdan ko'proqni tashkil etadi, tarmoqda jahondagi mehnatga qobiliyatli aholining 8 foizga yaqini ish bilan band, turizm xizmatlari jahon eksportining 7 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi. SHu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilingan Farmoni turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishni ta'minlashga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori

maqomini berishga, uni mamlakat iqtisodiyotini barqaror o‘stirishning, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishning, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishda turizm rolini kuchaytirishning qudratli vositasiga aylantirishga qaratilgandir. Farmonda turizm sohasida davlat siyosatining sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini belgilab beradigan ushbu tarmoqni tubdan isloh qilish bo‘yicha misli ko‘rilmagan chora-tadbirlar nazarda tutiladi, quyidagi asosiy maqsadli vazifalar va ustuvor yo‘nalishlar belgilanadi: Turizm industriyasi sub’ektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, turizmni rivojlantirishdagi barcha to‘siq va g‘ovlarga barham berish, viza va ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish;

Turizm xizmatlarini tashkil etishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Turizmning yangi salohiyatli turlari – ziyorat qilish, ekologik, ma‘rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog‘lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik, bolalar, yoshlar va oilaviy turizmni jadal rivojlantirish;

Turizm sohasida xalqaro va milliy tashkilotlar, yirik xorijiy brendlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm xizmati ko‘rsatishning ilg‘or jahon sifat standartlarini joriy etish;

Respublika mintaqalarida turizm infratuzilmasining zamonaviy ob‘ektlari, eng avvalo mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;

Raqobatbardosh turizm mahsulotlarini ishlab chiqish, mintaqalarda yangi turizm yo‘nalishlarini yaratish, ularni jahon turizm bozorlariga olib chiqish; turizm tarmog‘i uchun malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish.

Davlat siyosatini samarali amalga oshirish, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadli vazifalar hamda ustuvor yo‘nalishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish

maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi, uning mintaqalarda bo‘limlari va vakolatli vakillari faoliyat olib boradi.

Xorijiy turistlar uchun mamlakatimiz jozibadorligini oshirish maqsadida davlatning viza siyosatini tubdan liberallashtirishni nazarda tutuvchi Farmonning eng muhim jihati quyidagilardan iboratdir: 2017 yilning 1 apreldan boshlab 15 ta davlat, shu jumladan Avstraliya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Lyuksemburg, Niderlandiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Finlyandiya, SHveysariya va YAponiya kabi davlatlarning turistlari, shuningdek 55 yoshga to‘lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga keluvchi 12 davlat, shu jumladan Belgiya, Indoneziya, XXR (turistlar guruhlarini tarkibida), Malayziya, AQSH, Fransiya, Vetnam, Isroil, Polsha, Vengriya, Portugaliya va CHexiyaning fuqarolari uchun viza rejimi butunlay bekor qilinadi;

Barcha mamlakatlar uchun 30 kun muddatga beriladigan yagona turizm vizalari joriy etiladi, vizalar olish, shu jumladan viza olish so‘rovlarni to‘ldirishning onlayn tizimidan foydalangan holda olish tartibi sezilarli ravishda soddalashtiriladi, shuningdek 2018 yildan boshlab elektron vizalar tizimi joriy etiladi.

Mazkur tartib-qoidalar O‘zbekistonning turizm sohasidagi ijobiy qiyofasini yuqori darajaga ko‘tarish, mamlakatga turistlar oqimini talay darajada ko‘paytirish, shuningdek, mazkur sohadagi ishbilarmonlik faoliyatini kuchaytirish imkonini beradi. Aeroportlar, vokzallar hamda davlat chegarasi orqali boshqa o‘tish punktlarida xizmat ko‘rsatish sifati va saviyasini tubdan oshirish xorijiy turistlarning mamlakatga kelishlarida qulay shart-sharoitlar yaratilishining muhim omili hisoblanadi. 2017 yilning 1 apreligacha Toshkent, Samarqand, Buxoro va Urganch shaharlarining xalqaro aeroportlarida xorijiy turistlar uchun “yashil yo‘lak” bojxona nazorati tizimini, pasport va bojxona nazoratidan o‘tishning, bagajni olishning soddalashtirilgan tartib-taomilini joriy etish hamda transport

xizmati ko'rsatishni yaxshilash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish nazarda tutilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida va bozor munosabatlari rivojlanishi natijasida Zarafshon mintaqasida turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi turizmning mintaqa iqtisodiyotiga yanada integratsiyalanishini mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyoti tajribasidan ma'lumki turizm mamlakat xazinasini uchun zarur bo'lgan valyuta tushumini ta'minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birga aholining turmush darajasini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Mintaqaning geografik o'rnini nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanligidan tashqari, uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rnini ham beqiyos. Mintaqada joylashgan Samarqand, Buxoro va Navoiy shaharlari nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar, ajoyib milliy an'ana, urf-odatga ega bo'lgan mehmon do'st aholisiga ega. Bularning barchasi xorijlik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi va kishilarni lol qoldiradi.

Mamlakatimizda turizm sohasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq katta e'tibor berildi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmoqda. Bugungi kunda jahon xo'jaligida noishlab chiqarish tarmoqlarining hissasi muttasil oshib bormoqda. Fikrimiz isboti sifatida rivojlangan g'arb davlatlarida yalpi milliy mahsulot hajmining moddiy ishlab chiqarish sohalariga nisbatan xizmat ko'rsatish tarmoqlari ulushining oshib ketganligini keltirishimiz mumkin. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi keng ko'lamiga ega bo'lib, insonlar hayotini yaxshilashda muhim o'rnini tutmoqda. Shuning uchun so'ngi yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa xizmatlar bozorida yangi istiqbolli xizmat turlarining ya'ni rekreatsiya va turizm xizmatlarining shakllanishiga asos bo'lmoqda.

Samarqand shahrida 2014 yil 2-oktabrda BMT Jahon Sayyohlik Tashkiloti Ijroya Kengashi 99-sessiyasi bo'lib o'tdi. Bu sessiyada jahonning 100 ga yaqin mamlakatlardan delegatlar ishtirok etishdi. Mamlakatimiz prezidenti Islom Karimov sessiyaning ochilish marosimida nutq so'zladi. O'zbekiston hududida 7 mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib ularning aksariyati YUNSKO ning Butunjahon merosi ro'yxatga kiritilgan. Sharq durdonalari bo'gan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qo'qon va Termiz shaharlari shular jumlasidandir. 2013 yilda mamlakatimizga dunyoning 70 dan ortiq davlatlardan 2 milliondan ortiq turistlar tashrif buyurishdi. Bu sohada mamlakatimiz boyicha 200 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda, 550 ta sayyohlik kompaniyasi turoperatorlari faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham jahondagi yetakchi mamlakatlarning rivojlanish darajasiga erishish maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqib, o'z milliy modeliga asoslangan holda turizm sohasini shakllantirish uchun barcha zaruriy ishlarni olib bormoqda. Ushbu milliy model birinchi navbatda ichki imkoniyatlarni, o'zbek xalqining mentalitetini va jahon andozalariga mos keladigan omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozimligini yoddan chiqarmaslik kerak. O'zbekistonning jahon turizm bozoridagi salohiyatiga baho beradigan bo'lsak, uning Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori imkoniyatlarga ega ekanligini ko'ramiz. Bu haqda, masalan, Respublika hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ortiq qadimiy me'morchilik, monumental san'at yodgorliklari dalolat beradi. O'zbekiston tarixiy me'morchilik yodgorhklarining umumiy soni bo'yicha jahondagi yetakchi o'n mamlakatlar qatoriga kiritilib, to'rtta yirik shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz YUNESKO tomonidan jahon madaniyati yodgorliklari markazi sifatida tan olingan va xalqaro tashkilot tomonidan muhofazaga olingan. Xalqaro turizm sohasi respublikamiz iqtisodiyoti uchun g'oyatda zarur bo'lgan valuta tushumini ta'minlaydi. Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirishda tarixiy-madaniy obidalar bilan bir qatorda dam olish va madaniy



hordiq chiqarish uchun xizmat qiladigan turistik obektlarning ham mayjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zarafshon mintaqasi turizm infrastrukturasi rivojlanishini tahlil qilish asosida uni hududiy tuzilishini yaxshilash yo'llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, uning quyidagi vazifalari belgilandi va hal etildi.

➤ Turistik–rekreatsion resurslarning geografik jihatdan o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish istiqbollari belgilash;

➤ Mintaqaning turistik rekreatsion resurslaridan samarali foydalanish va turizmni rivojlantirish istiqbollari aniqlash;

➤ Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlarida turizmning rivojlanishi va uni hududiy tahlil qilish;

➤ Turizm infrastrukturasi rivojlantirishning iqtisodiy ijtimoiy muammolari va mintaqada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish choralarini aniqlash.

Bajarilgan tadqiqot ishining asosiy masalalaridan eng avvalo mintaqada turizm infrastrukturasi rivojlanishida, rekreatsion resurslarini o'rganish, turistik rekreatsion nuqtalarini aniqlash va tarixiy-me'moriy obidalar, muzeylarini tahlil qilish hamda mehmonxona xo'jaliklarini hududiy tashkil etilishi masalalari asosida kompleks geografik tadqiqot o'tkazilishi bilan tavsivlanadi.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizmning ahamiyati katta. Buxoro shahri va viloyatning boshqa turistik markazlari respublikamizda Samarqand, Xiva, Toshkent kabi mahalliy va xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Ayniqsa, Buxoro shahrida Ark, Labi Hovuz, Minorai Kalon, Somoniylar maqbarasi, viloyat markazi yaqinida joylashgan Bahoviddin Naqshbandiy, Sitoroi-Mohi Xossa, G'ijduvon shahridagi Abduxoliq G'ijduvoni maqbarasi, shuningdek, Vobkent, Romiton va boshqa tumanlardagi qadamjo va ziyoratgohlar turizm rivojlanishining asosiy ob'ektlari sanaladi. Qolaversa, cho'l landshafti ham o'ziga xos turistik ahamiyatga ega. Kengroq geografik nuqtai nazardan qaralganda, umuman Zarafshon vodiysi o'zining tarixi, shahar va boshqa qadamjolari bilan umumiy, yagona xalqaro turistik rayonni hosil qiladi. Qizig'i shundaki, bu rayonning ikki asosiy markazi Buxoro va Samarqandni qayta tiklangan Imom Buxoriy majmuasi

bog'lab turadi.

Samarqand viloyati mamlakatimizda turizm sohasi bilan ham ajralib turadi. Bu hududda joylashgan, asosan sohibqiron Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bek tomonidan barpo etilgan olamshumul binolar, madrasalar, tarixiy yodgorliklar Registon, Shohi Zinda, Go'ri Amir, Ulug'bek observatoriyasi, Bibixonim madrasasi, Dahbed qishlog'ida joylashgan Mahdumi A'zam, Payariq tumanida respublika Prezidenti tashabbusi bilan barpo etilgan Imom Buxoriy qadamjolari nafaqat mamlakatimizda, balki Islom olami va butun dunyoda ham mashhurdir. Bunday qadamjo va ziyoratgohlar viloyatning boshqa tumanlarida ham ko'p (Urgut, Samarqand, Qo'shrabot va b.). Shuningdek, Samarqandning mashhur noni, shirinliklari va milliy taomlari, arxitektura va shaharsozlik yodgorliklari sayyohlar uchun katta qiziqish tug'diradi.

Viloyatda jami 76 ta mehmonxonalar – turistik infratuzilmaning eng muhim ob'ektlaridan biri mavjud, ulardagi o'rinlar soni 3400 ta. Xususiy sektorda ham mehmonxonalar tashkil qilingan. Bir yilda taxminan 140-150 mingta sayyohga, shu jumladan 90 mingta xorijiy fuqarolarga turistik xizmat ko'rsatiladi.

Zarafshon turistik rayoni xalqaro turizmning Markaziy Osiyodagi muhim bo'g'ini sifatida o'z salohiyatiga egadir. Sru jihatdan bejizga “Samarqand sayqali ro'yi zaminat”. Samarqand dunyoning eng go'zal shaharlaridan biri bo'lib, ochiq muzey hisoblanadi. Uning asrlar davomida saqlanib kelayotgan tarixiy turistik ob'ektlari dunyo sayyohlarini o'ziga chorlab kelmoqda. Shaharning Eramizdan oldingi davrlardan boshlab XIV-XV asr va undan keyingi tarixiy, madaniy yodgorliklari diqqatga sazovordir. Qadimiy Afrosiyob, Shohi-Zinda, Bibixonim madrasasi, Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Imom Al-Buxoriy, Al Motrudiy, Xo'ja Axrori Vali va temuriylar tomonidan qurilgan ko'plab maqbaralar muhim turistik ob'ekt sifatida qaraladi.

Mazkur turistik rayonning yana bir eng muhim turistik markazi sifatida Buxoro viloyati, xususan, Buxoroyi Sharif boy tarixiy turistik ob'ektlarga egaligi bilan jahonga mashhur. Ayniqsa, Ismoil Somoniy maqbarasi (9-10 asr), Sayfuddin Buxoriy (13 asr), Poyi-Kalon ansambli, Qush madrasasi, Labihovuz (12-13 asrlar), Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshbandiy ziyoratgohlari ular ichida eng noyob tarixiy va diniy turistik

ob'ektlar hisoblanadi. O'zbekistonda Buxoro o'ziga xos milliy hunarmandchilik (zardo'zlik, kashtachilik, kulolchilik va h.k) maktabiga egadir. Buxoro viloyatidagi Sitorai-Moxi-Xosa va Abu-Ali Ibn-Sino nomli shifoxonalari respublika ahamiyatidagi sog'lomlashtirish va dam oladigan joylardan biridir. Bundan tashqari, mintaqa ekoturistik salohiyati jihatdan ham respublikada o'ziga xos mavqega ega.

Rayonning Navoiy viloyati respublika viloyatlari ichida hududiy jihatdan eng katta bo'lib, unda yuzlab madaniy, tarixiy va tabiiy turistik ob'ektlar mavjud. Xususan mintaqadagi Nurobod, Malikrabod, Qosimshayx tarixiy ziyoratgohlari diniy sayyohlikda ahamiyatlidir: SHuningdek viloyat hududidan "Buyuk ipak yo'li"ning o'tganligi natijasida o'nlab qadimiy sardobalarning mavjudligi ham turizmda muhimdir. Bundan tashqari, viloyatda "seledeb" landshaftlar, jumladan, Qadimiy shahar va qal'a xarobalari, arxeologek obidalar, tabiiy ekoturistik joylar hozirgi kunga qadar turizm maqsadida foydalanilmagan.

Ayniqsa, Qizilqumning go'zal tabiati, Nurotaning tarixiy ziyoratgoh va buloqlari hamda Navoiy shahrining shaharsozligi mintaqada mahalliy va xalqaro sayyohlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

### **3.2 Ta'lim jarayonida turizm geografiyasining o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari**

Turizm geografiyasi - iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir bo'lagi bo'lib, u turli mamlakat va mintaqalarda sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va hududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o'rganadi. "Turizm geografiyasi"-ma'lum bir mintaqa yoki mamlakatlarni turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan o'rganuvchi fandır.

"Turizm geografiyasi" boshqa tabiiy va iqtisodiy geografiya fani tarmoqlaridan o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu fanni biror bir mamlakatning tabiati, aholisi, xo'jaligini kompleks o'rganish qiziqtiradi, balki ularning turizmni qanday rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi qiziqtiradi. Bundan tashqari, turizm geografiyasi fanini nafaqat biror-bir mamlakat tabiati, aholisi va xo'jaligi qiziqtiribgina qolmasdan balki shu mamlakatdagi madaniy-tarixiy obidalar ham qiziqtiradi. Chunki hozirgi vaqtda juda ko'p turistlar bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga borganda albatta o'sha mamlakatdagi

mavjud madaniy-tarixiy obidalarni tomosha qiladi, shuning evaziga u dam oladi, hordiq chiqaradi. Bundan tashqari, turizm geografiyasi fanini nafaqat mamlakatlarning tabiati, madaniy-tarixiy obidalarini qiziqtiribgina qolmasdan balki ushbu mamlakatdagi mashhur davolanish markazlari, ilmiy markazlar, savdo markazlari, sport markazlar, mavsumiy tovarlarni sotishi, bayramlari ham qiziqtiradi. Chunki bunday hollarni o'rganish, turistlarni jalb qilish muhim rol o'ynaydi.

Turizm geografiyasi fanining asosiy vazifalari esa:

-Turizm va turist tushunchalarini ta'riflash, ularning ilk ko'rinishlari, taraqqiyoti, shakllanishi haqida ilmiy va daliliy manbalar ketirish;

- O'zbekiston Respublikasining turizm tug'risidagi davlat siyosati haqida (me'yoriy hujjatlar asosida ma'lumotlar berish;

-Jahon turizm tajribasining ilg'or namunalari bilan o'rtoqlashish;

-Turizm va turistning maqsadlarini aniqlab olish;

- Turizm infratuzilmasi haqida ma'lumot olish;

-Turistik resurslar haqida tushuncha berish;

- Turistik xizmatlar va servis darajasini takomillashtirish sirlarini ochib berish;

Turizm marshrutlari va maxsus marshrutlar haqida bilimlarga ega bo'lish masalalarini o'rganish va boshqalar.

Turizm inson hayoti va faoliyatining ko'p sohalarini qamrab oladi. Shuning uchun turizmni o'rganish psixologiya antropologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, geografiya, informatika, huquq kabi fanlar bilan uzviy ravishda bog'liq. «Turizm geografiyasi» fani geografik fanlar bilan uzviy ravishda bog'liq. Chunki har bir mamlakatda turizmning rivoji o'sha mamlakatning turistik resurslariga bog'liq. Turistik resurslar tabiiy turistik resurslarga iqtisodiy geografik va ijtimoiy geografik resurslarga bo'linadi. Bu esa turizm geografiyasining geografik fanlar bilan uzviy ravishda aloqasida ochib beriladi. Turizm rivojiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat: tabiiy geografik omillar, iqtisodiy geografik omillar, etnik omillar va madaniy –tarixiy omillar. Ushbu omillarning turizm rivojiga ta'sirini ko'rib o'tamiz.

**Tabiiy geografik omillar.** Tabiiy geografik omillar eng avvalo joyning geografik o'rnini bilan uzviy ravishda bog'liq. Joyning geografik o'rnining qulayligi turizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hozirga qadar iqtisodiy rivojlangan Yaponiya va Yangi Zelandiya davlatlari turistlarni o'ziga jalb qilishda, Ushbu davlatlarning boshqa davlatlardan uzoqda joylashganligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda Markaziy Yevropa, Vest-Indiya, (Markaziy Amerika), Singapur davlatlarining qulay geografik o'rnida joylashganligi tufayli ularda xalqaro turizm yaxshi rivojlangan. Har qanday turistik o'lkaning yer usti tuzilishi turistlarni o'ziga jalb qilishda ikki xil ta'sir ko'rsatadi. Agar turistik o'lkaning yer yuzasi murakkab (tog', adir, tekislik va h.k.) tuzilgan bo'lsa, bu joydan avtomobil va boshqa yo'llar o'tkazishda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Shu bilan birga murakkab tog' reliefi turistlarni o'ziga jalb qiladi. Tog'li joylar, rekreatsiya resurslarining boyligi bilan ya'ni havosining tozaligi, ultrabinafsha nurlarining ko'pligi, tog'-chang'i sportini rivojlantirish imkoniyatlarining kattaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli Yevropadagi Alp, Osiyodagi Himolay, Afrikada Atlas, Amerikada And va Koldilera tog'lari turistlarni o'ziga eng ko'p jalb qiluvchi tog'li o'lkalar hisoblanadi.

Turizm rivojiga joyning iqlimi juda katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki xorijga borib dam oluvchilar o'zlarining ta'til vaqtlarini yaxshi o'tkazish uchun o'zlari uchun qulay yil faslini tanlaydilar. Iqlim sharoitiga ko'ra har ikkala yarim sharda mo'tadil va issiq mintaqalarga turistlarning kelishi boshqa mintaqalarga nisbatan ancha ko'p. Shu bilan birga keyingi yillarda tabiatning betakror (ekzotik) joylarini ko'rish maqsadida sovuq iqlimli mintaqalarga ham turistlarning kelishi ortmoqda. Keyingi yillarda Grenlandiya va Shpitsbergin, Skandinaviyaning shimoli, Olovli yer orollari va boshqa sovuq joylarga aylanmoqda (M.Efremova, 1998 y). yer sharining turli qismida iqlimning turlichaligi sababli shimoliy o'lkalarda yashayotgan kishilar janubga intiladi. Angliyaning tumanli «Albedo» o'lkasida yashayotganlar Fransiya, Ispaniya va Italiyaning serquyosh joylariga intiladilar.

Dengiz va okeanlarning qirg'oq yoqalari turizmni rivojlantirish uchun juda qulay hisoblanadi. Bunday joylar sayohat uyushtirish uchun qulay, ya'ni bunday

joylarda dengiz bo'yida quyoshga toblanishning qulayligi, dengiz suvi, cho'llanish uchun qulay plyajlarning ko'pligi turistlarni o'ziga jalb qiladi. Shu sababli Fransiya va Italiyaning dengiz bo'yidagi riveralari, Balgariyaning Qora dengiz bo'yi qirg'oq yoqalari, Baom va Bermud orollar va boshqa o'lkalar aholining dam olish va turistlarning kelishi uchun juda qulay hisoblanadi. Dengiz qirg'oq yoqalarida aholi dam olish joylarining torlik qilishi ko'pgina mamlakatlarda dengiz qirg'oq bo'ylaridagi dam olish joylarini kengaytirishga olib keladi. Jumladan, Fransiya o'zining dengiz bo'yi dam olish zonasini Russilon hisobiga, Bolgariya Qora dengizi qirg'oq yoqasida kurort mintaqasini 400 kmga kengaytirdi. (m.Evremova, 1998 y).

Daryo va ko'llar muhim turistik boyliklar hisoblanadi. Ular atrof muhitga chiroy beradi, mikroiklimni yumshatadi, daryo va ko'l yoqalarida baliq ovlash, suv sproti bilan shug'ullanish imkoniyatini beradi. Ko'l yoqalarida dam olish zonalarini tashkil qilish Shveysiya, Avstrya, Buyuk Britaniya, Vengrya, Polsha, Rossiya va Qirg'izistonda rivojlangan. Dam olish zonalarini tabiatini o'rmonlar bezab turadi. O'rmonzorlarning dam olish zonasida mavjud bo'lishi, dam oluvchilarga o'ziga xos kayfiyat bag'ishlaydi, dam oluvchilarning tashqi muhitdan qisman bo'lsada zavqlanish imkoniyatini beradi. O'rmonlar odam salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli turizm industriyasi dam olish maskanini qurishda uning atrofiga daraxtlar ekib, o'rmonzorlar barpo qilishini ham o'z bo'yniga oladi.

Dam olish zonasida turislar mavjud fauna vakillarini ko'rishi va hayvonot bog'larida bo'lishi mumkin. Shu sababli, dam olish zonasi atrofida hayvonot bog'larini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ayrim dam oluvchilar mahalliy fauna vakillarini tabiat qo'ynida ko'rishni hohlashadi. Bunday hollarda ularni qo'riqxonaga yoki zakazniklarga olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda dam oluvchilarni mahalliy fauna bilan tanishtirish maqsadida turistlar uchun mahsus ov qilish mintaqasi tashkil qilingan. Bunday ov qilish mintaqalar Afrika, Osiyo, Kanada, yevropa va Avstraliyada mavjud (M.Edremova, 1998 y.)

Dam olish maskanlarini tashkil qilishdagi muhim geografik resurslardan biri shifobaxsh suvlar, baliqlar hisoblanadi. Bunday joylarda ko'plab dam olish maskanlari quriladi. Shunday qilib, xalqaro turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillarga baho berar ekanmiz, shuni alohida e'tirof etish lozimki, tabiatning barcha komponentlar turizmni rivojlantirish uchun qulay. SHu sababli tabiat komponentlarning har birini xalqaro turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan o'rganish va baho berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Iqtisodiy geografik omillar.** Xalqaro turizm rivojiga iqtisodiy geografik omillarning ta'siri ikki shaklida ko'zga tashlanadi, ya'ni u yoki bu rayonga turistlar oqimining ko'plab kelishiga ta'sir etuvchi ob'ekt sifatida, hamda turizm rivoji uchun asosiy vosita sifatida.

Birinchi holda biror bir mamlakat iqtisodiyoti xalq xo'jaligi tarmoqlari yuksak darajada rivojlangan bo'lib, aholi uchun kerakli bo'lgan xilma-xil tovarlar ishlab chiqarish, hamda bu tovarlarga odamlarning qiziqishining yuqori bo'lishi;

Ikkinchi holda turistik kompaniyalar tomonidan turli darajada rivojlangan texnologiyalarni turistlarga ko'rsatish uchun olib borilsa. Masalan, Yaponiyada turistlarni radio va fototovarlar ishlab chiqaradigan korxonalariga olib borishadi. Chexiyada turistlarni shisha ishlab chiqarish korxonalariga, Bolgariyada gullar vodiysiga olib boradilar. Chunki bunday joylarni ko'rsatish turistlarning yanada ko'plab kelishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro turizm rivojiga aholining etnik xususiyatlarining ta'siri kattadir. Sayyoramizda yashayotgan turli xil millat va ellatlar bir-birlaridan irqi, dini, tili, madaniyati, urf-odatlarini, milliy an'analarini bilan farq qiladilar. Xalqlar o'rtasidagi bunday an'analarini ko'rishga har qanday odam qiziqadi. Bu esa o'z navbatida xalqaro turizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli millat va elatlar orasida bo'lish ularni bir-biriga yaqinlashtiradi, xalqlarning bir-biriga hurmati ortadi, ularga hurmat va ehtirom bilan qarash imkoniyati vujudga keladi. Xalqaro turizm xalqlar milliy madaniyatining saqlanib qolishiga, ularning yanada taraqqiy etishiga yordam beradi.

Madaniy tarixiy obidalar etnik omillar bilan uzviy ravishda bog'liq. Arxitektura-me'moriy yodgorliklari, muzeylar, rasmlar galereyasi, milliy hunarmandchilik turli tarixiy voqealarni o'zida mujassamlashtirgan haykallar, turistlarni o'ziga so'zsiz jalb qiladi. Chunki chet el turistlari o'zlari borgan joyda eng avvalo, tarixiy va me'moriy obidalarni ko'rishga harakat qilishadi. Jumladan, Anglyaga borgan sayyohlarning 2 mlndan ortig'i bu yerda buyuk kishilarning ko'milgan joylarini ziyorat qilishga intilishadi. O'zbekistonda turistik resurslarning 70 foizini arxitektura me'moriy yodgorliklari tashkil qiladi. Xorijiy turistlarni mahalliy hamda antiqa ishlangan suvenirlar ham qiziqtiradi. Shu sababli mahalliy suvenirlarni ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil qilish turizmdan keladigan foydaning ortishiga olib keladi.

**Turizm klassifikatsiyasi.** Hozirgi zamon turizmini klassifikatsiya qilish uchun eng avvalo uning asli mohiyatini ochib beradigan belgilarni aniqlash maqsadiga muvofiqdir. M.Eferemovaning (1998 y) fikriga ko'ra turizmning asl mohiyatini geografik belgilar, turistik oqimlarning yo'nalishi, maqsadi, mablag' bilan ta'minlanganligi, harakatlanishi, joylashishi, turistlar soni, tashkiliy va huquqiy asoslari ochib beradi.

Ushbu belgilarga ko'ra M.Efrimova (1998 y) tomonidan turizm quyidagicha klassifikatsiya qilinadi. (1-jadval).

### **Turizm sohasining tasniflanishi**

*1-jadval*



Tasniflanadigan belgilar	Turizm turlari
<b>1. Geografik belgilar bo'yicha</b>	<b>1. Ichki</b> <b>2. Xalqaro.</b>
<b>2. Turistik oqimlar yo'nalishi bo'yicha</b>	<b>1. Kiruvchi</b> <b>2. CHiquvchi.</b>
<b>3. Maqsadi</b>	<b>1. Rekrasiya</b> <b>2. Sog'lomlashtirish</b> <b>3. Bilimini oshiradigan dam olish</b> <b>4. Malakaviy ish turizmi</b> <b>5. Ilmiy turizm</b> <b>6. Sport turizmi</b> <b>7. SHop-turizmi</b> <b>8. Sarguzashtli</b> <b>9. Ziyorat (haj) safari</b> <b>10. Qo'msash</b> <b>11. Ekoturizm</b> <b>12. Ekzotik</b>
<b>4. Moliyalashtirish manbai bo'yicha</b>	<b>1. Sosial turizm</b> <b>2. Tijorat turizmi</b>
<b>5. Harakatlanish usuli bo'yicha</b>	<b>1. Yayov</b> <b>2. Aviatransport</b> <b>3. Dengiz transporti</b> <b>4. Daryo transporti</b> <b>5. Avtotransport</b> <b>6. Temiryo'l transporti</b> <b>7. Velosiped transporti</b> <b>8. Ulovlarda</b> <b>9. Aralash</b>
<b>6. Joylashuv vositalari bo'yicha</b>	<b>1. Otellarga-mehmonxonalarga</b> <b>2. Motellarga</b> <b>3. Pansionatlarga</b> <b>4. Kempinglarga</b> <b>5. Palatkalarga</b> <b>6. Rotellarga</b> <b>7. Botellarga</b> <b>8. Flotellar va h.k</b>
<b>7. Ishtirok etuvchilar soni bo'yicha</b>	<b>1. Individual</b> <b>2. Oilaviy</b> <b>3. Guruhlar bo'lib</b>
<b>8. Tashkiliy shakllari bo'yicha</b>	<b>1. Tashkil qilingan</b> <b>2. Ixtiyoriy.</b>

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida turistlarni guruhlariga ajratishning har biriga to'xtalib o'tamiz.

**Ichki turizm.** Agar turist o'z yashab turgan mamlakat hududdan chiqmasdan sayohat qilsa, turizmning bunday shakliga ichki turizm deb ataladi. Bunday turistlar uchun viza kerak emas, o'zining milliy pulidan foydalanadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda turistik sayohatlarga chiqishning 90%i ichki turizmga to'g'ri keladi. Ichki turizmning rivojlanishi har bir mamlakatda turistik resurslardan foydalanish, turizm infra tuzilmalarini rivojlantirish, turizm bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

Keyingi yillarda xalqaro turizm bilan ichki turizm orasida bir-biriga yaqinlashuv yuz bermoqda. 1985 yil iyun oyida yevropa davlatlarining bir guruhi Gollandiya, Belgiya, Germaniya, Fransiya, Lyuksenburg, Italiya kabi davlatlarning hukumat boshliqlari Shengel hamkorligiga imzo chekdilar. Keyingi yillarda yevropa davlatlarining 12 tasida yagona pul muomalasi «Evro»ga ega bo'ldilar. Bu esa Ushbu mamlakatlarning barchasida pul, tovar va turistlarning erkin harakat qilish imkoniyatini beradi. Ushbu davlatlarda yagona viza siyosati amalga oshirildi. Bu esa yevropaga turistlar oqimining ko'plab kelishi va ularning viza uchun mablag' va vaqt sarflanmasligiga olib keldi.

**Xalqaro turizm.** Turistlarning bir mamlakatdan baoshqa mamlakatga tomosha qilishga, ko'rishga, dam olishga, davolanishga borishidir. Xorijiy mamlakatlarga pul ishlab kelish uchun borish turizmga kirmaydi. Agar turist bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga kamida 24 soat tursa, bunday kishilar turist hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarga sayohatga chiqishdan oldin sayohatga chiqayotgan kishilar uchun viza ochiladi, ular tibbiyot ko'rigidan o'tkaziladi, milliy pul, xorijiy mamlakat puliga almashtiriladi. Bunday ishlarning amalga oshirilishi eng avvalo aholini noqonuniy migratsiyasiga, xalqaro terrorchilikka harakati, narkotik moda va fohishabozlikka qarshi kurash uchun amalga oshiriladi.

Xalqaro turizmning ikkinchi o'ziga xos xususiyati yana shundan iboratki, xalqaro turizm mamlakat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chet ellik turistlarning tavar va turizm xizmatlari uchun to'lovlar mamlakatga valyuta

tushumining ortishiga olib keladi. Shu sababli xalqaro turizm faol turizm deyiladi. SHu bilan birga turistlarni eksport qiluvchi mamlakatlarda pulning bir qismi turistlar bilan chiqib ketadi. Shu sababli faqat turistlarni eksport qiluvchi mamlakatlardagi turizm passiv turizm deyiladi.

Xalqaro turizm qatnashuvchi turistlarning 65 foizi yevropa mamlakatlariga, 29 foizi Amerikaga, 15 foizi boshqa mamlakatlarga to'g'ri keladi.

**Kelish turizmi**- biror mamlakatga turistlarning kelishi.

**Ketish turizmi**- biror mamlakatdan turistlarning ketishi.

**Rekreatsiya turizmi**-turistlarning o'z yurti yoki biror bir mamlakatga dam olishi uchun borishidir. Ispaniya, Italiya, Fransiya va Avstriyaga boruvchi turistlar ko'proq dam olish uchun boradilar.

**Davolanish turizmi.** Ushbu tardagi turizm shaxsiy xarakterga ega bo'lib, ko'p hollarda turistlar o'z sog'lig'ini tiklash, yani davolanish uchun bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga boradilar. Davolanish turizmining muddati ko'p hollarda 24-29 kuni tashkil qiladi. Davolanish turizmi organizmga ta'sir ko'rsatishiga qarab, iqlimiy, dengiz iqlimida davolanish, shifobaxsh balchiqqa, quyosh nurlarida davolanish kabi turlarga bo'linadi.

**Ko'rish (ekskursiya) turizmi.** Turizmning Ushbu turi biror bir mamlakat hududini tamosha qilish uchun tashkil qilinadi. Sayohat qilishdan asosiy maqsad-turistlarning dunyoqarashini kengaytirishdir. Tomosha qilish uchun sayohatga chiqishning muhim turlaridan biri avtomobillarda, avtobuslarda sayohat qilish hisoblanadi.

**Tadbirokarlik turizmi.** Turizmning Ushbu turida turistlar ma'lum bir maqsad yuzasidan bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga boradilar. Ish yuzasidan amalga oshiriladigan turistlarga davlat yoki biror bir tashkilot tomonidan safar xarajatlari to'lanadi. SHu sababli ko'pchilik davlatlar o'zlarida ko'proq xalqaro yig'ilishlar o'tkazishga harakat qiladilar. Tadbirokor turizmida savdo-sotiq ishlarini tashkil qilish, ilmiy kongres, anjuman, ishlab chiqarish seminarlari, stanoklarining YAngi texnologik linyalarini ishga tushirish, xalqaro ko'rgazmalar, shartnomalarni

imzolash ishlari amalga oshiriladi. Ushbu turizmga umumiy turistlar oqimining 10-20 foizi to'g'ri keladi. (M.Efrimova, 1998 y)

**Ilmiy turizm.** Bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o'qish malakasini oshirish uchun boriladigan turistlar ilmiy turizm deb ataladi. Ilmiy turizm turlaridan bir tilni o'rganish uchun tashkil qilinadigan turizmdir. Turizmning ushbu turi Buyuk Britaniyada rivojlangan.

**Sport turizmi.** Turizmning Ushbu turi sportchilarning turli musobaqalarda qatnashishi, ma'lum sport turi bo'yicha tayyorgarlik ko'rish uchun joy mamlakatlarga borishidir.

**Shop turizmi.** Rossiya va boshqa xamdo'stlikdagi mustaqil davlatlarning xalqlari uchun xos bo'lib, ular xorijiy mamlakatlarga har xil tovarlar sotib olishi va uni o'z mamlakatida sotishi uchun borishadi. Jumladan turistlar Turkiya, Italiya, Portugaliya va Suriyaga poyafzal, trikotaj va boshqa tovarlar sotib olish uchun borsa, Hindistonga to'qimachilik mahsulotlarini sotib olish uchun Gretsiya va Argentinaga mo'yna, po'stin sotib olish uchun, Italiyaga radio sotib olish uchun borishadi. Turizmning ushbu turi hisobiga tovar sotuvchi mamlakatlar katta foyda oladilar. Jumladan, Turkiya turistlarga tovar sotish evaziga yiliga 8-10 mlrd dollar foyda oladi.

**Tasodiflar turizmi.** Turizmning Ushbu turi yovvoyi hayvonlarni ov qilish, baliq ovlash, qadimgi boyliklarni izlab topishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradi. Tasodiflar turizmi quyidagi turlarga bo'linadi.

- a) paxodlarga chiqish;
- b) ovga chiqish (ov qilish, baliq ovlash, kapalak tatish);
- v) dengizda yelkanli kemada suzish.

Turizmning bunday turi ko'p hollarda guruhlar asosida amalga oshiriladi. Turizmning Ushbu turi uchun maxsus ruxsatnomalar sotib olinadi. Bundan tashqari turizmning Ushbu kishi hayoti uchun xavfli bo'lganligi sababli yuksak malakali instruktorlar jalb qiladi. Tasodiflar turizmi juda qimmatga tushadi. SHu sababli uni elletar dam olish turiga kiritiladi.

**Diniy ziyorat qilish turizmi.** Turizmning ushbu turi aholi o'rtasida keng tarqalgan. Ziyorat qilish turizmi bir nechta turlarga bo'linadi:

- a) muqaddas joylarni ziyorat qilish;
- b) muqaddas joylarni ko'rish, ularning tarixi, madaniyatini o'rganish;
- v) ilmiy safar diniy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchilarning muqaddas joylarga borishi.

Turizmning Ushbu turi uchun eng muhim muammolaridan biri yuqori malakali gidlarni tayyorlash hisoblanadi.

**Qo'msash (nostalgik) turizmi** Turizmning Ushbu turida sayohatchilar o'zlarining tug'ilib o'sgan joylarini borib ko'radilar. Turizmning Ushbu turi xalqaro turizmda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, Gretsiyadan chiqqan turistlar Volga bo'yida, yaxudiylar Isroilda yashovchi yaxudiylar orasida katta hurmatga sazovor bo'ladilar.

**Ekoturizm.** Atrof muhitni muhofoza qilishga qaratilgan turizmdir. Ekoturizm turistlarni tabiat quchog'iga olib chiqishdan tashqari, milliy bog'lar, qo'riqxonalar tuzishgacha bo'lgan muammolarni o'z ichiga oladi.

**Ekzotik (antiqa) turizmi,** keyingi yillarda tarkib topa boshladi. Jumladan, Gretsiyaning «Manos Treval» turistik firmasi oyiga sayohat qilishni rejalashtirmoqda Fransiyaning «Ajara» turistik firmasi muzyorar kemada Antarktida va Arktikaga sayohat qilishni rejalashtirmoqda. Antarktidaga bunday turistik sayohat 1989 yilda tashkil qilingan edi.

1997 yilda Antarktidaga 10 mingga yaqin 9 ming dollardan 16 ming dollargacha safar xarajatlarini to'laganlar. Ayrim turistlar suv ostiga sayr qilishni yaxshi ko'radilar. 1996 yilda dengiz va okeanlar tagiga sayr qilgan sayyohatlar 2 mln.dan oshadi. Suv ostiga sayr qilishni tashkil qilish evaziga firmalar tamonidan 147 mln dollar foyda olindi. (M.Efrimova, 1998 y).

Keyingi yillarda turistik firmalarga daromad keltiradigan turizm turlaridan bir kelin-kiyovlar sayohati hisoblanadi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning «Tompson xoldeyz» turistik kompaniyasi yiliga 5 ming kelin-kiyovlar uchun chipta sotadi. Tajribalar shuni ko'rsatadika, ko'pchilik kelin-kiyovlar Karib dengizi havzasi,

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Italiya, AQSHda o'zlarining asal oyini o'tkazishini yaxshi ko'radilar.

Ijtimoiy rag'batlantirish turizmi. Ushbu turizm davlat tomonidan aholining ma'lum qatlami uchun ijtimoiy yordam sifatida ajratilgan mablag' hisobiga amalga oshiriladi. Turizmning ushbu turi evaziga daromadi kam kishilarning dam olishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Tashkiliy turizm. Yakka holda yoki guruh holda turistik tashkilotlar tomonidan uyushtiriladi. Bunday turistlar turistik yo'llanmalarga ega bo'ladilar.

Ixtiyoriy turizm odamlarning bir biriga tashkilotga bog'liq bo'lmagan holda sayohat qilishidir.

## XULOSA

2016 yil 2-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. O'zbekiston noyob bir mamlakat bo'lib, uning hududida eng qadimgi tamaddun va madaniyatlar yuzaga kelgan, rivojlangan, o'z jozibadorligi jihatidan dunyodagi dam olish va sayohatlar uchun eng yaxshi maskanlardan qolishmaydigan ulkan turizm salohiyatiga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizda 7 mingdan ziyod nodir tarixiy yodgorliklar va ulug'vor hamda betakror arxitektura namunalari mavjud. Mamlakatning so'lim qo'riqxonalari va milliy bog'lari uning boy va rang-barang tabiati durdonalaridir. Mamlakatda milliy madaniyat, san'at va hunarmandchilikning ko'p asrlik an'analari avaylab asrab kelindi va rivojlantirilmoqda. Jahonga mashhur milliy taomlarimiz va pazandachilik sohasidagi an'analарimiz Sharq mehmondo'stligining ramzi hisoblanadi.

Insonning hayotiy faoliyati mehnat qilish jarayoni bilan birgalikda o'z vaqtida dam olish, sog'ligini tiklash va tabiatning betakror xushmanzara tarovatidan bahramand bo'lish katta ahamiyatga ega. Mehnat bilan dam olishning muntazam almashlanib kelishi inson uchun zaruriyatdir. Shundagina u tibbiy jihatdan sog'lom, ruhiy jihatdan aqli raso va jamiyat uchun samarali faoliyat ko'rsatadi. Rekreatsiya va turizm har bir davlat, mintaqa yoki hududning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'daniy, ma'rifiy sohalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishni e'tiborga olgan holda mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shadi.

Zarafshon mintaqasida turistik rekreatsion resurslaridan foydalanish va xalqaro turizmni rivojlantirish, shuningdek, mintaqa turizm infrastrukturasi rivojlanishini tahlil qilish asosida uni hududiy tuzilishini yaxshilash yo'llari maskur dissertatsiyada asosiy maqsad qilib olingan. Ishida turistik –rekreatsion resurslarning geografik jihatdan o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish istiqbollari belgilash, mintaqaning turistik rekreatsion resurslaridan samarali foydalanish va turizmni rivojlantirish istiqbollari belgilash, Samarqand,

Buxoro va Navoiy viloyatlarida turizmining rivojlanishi va uni hududiy tahlil qilish, turizm infrastrukturasi rivojlantirishning iqtisodiy ijtimoiy muammolari va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish choralarini aniqlashga etibor berilgan. Zarafshon mintaqasida turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan biri turizm xizmat bozoriga chiqarish va iste'molchiga yetkazib berishda turizm marketingidan foydalanish lozimligi asoslangan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida va bozor munosabatlari rivojlanishi natijasida Zarafshon mintaqasida turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi turizmning mintaqa iqtisodiyotiga yanada integratsiyalanishini mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zarafshon mintaqasida turizmni rivojlantirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar quyidagilardan iborat:

- Turizmning yangi salohiyatli turlari – ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik, bolalar, yoshlar va oilaviy turizmni jadal rivojlantirish;
- Turizm sohasida xalqaro va milliy tashkilotlar, yirik xorijiy brendlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm xizmati ko'rsatishning ilg'or jahon sifat standartlarini joriy etish;
- Zarafshon mintaqasida turizm infratuzilmasining zamonaviy ob'ektlari, eng avvalo mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;
- Mintaqada xalqaro turizmga kichik va o'rta tadbirkorlik faolliyati bilan keng foydalanish va xalqaro bozorlarga chiqishga intilish;
- Mahalliy axborot agentliklari orqali rivojlangan mamlakatlarni O'zbekistonning turistik imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishga harakat qilish;



➤ Xalqaro turistik tashkilotlar bilan axborot almashishni yaxshilash, birgalikda faoliyat yurita oladigan davlatlar bilan qo'shma korxonalar tuzish va ular faoliyatini keng yo'lga qo'yish;

➤ ichki turistik bozorda o'zaro raqobatni yanada kuchaytirish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir.

➤ O'zbekiston Respublikasi ham jahondagi yetakchi mamlakatlarning rivojlanish darajasiga erishish maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqib, o'z milliy modeliga asoslangan holda turizm sohasini shakllantirish uchun barcha zaruriy ishlarni olib boorish lozim. O'zbekiston Respublikasi ham jahondagi yetakchi mamlakatlarning rivojlanish darajasiga erishish maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqib, o'z milliy modeliga asoslangan holda turizm sohasini shakllantirish uchun barcha zaruriy ishlarni olib boorish lozim.

➤ Mintaqada sayyohlik infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish, tumanlarda madaniy va maishiy, kommunikatsiya va boshqa xizmat turlarini kengaytirish, ekoturistik ob'ektlarga boruvchi yo'llarni ta'mirlash va obodonchilik ishlarini olib boorish, hamda kadrlar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish kerak.

➤ Chet eldan keladigan investisiani ko'paytirish, turizm industriyasini rivojlantirish uchun reklama ishlarini, turistik marshrutlar tushirilgan yo'l ko'rsatkich xaritalari, e'tiborga loyiq joylarning rasm – otkritkalarini, yodgorlik va suvenir buyumlari ishlab chiqarishni, hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot ob'ekti hisoblangan Zarafshon mintaqasida turizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta. Shu o'rinda, Samarqand va Buxoro shaharlarining turistik salohiyati jihatidan dunyoda o'ziga xos mavqega ega ekanligi hammaga ayon. Ayni vaqtda mintaqadagi mavjud turistik ob'ektlarning ham katta sayyohlik salohiyatiga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Shu nuqtai nazardan dissertatsiyada mintaqa turizmini rivojlantirish maqsadida qishloq

joylarining turistik imkoniyatlari ham o'rganildi va ular tabiiy, tarixiy, diniy, madaniy-etnografik turizm nuqtai nazardan tahlil qilindi.

An'anaviy iqtisodiy geografiyaning ijtimoiylashib borishi jarayonida qator noishlab chiqarish sohalari geografiyasi vujudga kelmoqda. Shulardan bir turizm geografiyasi bo'lib, u rekreatsiya geografiyasining asosida yoki, ba'zi olimlar fikricha, uning bir qismi sifatida rivojlanib kelayotgan yangi yo'nalishdir. Turizm geografiyasi o'z mohiyat va mazmuniga ko'ra ijtimoiy geografiyaga kiradi. Chunki, uning vujudga kelishi eng avvalo kishilarning bo'sh vaqtidan samarali foydalanishi, hordiq chiqarishi va ma'naviy ozuqa olishi bilan bog'liq. Ayni vaqtda turizm geografiyasining iqtisodiy jihatlari ham yo'q emas. Sababi – turistik faoliyat natijasida mamlakatlar milliy iqtisodiyotida katta daromad olinmoqda. Binobarin, turizm geografiyasini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining muhim bir qismi darajasida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Turizmni iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida qaraganda uning to'rtta asosiy hududiy bo'g'inlari yoki bosqichlarini ajratish mumkin: xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy turizm. Bu erda biz uchun eng ahamiyatlisi mintaqaviy turizm hisoblanadi. Zero, aynan shu darajada turizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun tashkiliy va huquqiy asoslar mavjud. Mintaqaviy turizm mamlakatning ma'lum bir hududida o'zining ma'muriy - boshqaruv organi, infratuzilmasi mavjud bo'lgan makonni anglatadi. Ayni vaqtda mintaqaviy turizm doirasida turli masshtabda va ayniqsa kichik joylarda turistik ob'ektlar va ular bilan bog'liq bo'lgan infratuzilmalarning o'zaro joylashuvini hududiy turistik majmua sifatida qarash ham maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, olib borilgan tadqiqot xulosalari mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda, turistik ob'ektlardan samarali foydalanish hamda aholi salomatligini yaxshilashda, mehnat resurslarining bandlik darajasini oshirish va yangi ish o'rinlari barpo etishda ahamiyatlidir. Ayni vaqtda bajarilgan ishning ilmiy-amaliy tavsiyalari mamlakatimiz turistik tashkilot va firmalarning kelajak istiqbol rejalarini tuzishda ham foydali bo'lishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003. -36b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni.-T.: Oliy ta'lim me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami.I-tom, 2013.-B.6-12.
- 3.O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida qonuni. T.: 2016, 6-dekabr.

### II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 4.Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.-326b.
- 5.Karimov I.A. Barkamol avlod orzus. T.: Sharq, 1999.- 182 b.
6. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 2000.-350b.
- 7.Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.-195b.
- 8.Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.-368b.

### III. Darsliklar

- 9 Soliyev A.S. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi . – T.: O'qituvchi, 2014.-209b.
10. Musayev R., Musayev J. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 8-sinf darsligi. -T.: Sharq, 2014. B.142-146.
- 11.Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.– T. O'qituvchi, 2007. -310b.

#### **IV. O`quv qo`llanmalar va ilmiy maqolalar**

12. Ahmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma. – T.: O'zbekiston, 2006.-182b.

13. Oblaqulov H.A., “Zarafshon mintaqasida turizmning rivojlantirish masalalari” “Konstitutsiya-demokratik islohatlar tayanchi” Respublika ilmiy-nazariy konferensiya. Navoiy- 2015, B. 36-37.

14. Oblaqulov H.A. Maktab geografiya ta'limida turizm geografiasini o'qitilishi” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Buxoro- 2016-yil b 38-39

15 Oblaqulov H.A. “Navoiy viloyati ijtimoiy sohalarini geografik xususiyatlari” Respublika ilmiy-texnik konferensiya. Termiz - 2016-yil b 445-447

16. Oblaqulov H.A., Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirishda mehmonxona xizmatining ahamiyati Respublika ilmiy amaliy konferensiya. Andijon 2016-yil b 134-135

17. Oblaqulov H.A., Zarafshon vodiysidagi tarixiy madaniy yodgorliklar va ularning turizmga tutgan ahamiyati. O'zbekistonning biogeoeкологиya muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Termiz – 2016. B. 145-146.

18 Oblaqulov H.A. Navoiy viloyatida turizmni hududiy tashkil etishning geografik jihatlari . O'zbekiston Geografiya Jamiyati,-T.: 2017, B. 123-125.

19. Nabiyev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. – T.: Universitet, 2000.- 86 b.

20. Ro'ziyev A., Abirqulov Q. O'zbekiston iqtisodiy geografiasini. – T.: Sharq, 2001.- 144 b.

21. Soliyev A.S., Ahmedov E., Maxamadaliyev R.Y. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003.- 304 b.

22. Soliyev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiasini). – T.: Fan va texnologiya, 2009.- 212 b.

- 23.Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: Mumtoz so`z, 2010.- B.189-211.
- 24.Soliyev A. O'zbekiston geografiya jamiyati s'ezdan- s'ezgacha. -T.: O'zbekiston geografiya jamiyati IX- s'ezdi materiallari, 2014. – B.4-8.
- 25.Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot.-T., 2013.- 226 b.
- 26.Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (1989-2009 yy.). Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2010.- 276 b.
- 27.To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
- 28.Hayitov A.T.,Boymurodov N. Ta'limda hoan'anaviy darslar va interfaol usullrdan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi. 2006. - 76 b.
- 29.Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. T.: Mumtoz so`z, 2013.- 158 b.
- 30.7-sinf atlas.-T.: O'zbekiston Respublikasi yer resurslari,geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo`mitasi, 2014.-60b.
- 31.8-sinf atlas.-T.: O'zbekiston Respublikasi yer resurslari,geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo`mitasi, 2014.-60b.
- 31.Воронин В.В., Шаригин М.Д. Экономическая, социальная и политическая география.- Самара, 2006. - 254с.
- 32.Максаковский М.Р. Общая экономическая и социальная география. М.: ВЛАДОС, 2009.- 356с.
33. Саушкин Ю.Г. Географическое мисление.– Смоленск.: Ойкумена, 2011.- 256с.
- 34.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 35.[www.google.uz](http://www.google.uz)